



O'zbekiston yoshlarining adabiy-ijtimoiy jumali

ROSHADLIK

8/2021



Abdulla ORIPOV,

O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri

Bir marta...

Bir marta ko'rganman,
Faqat bir marta,
Tushimning hayotda rostga do'nganin.
Bir marta ko'rganman,
Faqat bir marta,
Oyning o'rog'iga yulduz qo'nganin.

Bir marta ko'rganman,
Faqat bir marta,
Otamning jimgina yig'laganini.
Bir marta ko'rganman,
Faqat bir marta,
Onang yo'q, deb bag'rin tig'laganini.

Bir marta ko'rganman,
Faqat bir marta,
Yangradi Ozodlik so'zi daf'atan.
Bir marta ko'rganman,
Faqat bir marta,
Yagona bo'lgandi o'sha kun Vatan.



Muassislar:

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi,
O'zbekiston yoshlar ittifoqi

1982-yildan chiqa boshlagan.

Tahrir hay'ati:

Sirojiddin SAYYID
Iqbol MIRZO
Nodir JONUZOQ
G'ayrat MAJID
Sobir O'NAR
Kengesboy KARIMOV
Shuhrat SIROJIDDINOV

Jamoatchilik kengashi:

Alisher SADULLAYEV
Minhojiddin MIRZO
Botirjon ERGASHEV
Bahodir KARIMOV
Ilhom TO'XTASINOV
Rustam MUSURMON
Abatbay DANIYAROV
Farrux JABBOROV

Bosh muharrir v.b.:

Nurilla CHORI

Mas'ul kotib:

G'iyosiddin O'NAROV

Muharrirlar:

Sardor TOLLIBOYEV,
Dilnoza RUSTAMOVA

Rassom:

Asliddin KALONOV

Manzilimiz:

Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Bunyodkor ko'chasi, Adiblar xiyoboni,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi binosi.
Indeks 100066

E-mail: yoshlik-jurnali@umail.uz


Veb sayt: www.yoshlikjurnali.uz

Tel.: (71) 231-20-58, 231-20-59

Navbatchi muharrir: D.Rustamova

6

Ne'mat Arslon
Zol kampir va yozuvchi



10

Zulfiya Qurolboy qizi
Bobolardan rivoyat



30

Vohid Luqmon
Samarqandga sog'ingan
Sordek bo'zlab uchaman...



32

Sanobar To'laganova
Taqdir sulhi yoxud
murosa ilmi



38

**Shavkat
Do'stmuhammad**
Boybovaning
bolalari



44

Suvon Meli
Yaratganning
nuridir ilm



45

Bobo Ravshan
Ulkan soyalar
haqida g'amgin
qo'shiq



48

Iroda Umarova
Olcha gul yozadi
bo'sa shaklida...



50

**Feruza
Turdimova**
"Qo'rg'onning
qudug'idan suv
ichgan odam..."



56

Xristos Sayelis
To'r



60

**O'lmasoy
Nishonova**
Ming yil ermakladi
meni ozorlar



62

**Do'stbek
Sulaymonov**
Buqalamun





Mustaqillik – qaddimiz va qadrimizni tiklagan ne’mat

O‘zbekiston tarixidagi buyuk va shonli sana – Vatanimiz mustaqilligining o‘ttiz yillik bayramini xalqimiz katta shod-u xurramlik bilan kutib oldi.

Mustaqil taraqqiyot yo‘li bilan O‘zbekiston dunyoga o‘zini tanitdi. Xalqimiz pandemiya va global iqtisodiy inqiroz ta‘siriga qaramasdan, ushbu tarixiy sanani ulkan yutuq va g‘alabalar bilan qarshi oldi. O‘ttiz yil, aslida, asrlarni qaritgan tarix uchun bir lahza, xolos. Biroq ana shu yillar, ayniqsa, o‘tgan besh yillik xalqimiz uchun nechog‘li muhim ahamiyatga ega bo‘lganini har birimiz yurakdan teran his qilamiz. Eng muhimi, yurtdoshlarimiz hayotining ma‘no-mazmuni, maqsad-muddaosi va ong-u dunyoqarashi tubdan o‘zgargan. Xalqimiz mustaqillikni yanada mustahkamlash, tinchlik va osoyishtaligimizni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, barkamol avlodni tarbiyalab, O‘zbekistonning jahondagi obro‘-e‘tibori va nufuzini tobora yuksaltirishdek ezgu maqsadlar ostida birlashmoqda.

Ayniqsa, qisqa fursatda Istiqlolimizning o‘ttiz yilligiga bag‘ishlab bunyod etilgan “Yangi O‘zbekiston” bog‘i va Mustaqillik monumenti xalqimizning bunyodkorlik qudratini yana bir bor dunyoga ko‘rsata oldi.

Ochig‘i, davlatimiz rahbari Shavkat Mironovichning “Yangi O‘zbekiston” majmuasi barpo etilishida bosh-qosh bo‘lishining o‘zi muhim voqea. Bog‘dagi har bir obyekt, yashillik va bunyodkorlikda o‘zgacha ma‘no va mazmun mujasamlashtirilgan. Bog‘ning shakliga razm solsak, ulkan daraxtning beshta shoxiga o‘xshaydi. Bu Harakatlar strategiyasining besh ustuvor yo‘nali-shini ramziy ma‘noda ifoda etadi. Sun‘iy ko‘l, sport maydonchalari, bolalar o‘yingohlari, amfiteatr, favvoralar, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari, hunarmandchilik do‘konlari tashkil etilayotgani yurtdoshlarimiz va xorijdan keladigan mehmonlar yayrab dam olishlarini, mazmunli hordiq chiqarishlari uchun ayni muddao bo‘lmoqda. Bog‘ning markaziy qismida o‘rnatilgan muhtasham obida – Mustaqillik monumentiga boqqan kishining hayratlanmasligidan iloji yo‘q.

Bugungi globallashuv va tez sur‘atlar bilan o‘zgarib borayotgan murakkab va shiddatli davrda mamlakatimiz yoshlarining ma‘naviyatini turli tahdidlardan asrash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, ularning xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan jarayonlarning tub mohiyatini anglab yetishi, ushbu voqeliklar yuzasidan xolis

“*Murakkab zamonda ijodkorona yaratilgan har bir detal yoshlar mafkurasini oshirish...*”

va mustaqil fikrga ega bo‘lishi, to‘g‘ri va maqbul xulosa chiqara olish salohiyatini shakllantirish ham muhim masaladir. Aynan “Yangi O‘zbekiston” majmuasida buyuk sarkarda va jahongirlar, alloma va mutafakkirlar, jadid bobolarimizning o‘lmas siymolari aks ettirilgani, O‘zbekistonning sobiq mustabid tuzum davridagi og‘ir va mashaqqatli hayoti, qatag‘on siyosati, xalqimizning Ikkinchi jahon urushida ko‘rsatgan jasorat va matonati ta‘sirchan lavhalarda ifodalangani ana shunday murakkab zamonda ijodkorona yaratilgan har bir detal yoshlar mafkurasini oshirishda, ularni ma‘naviy yetuk kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yodgorlik yurtimizda yangi O‘zbekistonni – uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasi bilan uyg‘un holda barpo qilingan. Unda milliy davlatchiligimizning ramzi bo‘lgan Sohibqiron Amir Temur saltanatining moviy gumbazi, yulduzlar olamiga qarab yuksalgan Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi, dunyo ilm-fani va sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘shgan ulug‘ mutafakkir bobolarimizning eng nodir ilmiy kashfiyotlari o‘zining bor mahobati va shukuhi bilan ko‘z oldimizda yaqqol namoyon bo‘lib turibdi.

Monumentning eng yuqori qismidagi Humo qushi tasviri tinchlik va erkinlik, ezigulik va farovonlik timsolidir.

Hurriyatparvar ajdodlarimizning asriy orzusini, xalqimizning tenglar ichra teng bo‘lish huquqini yuzaga chiqargan, milliy o‘zligimiz, qaddimiz va qadrimizni tiklagan, mamlakatimiz tinchligi va taraqqiyoti, xalqimiz farovonligini ta‘minlayotgan, yoshlar kelajagiga mustahkam zamin yaratayotgan aziz va mukarram – Mustaqilligimiz bardavom bo‘lsin!

Bayramingiz muborak bo‘lsin!

Sobir TURSUNOV,
pedagogika fanlari doktori





ZOL KAMPIR VA YOZUVCHI

Dilnoza Rustamova suhbatlashdi

Taniqli yozuvchi Ne'mat ARSLON bilan suhbat

– Ne'mat aka, adabiyot inson ruhini tarbiyalashga xizmat qiladi, degan gapni ko'p ishlatamiz. Siz ham jurnalimizning bir necha yil oldingi sonida “Yozuvchi jamiyatning tarbiyachisidir” deya yozgan ekansiz. Ana shu tarbiyachi bugun o'z vazifasini ado etyaptimi? Unga qanday omillar ta'sir ko'rsatyapti?

– “Lison ut-tayr”da sherni talab yotgan chumolilar bor. Gabriel Garsia Markesning qahramonini ham ana shu jonivorlar talab o'ldiradi. Har ikkala holatda ham jamiyat va uning bir zarrasi bo'lgan inson hayotiga doir ramzlarni ko'ramiz. Adabiyot esa ramzlar, grotesklar, metaforalar va boshqa badiiy tafakkur vositalari bilan so'zlaydi. Chumolilar dunyo otli mavjudlikning – hazrat Navoiy ta'rifi bilan aytganda – o'zi qari bo'lgani holda insonning ko'ziga yosh va latofatli bir kelinchak bo'lib ko'rinadigan va uni turli ko'ylarga solib ovorayi sarson qiladigan Zol kampirning lashkarlaridir. Sanoqsiz jonivorlarga yem bo'lmaslik uchun o'zini turli tomonga uradi odamzod deb nomlangan bechora xilqat. Pul va boylik orttirish vasvasasi, nafs qutqusi, mansabga intilish ma'naviyatdan yiroqlashtiradi uni. Zol kampirning nayranglariga butunlay qul bo'lmagan kishi, inson xotirasining qog'ozdagi shakli bo'lgan kitoblardan najot izlaydi. Eng

to'g'ri yo'l ham shu, aslida. Jahon kutubxonasida aqlimizni peshlaydigan, yuragimizni yumshatadigan, insonparvarlik va gumanizmni ruhiyatimizga singdiradigan minglab noyob asarlar bor. Ashshurbanipal tomonidan bunyod etilgan dunyoning ilk kutubxonasida loy taxtachalarga bitilgan “Gilgamish” dostonidan tortib bugun bizning poytaxtimizdagi Navoiy kutubxonasidan joy olgan zamondoshlarimizning asarlarigacha – barchasi komil inson va jamiyat tarbiyasi uchun xizmat qiladi. “Yozuvchi jamiyatning tarbiyachisidir” degan tushunchaning tagida ana shunday mazmun va mohiyat yotadi.

Shu nuqtadan turib adabiyot maydoniga nazar tashlaymiz: “Ma'rifat vodiysi”ga monand yo'llar ko'rinadi uning sahifalarida. Ixtiloflar, ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar birligi, adashuvlar bor bu yo'llarda. Juda chalkash va son-sanoqsiz bu yo'llar. Har bir yozuvchi o'z yo'lidan boradi. Ba'zida nom qozongan ijodkorlarga ergashadi ham, ammo pirovard natijada o'z yo'lini topadi. Va o'zi borayotgan yo'lni eng to'g'ri yo'l deb hisoblaydi. Birov didaktikaga ruju qo'yadi va quloqlarni qomatga keltirib pand-nasihatga o'tadi. Nasihat qancha ko'p bo'lsa, shuncha qadrsizlanadi. Sahrodagi qum barxanlari bilan bir kaft oltinni

solishtirish kifoya. Butun ijodini tavgogrammaga bag'ishlagan ijodkorlarimiz bor. "Tog'amning tom-dagi toshbaqasi tilla tumshug'iga tilin tiraydi". Bularning hech biri tom ma'nodagi adabiyot emas! Shunday holatning guvohi bo'lganmanki, sakkiz-to'qqiz yoshli qizginalar ham kitob yozib, nuroniy qariyalarimizga aql o'rgatmoqchi bo'ladi. Adabiy tanqidchilik jim. Adabiyotimizning bachkanalashib ketishiga sabab bo'ladigan omillar bir talay. Nasihatgo'y ijodkorlarimiz yozgan kitoblar, me'yoridan ortiq didaktika kitobxonni zavqlantirmaydi, hayratga solmaydi, aksincha, uning jig'iga tegib mutolaadan bezdiradi. Mahsuldorlikda Cheydzan yoki Jorj Simenondan o'tishga bel bog'lab detektiv yozayotgan, agar yanglishmasam, Qorjovovga o'xshagan "mahsuldor" yozuvchilarimiz nima bo'lsa bo'ldi-yo, deb qog'oz qoralash bilan ovora. Buni qarangi, adabiyotshunoslarimiz yana jim. Rus adabiyoti misolida qaraydigan bo'lsak, o'z davrida Belinskiyning nazaridan biror-bir yozuvchi va uning yaratgan asari chetda qolmagan. Gogolning "O'lik jonlar" asarini tanqid qilib yozgan bir xati asar muallifining o'limiga sabab bo'lganini hammamiz yaxshi bilamiz. Ikkinchimi yoki uchinchi sinfda o'qiydigan nasihatgo'y bir qizchani Zulfiya mukofotini olgani esimda. Bizning adabiyotimizda qo'r olgan pand-nasihatning foydasidan ko'ra ziyoni ko'p. Hattoki Tohir Malik kabi nomdor yozuvchilarimiz ham nasihatgo'ylikni chetlab o'tishmagan. Bir

qator ijodkorlarimiz oilaviy-maishiy mavzuga aralashib qolishgan. Shu boisdan ham aksariyat filmlarimizda qaynona-kelinning qizarib-bo'zarib, yer tepinib va og'zidan ko'pik sachratib dahanaki jang qilayotganini ko'ramiz. O'ta xunuk va sharmandali holat. Boshqa millatlar oldida izza qiladigan bunday asarlar, ssenariylar va filmlarning kimga keragi bor?! To'g'ri, ko'pchilik oilalarimizda ahvol ana shunday ixtilofli. Hammamizga ma'lum illat bu. Yozuvchining vazifasi esa hayotdan nusxa ko'chirish emas.

– Asarlaringizda tajarrud, ya'ni yolg'izlik asosiy motiv bo'lib kelgan. Bu, ayniqsa, "Amalgama", "Almometr daraxtining mevasi" kabi hikoyalarda oydin ko'rinib turadi. Hazrat Navoiyning "Chiqib bu dayrdin Isog'a nechun hamnafas bo'lmay, Bihamdillah, tajarrud birla himmatdin qanotim bor" baytlarida ham bunga ishora seziladi. Ijodkor va yolg'izlik tushunchasi, umuman, bugungi odamning yolg'izlanib borayotganiga nima sabab deb o'ylaysiz?

– Bugungi odamning yolg'izlanib borishini, aytaylik, yapon yozuvchisi Kobo Abe asarlaridagi holatlarga qiyoslab bo'lmaydi. Yozuvchi shaxsiga, uning ichki olamiga va hayot tarziga daxldor bo'lgan o'ziga xos unsurlar natijasida "Qumdagi xotin", "Yashik odam", "O'zganing yuzi" kabi romanlar yaratildi. Ularning qahramonlari hayotidagi yolg'izlik, inson ichki olami va tashqi ta'sirlar omixtaligining mahsuli. Bugungi insonning yolg'izlanib borishida esa adabiyotning ta'siri yo'q. Bo'lsa ham juda oz miqdorda. Aytmoqchimanki, hech kim Kobo Abe qahramonlariga o'xshab yashash uchun o'zini yolg'izlikka urayotgan emas. Zamondoshlarimiz tabiatida yolg'izlanishga intilish, avvalo, iqtisod, ro'zg'or yukining og'irligi, kun bo'yi pul topishni, bozor muammosini o'ylash va bu borada makkor dunyo ramzi bo'lgan Zol kampir bilan yakkama-yakka qolib, uning nayranglariga quloq tutish va boshqa yana bir qator omillarning mahsulidir. Ehtiyoj insonni xarob qiladi. Bunday shaxsning kitob o'qishga imkoni yo'q, dunyoda kitob degan mo'jiza borligini xayoliga ham keltirmasligi mumkin.



Insonning sog'lig'i, jon va tanni asrab qolish bilan bog'liq tabiiy yakkalanishlar borki, bu keyingi yillarda dunyo xalqining boshiga tushgan koronavirus pandemiyasi jamoa bo'lib yurmaslik, bir-biriga yaqin bormaslik, uydan chiqmaslikni talab etadi, ammo uni ijod ahlining yolg'izligi bilan muqoyasa qilib bo'lmaydi. Shunga qaramay, xalq va davlat taraqqiyotiga yoki inqiroziga doir har qanday muammo kabi global miqyosdagi bu holat ham ijod ahli oldiga ulug'vor vazifalar qo'yadi. Yozuvchi befarq qaray olmaydi xalqlar boshiga tushgan har qanday ko'rgilikka. Men ham koronavirus avj olgan damlarda "Zulm gullari" deb nomlangan dramatik doston yozdim. Va baholiqdrat ruhan tetik bo'lishga chorladim zamondoshlarimizni. Shu davr mahsuli bo'lgan "Oksimoron" romanida ham yolg'izlik mavzusi qalamga olingan.

Men ham yolg'izman. Va deyarli barcha asarlarimning qahramonlariga monand hayot kechiraman. Albatta, bu nisbiy tushuncha, ya'ni bir tomonlama yondashmaslik kerak bu xulosaga. Siz sanab o'tgan "Amalgama", "Almometr daraxtining mevasi" va boshqa ko'plab novellalar-u romanlardagi qahramonlar mening o'zim. Ko'pgina hikoyalarimda faqat bitta shaxs, oshib borsa, ikki-uch kishi harakat qiladi. Ularning aksariyati xayolparast, dovdirroq va hatto shizofrenik va ashaddiy melanxoliklardir. Hamma tomonlama tartib-intizomli, belgilangan chiziqdan chiqmaydigan, o'zini "chorcho'p" ichida saqlab harakat qiladigan kishilar emas, melanxoliklar va hatto pessimistlar, Dostoyevskiyning knyaz Mishkini, Alyosha Karamazovi kabi dovdirroq insonlar jamiyat uchun foydaliroq va ular jamiyatga ko'p narsa bera olishi to'g'risida ko'plab tadqiqotlar qilingan va ulug' faylasuflar tomonidan xulosalar berilgan. O'zini yolg'izlikka tortish ham shizofreniyaning bir alomati. Bunday uslubni ataylab tanlamaganman. Aslida, dunyoning o'zi yolg'izlikdan iborat: osmonda oy yolg'iz, quyosh yolg'iz, barcha samovot jismlari yolg'iz, bizning ona Yerimiz ham yolg'iz. Yozuvchining tajarrudi, o'z ichki olami bilan qolishi, "narsa o'zida" degan

falsafiy tushunchani anglash, o'z-o'zini tadqiq etish bilan bog'liq hodisa.

– *Bilamizki, siz yaxshigina kitobxonsiz. O'zbek va jahon adabiyotining sara namunalari bolaligingizdan oshno bo'lgansiz. Mutolaa zavqi va yozish ishtiyoqi o'rtasida qandaydir bog'liqlik bormi? Uning o'ziga xosligi nimada? Qaysi jarayonda ko'nglingizda ichki xotirjamlik tuyasiz?*

– Mening Shopengauerim deb hayqirgim keladi ba'zan yolg'iz qolganimda. Dunyo adabiyoti va falsafasida shunday nido qilgan yozuvchilar anchagina. Demakki, faylasufning ta'limoti insonni, xususan, ulug' fikrli kishilarni tarbiyalashga xizmat qilgan va hamon xizmatda. Zero, adabiyot ham falsafadan tashqarida emas. Yong'oq po'chog'i ichida qisilib o'tirgancha men koinotning sultoniman deydi Gamlet. Shekspir asarlari ana shunday va shunga o'xshash noyob falsafiy aforizmlar bilan sug'orilganki, ular har birimizni fikrlashga, mulohaza yuritishga, xulosalar chiqarishga undaydi. Modomiki shunday ekan, insonni, jamiyatni tarbiyalashga xizmat qiladigan omillarning eng samaralisi – badiiy tafakkur mahsuli bo'lgan adabiyotdir deb baralla ayta olamiz. Ammo mening nazarimda, bulardan tashqari, odatda biz unchalik e'tibor bermaydigan boshqa ikkita ulug' "yozuvchi" bor. Bular: Tabiat va Hayot. Faqat tajarrud jarayonidagina chuqur his etasiz ularni. Oddiygina tut daraxtining va boshqa har qanday giyohning yaprog'ida juda ulkan fabrika guvranib ishlab yotadi. Bu korxonaning hujayra deb nomlangan millionlab dastgohlarida quyoshdan olingan nur xorofilga aylantiriladi, undan rang yasash, unga hid va ta'm berish, shakar va boshqa moddalar hosil qilish uchun ko'plab "mutaxassislar", "ishchilar" yelib-yuguradi, afsuski, hayratomuz bu jarayonni biz ko'rmaymiz. Uni ko'rish uchun yozuvchi bo'lish kerak va mavlono Rumiyning "Ko'zni yumgil, ko'zga aylansin ko'ngil" degan o'gitlariga amal qilish kerak. Tabiat haqida yozilgan ayrim asarlarni o'qib (odatda, biz juda cheklangan mavzularda: itlar, bo'rilar va otlar to'g'risida yozamiz), shunga ishonch hosil qildimki, bizning ijodkorlarimiz

tabiatdan juda yiroqlashib ketgan. Ularning yozganlari jonivorlarga nisbatan tuhmat.

Sharl Bodlerning bir she'ri qisman tarjima qilgan edim. "Uxlar edim beshkida yotib, Kutubxona o'rtasida men" degan misralar bilan boshlanardi she'r. Umrbod kutubxonadan chiqmay yashagan yozuvchilar, "Buyuk kutubxonachi"lar bor. Avvalo, Borxesni, undan keyin Herman Hesseni misol keltiraman. Bir paytlar bizda "kitob o'qib kitob yozadigan yozuvchi" degan masxaraomuz gaplar bo'lardi. Chidagan edik ayrim ziyolilarimizning nojo'ya ta'nalariga va kitob o'qiyvergan edik, yozishdan ham to'xtamagan edik. Yigirma besh yoshida Nobel mukofotini olgan Tomas Manning "Budenbroklar" romani kitob o'qishning mahsuli. Nemis, skandinaviya, rus yoki ingliz adabiyotining sintezi edi bu roman. Yigirmanchi asrning eng sirli yozuvchisi sifatida tan olingan Borxesning deyarli barcha asarlari kitob o'qish, yuzlab va minglab yozuvchilarning asarlarini tahlil etish, o'tmish bilan o'z zamonini bog'lashning samarasi. Mutolaa zavqi va yozish o'rtasida ana shunday bog'liqlik bor. Vobastalikning o'ziga xos xususiyati shundaki, dunyo kitobga kirish uchun yashaydi deganlaridek, gohida muayyan borliqdan chekinib, kitoblarda tasvirlangan dunyoga kirish va uning sirlaridan voqif bo'lishga intiladi inson. Zero, biz anglamagan, tubiga yetishga ojizlik qilgan muammolar tilsimini ochib beradi kitob degan beminnat do'st. Afsuski, bir qator ziyolilarimiz, (ular orasida ijodkorlar, adabiyot o'qituvchilari ham bor) "Mentalitet" degan so'zni topib olishgan. Ana shunday o'qituvchilardan biri Chingiz Aytmatovning "Jamila" asarini o'qimaslikka chaqiradi o'quvchilarini. Emishki, bu asar bizning o'zbekona mentalitetimizga to'g'ri kelmasmish. Qizlarimiz Jamilaga o'xshab aravaga minib, Doniyorning orqasidan ketib qolarmish. Bunday tor dunyoqarash bilan qayergacha boramiz?! Jamiyatni qanday qilib tarbiyalaymiz? Lui Aragon va boshqa taniqli yozuvchilar tomonidan "Dunyoning eng go'zal sevgi qissasi" deb tan olingan asarni o'qimasak, nimani o'qiymiz? Mavzu oqimini yana avvalgi

“

...odatda biz unchalik e'tibor bermaydigan boshqa ikkita ulug' "yozuvchi" bor. Bular...

o'zanga tomon buradigan bo'lsak, hayot va inson munosabatlari, dunyo degan noayon xilqat ko'ndalang bo'ladi qarshimizda. Borliq, hayot, dunyo keng, yayralib yotgan chek-u chegarasiz tushuncha. Daf'atan uni ilg'ashimiz qiyin. Kitob bir nuqtaga jamlaydi ana shu bepoyonlikni (konsentratsiyalashtiradi) va dunyoni anglashimizga ko'maklashadi. Kitob mutolaasi bilan yozish zavqi o'rtasida ana shunday bog'lanishni ko'raman. Hazrat Navoiy ta'riflari bilan aytganda, dunyo – Zol kampir. Unga qay tomondan qanday yondashmoq kerak? Yozuvchi ana shunday ulug' muammoni, ya'ni Zol kampirning sirlarini o'rganuvchi va jamiyatga o'rgatuvchi ulug' Muallimdir.

– *Bugungi yosh kitobxonaga eng yaxshi uch maslahatingiz.*

– Suhbatimiz pirovardida yoshlarga qarata shunday deyman:

1. Hayotda qiyinchiliklarga duch kelganingizda kovul butasiga qarang. Mening "Iztirob farzandi" deb nomlangan qissam – lotinchada kapparispinoza deb ataladigan ana shu o'simlikning qutqusi bilan va bevosita ta'siri bilan yozilgan. Shu kitobni topib o'qisangiz, nima sababdan kovul butasiga qarang deya dacvat etayotganimni tushunib olasiz.

2. Tanlab o'qing.

3. Siz yoshsiz, agar biror qizni yaxshi ko'rib qolgan bo'lsangiz, u bilan uchrashuvdan oldin har safar Navoiyning "Shayx San'o" qissasini o'qing. Muhabbatning har qanday qiynog'iga dosh berishga o'rganasiz va bunday qiynoqlardan hatto xursand bo'lasiz. Albatta, qizlarimizga ham shunday maslahat bergan bo'lardim. Mavlono Fuzuliy bu haqda shunday deydilar:

"Ey Fuzuliy, yor agar javr etsa ondin injima, Yor javri oshiqa har dam muhabbat tozalar".



Zulfiya QUROLBOY qizi

1966-yil 15-sentyabrda Jizzax viloyatining Jizzax tumanida tugʻilgan. Jizzax pedagogika institutining Oʻzbek filologiyasi fakultetini bitirgan. “Turmush”, “Yovuzlik farishtasi”, “Oʻlim hech narsa emas” hikoyalar toʻplamlari hamda “Armon asirasi”, “Mashaqqatlar girdobi” romanlari muallifi.

Bobolardan rivoyat

Hikoya

- Bobojon, nimaga odamlar bu yerga koʻp kelishadi?
- Ulugʻ avliyo yotibdi-da.
- Huv anavi yerda-chi?
- Bilmayman... Tirikligida betayin bir odam boʻlgandirki, qarovsiz qolgan.
- Siz unga qaramaysizmi?
- U yerga qaraganim uchun menga haq berishmaydi-da, bolam!

Chol va nabira suhbatidan

Dunyo hali navjuvon chogʻlarida...
Hali odamzodning tangri huzurida martabasi baland vaqtlarda...
Dunyo ularniki edi!

* * *

Bosqin-u hujumlardan saqlanish uchun tez-tez qoʻngan joylarini oʻzgartirib turadigan ota-bobolari necha-necha kunlar, oylar yura-yura, hali u yerda, hali bu yerda nafas rostlab, tin olib, daryo misol soylardan, boshidan qor arimas dovonlardan, soya nimaligini bilmaydigan sahrolar-u sarhadsiz vodiylardan oʻtib, nihoyat, yuksalgan boshi qorli, koʻksi oʻrmonli, etaklari yam-yashil baland choʻqqili togʻlar, quyirogʻi tekislig-u koʻz yetguncha yashil maysazorlar, zilol oqar suvdan iborat bir manzilga yetganlarida ulovlaridan tushib, “kunbotar bilan kunchiqarning eng tinch yeri shu yer boʻlsa kerak”, deb ushbu joyni oʻzlariga makon aylab, oʻtov tikkan, oʻchoq qurgan, tub qoʻygan, palak otgan va yashab turgan yerlarining tabiatidan kelib chiqib, u yerni Jibakdara deb atagan. Keyin hayot quvlay-quvlay shunday joylarga keltirganidan shukronalar qilib, yana oʻzlarining yemak-ichmaklari, ekin-tikinlari-yu tirikchiliklari bilan andarmon boʻlishgan, lekin har tong oʻtovlaridan

chiqqanlarida ko'tarilib kelayotgan quyoshga ta'zim qilishni va "Biz kelib-ketaveramiz, ammo sen qolasan", deyishni unutmaganlar.

Oqar suvi mo'l, tuprog'i serunum bo'lgan Jibakdarada yillar barokatli kelgan, xalq yo'qchilikni bilmay, suruv-suruv qo'ylar-u yilqilari yaylovlarga sig'may yashagan. Ko'klam kelganini suyunchilab bodom gullagan, ungurlarda suv jildirab, qurt-qumursqalar o'rmalab qolgan kunlarda barchalari ko'kalamzor adirga chiqib kecha va kunduz tenglashgan kunni bayram qilishgan.

* * *

Asta-sekin Jibakdara eniga ham, bo'yiga ham kengaydi, bora-bora oqar suvning bir tarafi shaharga aylandi, ot ustidan yerga tushgan, tuproqqa mehr qo'ygan, o'troq yashashga o'rgangan odamlar endi loydan, paxsadan uylar, mehmonxonalar va karvonsaroylar qurishdi. Gavjum bozorlar, kulollar, zargarlar, aravaso'zlar mahallasi paydo bo'ldi. Avval qo'ni-qo'shnilar bilan oldi-berdi qilishdi, keyinroq ancha olislarga-da qo'l uzata boshlashdi. Xullas, o'troqlashuvning yangicha gurkiragan hayoti boshlangan edi. Oqar suvning berigi tomonidagi tog' bag'irlagan ovul odamlari esa qadimgiday quyoshga qo'shni tutingancha otlari-yu qo'y suruvlarini ko'paytirib, ekin-tikinlilik qilib yashayverdilar.

* * *

Kentga endi dunyoning har joyidan ularning gullab-yashnagan bog'-rog'lari-yu uzumzorlarida g'arq pishgan mevalariga, temirchilik ustaxonalarida yasalgan qurol-yaroq, temir hamda misdan yasalgan asbob-uskunalariga, egar-jabduqlar-u boshqa mahsulotlariga xaridorlar kela boshlagandi, ayniqsa, katta yo'ldan o'tadigan yo'lovchilar uchun boshpana beruvchi karvonsaroylari tilga tushgan edi. Vaholanki, o'sha paytlarda

vaqt g'ildiragi kabi tin bilmasdan, dunyoning u chekkasidan bu chekkasiga, bu chekkasidan u chekkasiga qatnaydigan, go'zal begoyimlar egniga zeb beruvchi ipag-u adras, xonzodalar jamolini aks ettirguvchi xitoyi kumush ko'zgular bilan birga ko'proq fikr, tasavvur, bilim va ma'lumot tashiydigan og'ir-og'ir karvon egalarini oziq-ovqat, ko'rpa-to'shak, ot-ulovlarini esa yem-xashak bilan ta'minlash uchun bunday qo'noqxonalar suv bilan havodek zarur edi. Karvonsaroylarda ishlar shunday tashkil qilingan ediki, keluvchilar boshlarida bir tovoq tilla bilan yursalar ham, ularga hech kim daxl qila olmasdilar.

Yer yuzini yel kabi kezib yuradigan qisiq ko'zli sayyohlar kentning ekin-tikinli dalalariga,

*Dugonalari bir nimalar deb
chuvillashdi, qo'rqib ketgan qiz gulga
ham, kutilmaganda qarshisidan
chiqqan o'ktam chavandoz yigitga
ham qaramay yugurib ketdi.*

qirmizi olma, tillarang o'rik, yurak qoniday qip-qizil anor, nonday yumshoq behi, sersuv shaftoli, asalday nok, sara yong'oq va bodom, shirasi tilni yoradigan uzumzor-u bog'lariga havas bilan tikilar, shirin-shakar mevalar g'arq pishib yotgan bog'lar ko'zlariga go'yoki Bog'i Eram bo'lib tuyulganidan og'izlarining tanobi qochib, "Hammasi ajoyib! Hammasi zo'r!" deya tamshanganicha bu yerlarda yanada ko'proq ivirsib yurishga, yanada ko'proq narsa olib ketishga harakat qilardilar.

* * *

Boylik orttirgan, mo'l-ko'lchilikka erishgan kentlik qavm hashamga berildi, baland paxsa supalar ustiga ko'shklar, atrofi mustahkam

devorlar bilan o'ralgan qo'rg'onlar, mukammal istehkomga ega hashamatli qasrlar qurishdi. Elni himoyalamoq, pana-pasqamda pusib tish qayrab turgan ichki va tashqi raqiblardan asramoq niyatida shahar atrofini qalin devorlar bilan o'radi. Endi u yerni Qal'acha deb atay boshladilar.

Endi Jibakdara bilan Qal'achani bir-biriga bog'lab turuvchi birgina ko'prik qolgandi, bu ko'prik tomiri bir elning ming yillik urf-odatlarini, an'analarini edi. Shu an'analar ostida bir-biridan qiz olib, qiz berishar, bir-birini mehmon qilar, mol-hollarini asrashar, bozor-mozorini ayri qilmasdi.

Ammo vaqt o'tgan sari oqar suvli yerga bir ulus bo'lib kelgan yaylovdagilar bilan kentliklar bir-biridan uzoqlashdi, turmushlari bilan fe'l-atvorlari va tillari ham o'zgardi, sipoyilashdi. Eski yurtlaridagi xotiralarini unutishdi. Kentliklar ko'proq to'kin-sochinlikka, boylikka berilganidan odamlar orasida yaxshi yashashni, hisob-kitobni bilmaydigan kambag'allar, xizmatchilar degan bir qavm ham paydo bo'ldi. Boylar ularni ezib ishlatadigan bo'ldi. Boylar ularga qiz bermaydigan bo'ldi. Boylar hatto jibakdaralıklar bilan ham o'ylashib muomala qiladigan, o'ylashib quda-anda bo'ladigan bo'lib qoldi.

* * *

Goh-gohida odamlarning diliga g'ulg'ula solib hali u yerda, hali bu yerda qo'qqisdan urush boshlanib qolardi. Urug'-aymoqlar o'rtasida qisqa, ammo shafqatsiz janglar bo'lib o'tar, bir oy yoki bir necha yillarga cho'zilgan urushlarda goh bu taraf, goh u taraf g'olib bo'lar, shunda biri ikkinchisiga xo'jayinchilik qilib, o'lpon talab qilar, yerini egallab olar, gohida esa hech gapdan hech gap yo'q, hamma o'z-o'zi bilan andarmon bo'lib qolardi. Hech biri o'zaro kelishish, birlashish haqida og'iz ochmasdi. Ko'p o'tmay yana bir oddiy tortishuv yoki janjaldan chiqqan g'alayon ana-mana bostirildi deganda, ikkinchisi boshlanar, odamlar aqldan ozganday, qilayotgan telba-teskari ishlarini to'g'ri va tabiiy deb o'ylashganidan urushlar tinim bilmay qolar,

keyin yana hech narsa yuz bermaganday hayot o'z izmida davom etardi. Har bir urug'boshi, har bir sarkor o'z-o'ziga hukmdor, ko'hna zamin uzra ko'tarilgan quyosh esa bularning qay biriga nur sochishni bilmay ovora edi.

Katta yo'ldan zalvorli yuklar ortilgan tuya karvonlari hamishagiday vazmin borib kelardi.

* * *

Jibakdaralik Yaxshiboy temirchining o'g'li Boytemir o'tgan yili kurashchi do'sti Ko'char polvon bilan Qo'tirbuloqdagi Yilboshi saylida o'tkazilgan chavandozlar musobaqasidan g'olib bo'lib qaytayotganida qarshisidan besh-olti qiz qurshovida kelayotgan, boshiga binafsha-yu erbahodan gulchambar taqqan, yenglari keng, yelkasi tor, tovonigacha tushadigan uzun shoyi ko'ylakli qiz uning diqqatini tortdi. Qizlar yaqin kelganida yigit ular orasidagi pariruxsordan ko'zini uzolmay qoldi. Xushbichim peshona, quyuq, qiyg'os qoshlar, sho'xchan qora ko'zlar yigitning nigohini sehrlab qo'ygandi. Qiz o'n yetti-o'n sakkiz yoshlarda edi.

G'alaba nashidasidan sarmast, havolangan yigit otidan sakrab tushdi-da, dadillik bilan qizga gap otdi.

– Oting ne, hoy qiz?

So'ng yo'l ustida barq urib turgan sarg'aldoqni shart uzib qizga uzatdi.

O'zini yo'qotib qo'yg'an qiz beixtiyor gulni oldi, lekin keyin birdan oq yuzi duv qizarib ketdi-yu, sarg'aldoqni yerga tashlab yubordi. Zum o'tmay qilgan ishidan afsuslanganday egilib yerdan gulni olmoqchi bo'ldi. Dugonalari bir nimalar deb chuvillashdi, qo'rqib ketgan qiz gulga ham, kutilmaganda qarshisidan chiqqan o'ktam chavandoz yigitga ham qaramay yugurib ketdi.

El-ulus har yili orziqib kutadigan, har bir kimsaning o'z niyati, umidi bilan bog'liq bayram saylida minglab ulovli-yu ulovsiz, boy-u kambag'al odamlar emas, farishtalar ishtirok etayotganday, butun yaylov rang-barang lolaqizg'aldoq bilan qoplanganday tuyildi yigitga shu kuni.



Qizning ismi Oychechak edi. Kentlik Shodmon savdogarning kenja qizi. Yuragiga o't tushib, majnundek tentirab qolgan yigit bir muddat shahardan beri kelmay qo'ydi. Ustaxonadagi ishi ham esidan chiqdi. Keksa, to'shakka mixlanib qolgan kasalmand otasidan gap eshitgani sayin, shaharga borgisi, qizni ko'rgisi, u bilan gaplashgisi kelaverardi. Kunlarning birida atrofi paxsa devor bilan o'ralgan Shodmon savdogarning bog'i atrofida aylanib yura-yura, o'zini maftun qilgan, qo'l-oyog'ini bog'lagan, kuydirib kul qilgan, shahardan keta olmaydigan qilib qo'ygan boy qizini ming bir qiyinchiliklar bilan uchratishga muyassar bo'ldi. Qiz bog' chetidan oqib o'tuvchi ariqdan suv olgani chiqqan edi. Yigit gapni cho'zib o'tirmay ko'nglida borini ochiq aytdi.

– Seni ko'rmasam turolmaydigan bo'lib qoldim, hoy qiz...

Oychechak seskanib ketganday bo'ldi. Qora ko'zlari yanada kattalashdi. Keyin boshini xam qilarkan, ovozi zo'rg'a chiqdi.

– Unday bo'lsa... so'rattiring...

Qiz shunday dedi-yu, g'oyib bo'ldi.

“Unday bo'lsa so'rattiring...”

Bu rizolik alomati edi. Demak, uning ham ko'ngli bor ekan. O'sha kunni, sayilni eslab qolgan ekan-da... Yigit qanot bog'lab qishlog'iga uchdi. To'g'ri otasining oldiga kirdi. Kecha-yu kunduz el kori uchun olov purkab temir toblab, o'q, nayza, qalqon va qilich yasagan Yaxshiboy temirchi ayni damda o'sal yotardi.

– Ota... – deganini biladi Yaxshiboy temirchi so'nggi bor hiq etdi-yu, joni uzildi.

Besh yil oldin onasi olamdan o'tgan edi. Ikki singlisi allaqachon uyli-joyli bo'lib ketgan, onda-sonda kelib turishardi.

Boytemir yolg'iz qoldi. O'zi otadan yolg'iz yigit edi. Endi chin yolg'izga aylandi. Lekin u o't-olov edi. G'ururli edi. Ko'rguliklar uni sindirolmadi. Otasining ma'rakasi o'tganidan keyin bosolqa do'sti Ko'charning otasi Qunduz merganning oldiga bordi. Shunday, shunday, men Shodmon savdogarning qizi bilan va'dalashib qo'yganman, otam o'rniga ota bo'lib sovcilikka borsangiz, dedi. Qunduz mergan ham taysallamadi, shaharga bordi, elchilik qildi, lekin... merganligi ish bermay, otgan paykonlari Shodmon savdogarning ko'ngliga yetib bormadi chog'i, tarvuzi qo'ltig'idan tushib qaytdi.

– Qizi hali yosh emish, picha o‘ynab-kulib yursin emish, – dedi u umid dunyosida ko‘zlari chaqnaq turgan yigitning yuziga tik qaray olmay.

Har qalay butunlay rad javobi berishmabdi-ku. Boytemirning ko‘ngli taskin topdi.

Keyin bir ilojini qilib qiz bilan yana ko‘rishdi. Qiz bu gal ancha ochiq gaplashdi. Unda ko‘ngli borligini, beklardan, boylardan kelayotgan sovchilarga bir ovozdan yo‘q deb turganini aytdi. Bular yigit ko‘nglidagi umid uchqunini olovlantirib yubordi. Qishloqqa qayta solib Mergan og‘aga uchrashdi, uni yana elchilikka qistadi. O‘tgan safar yigitning og‘zidan chiqishi bilan shaharga yo‘rtib ketgan Qunduz mergan bu gal negadir o‘zini taroziga soldi. Ishlari ko‘pligini bahona qildi. Boytemir hayron, dardini jo‘rasi Ko‘char polvonga aytadi, u ham quloq qoqmay gapini eshitadi-yu, biror jo‘yali bir narsa demaydi. O‘zi allaqachon uylangan, farzand ham ko‘rgan-da, bo‘ydoqlarning ahvolini tushunmaydi. Ammo Boytemir ham tutgan yeridan kesadiganlardan emasmi, ertami-kechmi demasdan Qunduz merganning oldiga bosh egib boraverdi, boraverdi. Oxiri Qunduz mergan yigitning yuzidan o‘tolmay yana shaharga yo‘l oldi-yu, bir osh pishgulik vaqt o‘tmasdan avvalgidan-da dilgirroq bo‘lib qaytdi. O‘ziga mushtoq tikilgan yigitga javoban “Qizlari haliyam yosh emish”, deya ming‘irlashdan nariga o‘tmay yerga tikilganicha o‘tiraverdi. Boytemir mergan og‘asi ochiq gapirmaganini, nimanidir sir tutganini sezganday boshini chayqadi, ortiq hech narsa so‘ramadi, keyin xayr-xo‘shniyam nasiya qilib shoshilganicha chiqib ketdi. Qunduz mergan shundan keyingina yerdan bosh ko‘tarib o‘g‘li Ko‘chardan: “Sening aqling butun mendan ko‘ra, ayt-chi, o‘g‘lim, bizlardan tezak hidi keladimi?” deb so‘radi.

Shu orada Shodmon savdogar “hali yosh...” qizini shahar hokimining o‘g‘liga turmushga berdi. Tushunarli... Endi hammasi tushunarli...

Shu-shu Boytemir shaharga ham, saylga ham bormay qo‘ydi.

Yigit ustaxonadan deyarli chiqmasdi. Ichkaridan bolg‘aning sandondagi temirga urilgan ovozi eshitilardi-yu, o‘zini hech kim ko‘rmasdi: taq-tuq, taq-tuq!

Yaxshiboy temirchidan keyin ustaxona bo‘sh qolmadi deya hamqishloqlar quvondi. Zero, o‘sha vaqtlarda temirchilar nufuzli kishilardan bo‘lib, el-ulus hurmatida bo‘lardi. Hatto vaqti-vaqti bilan shahar, rustoq akobirlari-da ularga ziyofat berib, ko‘ngillarini olib turardi. Evaziga temirchilar kecha-yu kunduz demasdan hokimliklar qo‘shiniga o‘tkir qilich, oybolta va boshqa jang qurollarini yasab berardilar.

Ammo kunlarning birida bolg‘a ovozi tinib, Boytemir ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Ikki-uch kun o‘tsa-da qorasi ko‘rinmay qolganidan xavotirlangan Qunduz mergan tanish-bilishlari orqali uni surishtirdi. Birov u dedi, birov bu... Ustaxona yonida yolg‘iz nabirasi bilan yashaydigan kampirning aytishicha, uch-to‘rt kun oldin kechasi allamahalda Boytemirni bellarida qilichlari bo‘lgan qurolli ikki kishi bilan kimsa ko‘ziga ilashishdan cho‘chiganday sas chiqarmasdan shoshib ketayotganini ko‘rib qolganmish. Bir hafta o‘tib o‘g‘li Ko‘char ham ko‘chaga chiqib ketdi-yu, qaytib kelmadi.

Biror yilcha ikkisi ham oybotganday bo‘lib ketdi.

* * *

Bu vaqtda Turon yurt ufqida yong‘in ko‘tarilganiga ancha bo‘lgan edi. Ulkan yong‘in darrov alanga olmadi, albatta. U o‘lka bo‘ylab sekin-asta, lekin muqarrar suratda yoyilib bordi va kutilmaganda hamma yoqni ostin-ustin qilib yubordi. Turon zamin uchun shiddatli urush boshlandi.

Chumoli karvoni kabi yopirilib kelgan yog‘iy Poykandni, Buxoro-yu Samarqandni ishg‘ol etgani haqida har kuni bir falokat xabari kelib ko‘ngillarni vayron etardi. Yo bir qal‘a qo‘ldan ketgani yoki bir shaharga o‘t qo‘yilgani va yoxud bir viloyatning ishg‘ol etilgani haqidagi uzuq-yuluq gaplar yuraklarga zahar quyardi. Ammo qanchalik og‘ir bo‘lmasin, odamlar

urushlarga ko'nikib qolgandi chamasi, Buxoroda bo'layotgan qirg'inning jibakdaraliklar yoxud qal'adagilarga daxli yo'qday, ular mol-holi, ekin-tikini bilan andarmon bo'lib yurishdi: Ha, nima, urush biz tomonga yetib kelguncha... degan xomxayol ularni parishon qilib qo'ygandi chog'i. Nafsilamrini aytganda, har qanday holatda ham hayot davom etadi-da. Yashash kerak. Yashash uchun non kerak. Non topish uchun ishlash kerak. Dunyoning qay bir yerlarida ko'ngilsizliklar yuz berayotgan bo'lsa, kimlardir yer uchun, taxt uchun talashib, bir-birining go'shtini yeyayotgan bo'lsa, ana, yurt kattalari bosh qotirsin bu haqida. Taxt baribir bizlarga nasib qilmaydi-ku, uning o'z egalari bor. Ana o'shalar qayg'ursin...

* * *

Darhaqiqat, yurt kattalarining, rustoqlar sarkorlarining uddaburonligi bois ma'lum vaqt olovning yo'li to'silganday bo'ldi. Sovg'a-salom, o'lpon deganday... Axir ochiq jangga kirishgandan ko'ra tadbirkorlik bilan raqibni chalg'itish mumkin-ku! Shu bois har biri o'zicha yuksakroq martabani ko'zlagan ulus boshliqlari tez-tez poytaxt Bunjikatga chaqirilib mukofotlanib ham turardi. Afsuski, ular so'nggi paytlarda vaziyat o'zgarganini, arab istilochilari afshin Kovusni xalifalik bilan Ustrushona o'rtasida tuzilgan shartnomani buzganlikda, xazinaga kam xiroj to'laganlikda ayblayotganlaridan bexabar edilar.

Biroq el ichida dushman kuragiga pichoq urishga shay turganlar ham bor edi. Ular kutilmaganda qishloqda paydo bo'lgan, manglayida, yuzida qilich va allaqanday tirtiqlar izi qolgan Yaxshiboy temirchining o'ttiz ikki yashar o'g'li Boytemir va Ko'char polvon atrofiga to'plangandi. Qisqa muddatda atrof-javonibdan guruh-guruh bo'lib tashrif buyurgan sulohli, tuyoqli, saroy, qo'shtamg'ali-yu, jaloyir urug'idan bo'lgan yigitlardan uchta yuzlik tuzilgandi. Hammasi baquvvat, saralangan, yurt uchun o'zini fido qiluvchi, hatto o'tga tashla desa, tashlaydigan kishilar edi.

Boytemir endi oshiq yigit emas, u o'zgargan, so'zlari, tovushi, qarashlari o'zgargan, go'yoki ko'p sinovli, og'ir kunlarni boshdan o'tkazgan kabi, u endi boy qizini o'ylamaydi, o'rtanmaydi, kam gapirib, ko'p o'ylaydi. To'g'ri, hozircha jangchilari kamsonli, lekin hademay Tangritog' etagida yashaydigan urug'lardan ham ko'ngillilar kelib qo'shilsa, ular, albatta, ko'payishadi va ona vatanlaridan la'nati dushmani haydab chiqarishadi.

Yuzliklar safida hunarmandlar, cho'ponlar, dehqonlar, hatto oyog'idan silkitganda ham cho'ntagidan jiring etib bir tanga tushmaydigan yupun odamlar va savdogarlar bor edi, lekin xalq yo'q edi, qo'shin yo'q edi. Shunday bo'lsa-da, ot choptirish, o'q-yoy, nayza otish, cho'qmor ishlatish bo'yicha ularning oldiga tushadigani topilmasdi.

O'z yurtlarida begonaga ta'zim bajo keltirib, dastyorchilik qilishni istamagan yigitlar aholini mudofaa jangiga da'vat etib oyoqqa qalqitmoqchi, dushmani shahar ostonasiga yaqin keltirmasdan kamon o'qlari yomg'iri bilan qarshi olish niyatida edilar. Lekin kentning ishongan odamlari, o'ziga to'q zodagonlari ularning maqsadlarini qo'llab-quvvatlamadilar, g'azablangan qo'zg'alonchilar pana-panalab, u yer-bu yerdan hujumga tayyorgarlik ko'ra boshladilar. Ular odamlar ko'zidan yiroqda, yovvoyi jiydazor ortidagi Eshmirza cho'ponning o'tovida to'planishib, kunba-kun yaqinlashayotgan dushmandan qanday qilib xalos bo'lish haqida kengashmoqda edilar.

* * *

Erganagi kunga qaragan Eshmirza cho'ponning o'tovi. O'tovning kiraverishida o'choq bo'lib, yonidagi toshsupa ustida sopol ko'za, qumg'on va tovoqlar terib qo'yilgandi. Chiqaverishda temir sovut va sadoq osilib turardi. Cho'ponning o'zi oilasi-yu suruvi bilan toqqa chiqib ketgan, hali-beri qaytmasdi.

O'tovda odatdagidan odam ko'proq edi. Nihoyat, anchadan beri kutilgan mehmonlar – Tangritog' etagida yashovchi urug' boshliqlari

bu yerga to'plangandi. Ular bir-birini yaxshi tanirdi, uchrashganlarida quchoq ochib ko'rishgan, qiz olib, qiz berishgan, ma'raka-yu marosimlarda, el-yurt taqdiri bilan bog'liq majlislarda birga bo'lgan hurmatli urug' oqsoqollari edi. Ammo ayni damda barchasi negadir parishon ko'rinar, uyilgan qoshlar ostidan bir-birlariga zimdan tikilib qo'yishardi.

Dasturxonada hil-hil pishgan et, qand-qurs bor edi.

Yemak-ichmakdan so'ng ichiga jun tiqilgan ko'rpacha ustida chordona qurib o'tirgan mehmonlarning yoshi ulug'i Xitoyyuzi urug'idan Boybo'ta oqsoqol birinchi bo'lib gap boshladi.

– Mag'an ochiq aytmaganingizminan bul yerga ne maqsadda chorlaganingizni sezib turibmen, – dedi u soqolini tutamlagancha keksalarga xos o'ychanlik bilan. – Lekin vaqti-soati yetmaguncha qilichlarimizni qinidan chiqarmasligimiz lozim deb o'ylaydurman. Yog'iy hozircha bizga daf qilmayapti-ku. Shunday ekan, bekorga qon to'kishdan ne foyda.

– Ammo kutib o'tirishdan ham naf yo'q, – dedi qo'qqisdan ko'ragidan musht yeganday chayqalib ketgan Boytemir zo'rg'a o'zini bosib. – Eshitmadingizmi, arablar Samarqand-u Buxoro aholisini qul qilib sotib yubarmish. Jiz'ya solig'i to'lamaganlarning bo'yinlariga "qarzdor" deb yozilgan taxtacha osib sazoyi qilmish... Bunaqada hademay bizning elimiz ham qul bo'lib, tuprog'imiz begona otlar tuyog'i ostida toptaladi-ku.

– Yoxud arablarga kishi jo'natsakmikin? – dedi beshkubilik O'rozmat oqsoqol hushyor tortib yonidagilarga bir-bir nazar tashlarkan. – Ha, nima, ular bilan hatto hokimlarimiz ham o'ylashib muomala qilishyotganida bizar kim bo'libmiz?

– Eshidik, afshinning o'g'illaridan birovi allaqachon arablar tomoniga o'tib ketmish, – dedi alam bilan boyadan beri kelganlarga yer ostidan tikilib o'tirgan Ko'char polvon. – Bizga birov madad berishiga ko'zim yetmas. O'zimiz bor kuchimizni ishga solishimiz lozim.

Azlar tepadan kelgan Eshmurod oqsoqolning yuziga istehzoli tabassum yugurdi.

– Endi ovulma-ovul yurib, madad so'rashimiz qoluvdi!

– Balki, kutib tururmiz, – murosaga chaqirdi qurg'azan Otaquli. – Hademay qish tushadi. Arablar qordan, qishdan qo'rqarmish.

– Boshqa joylarda arablar bosib olgan yerlariga och itday tashlanmoqdamish, kutib tursak, hademay bizni ham ne ko'yga solishadi. Yog'iy bo'sag'ada turibdi!

– Sen faqat qasos haqida o'ylayapsan, ulim. Lekin bilib qo'y, qasd qilgan past bo'ladi!

– Qasos emas bu. Eh! – Boytemir jahl bilan Boybo'ta oqsoqoldan yuzini burdi. "Shunchalik ham kaltabin bo'ladimi odam?!"

Bir zum hamma jim bo'lib qoldi.

– Ey otamni ko'rgan, bilgan dono oqsoqollar! – dedi sal o'tib Boytemir vazmin ohangda. – Bilaman, sizlar yetti o'lchab, bir ish qilishga odatlangansizlar. Lekin biz o'zaro kelishib, bir fikrga kelgunimizcha dushman taqdirimizni hal qilib qo'ymaydimi? Bu yoqda Samarqand, u yoqda Buxoro-yu Shosh allaqachon zabt etilmish.

Mehmonlar negadir javob berishga shoshilmasdi. Ularning har biri allaqachonoq hozir gapirilayotgan gap haqida qayta-qayta o'ylab ko'rishgan (balki, o'zaro maslahatlashgandir ham) va ostonada turgan dushmanga qarshi kurashgandan ko'ra, tinchgina bo'ysunib qo'yishni afzal ko'rayotganday edilar.

Boytemir esa javob kutardi. Oqsoqollar hamon jim, tushuniksiz sarosima ichida yerga boqib o'tirishardi. Faqat qotib qolgan yuzlar, qimtilgan lablar va qoshlar orasidagi tugunlarga ularning ichki tug'yonlarini ifoda etardi.

Ko'char xiyol egilib, Boytemirning qulog'iga nimadir deb shivirladi. Boytemir boshini sarak-sarak qildi. Keyin:

– Mayli, nimayam derdik, – dedi u xafa bo'lganini sezdirmaslikka tirishib. – Omon bo'ling.

Mehmonlar o'rinlaridan turishdi. Birinchi bo'lib tashqariga yo'nalgan Boybo'ta oqsoqol eshik oldiga chiqib, negadir taysallagancha turib qoldi. Bu vaqtda kun qaytgan, havo biroz salqinlagan bo'lsa-da, qizib yotgan yerdan jimirlagan hovur ko'tarilib turardi. Kunduzlari boshni aylantirgan o'tlarning achimsiq hidi ham sal bo'shashgan, tog'lar soyasi qoramtir tus olib, ancha uzun tortgandi. Oqsoqol olisda qoyalari bo'rtib turgan kulrang toqqa uzoq tikildi. Nimalarni o'yladi. Hech kim bilmadi.

Boshqa urug' oqsoqollari yov quvganday allaqachon kulba ortida turgan otlariga o'tirib jo'nab qolgandi.

– Gap munday, bo'vurim, – dedi bir mahal oqsoqol yonida qovog'i osilib, biroz gangib qolgan Boytemirni tirsagidan tutib chetga olib o'tarkan. – Biz o'zimizga o'zimiz xo'jayinmiz. Birov pishagimizni pisht deb ko'rsin-chi! Arablar kim bo'пти?! Ular bizning yerlarga egalik qilish uchun ko'p qon to'kishiga to'g'ri keladi. Shundayiga berib qo'yadigan ahmoq yo'q.

– Dovulning dovushi uzoqdan yoqimli eshitilarmish, – dedi andak kinoya bilan Boytemir.

– Oramizda o'pka-gina bo'lmasin deyman. O'z vaqtida otang Yaxshiboy temirchiga ko'p bor ishimiz tushgan, axir!

– O'pka-gina bo'lmaydi, xotirjam bo'ling, og'a.

Boybo'ta oqsoqol kekxa bo'lishiga qaramay chaqqonlik bilan otiga o'tirdi-yu, sag'risiga qamchi urdi.

– Bilasanmi, bular nedan xotirjam? – deb so'radi Ko'char birozdan keyin undan.

Rangi oqarib ketgan Boytemir ko'zlarini yumdi. Bir muddat shu holda turdi. So'ng xo'rsinib, yuzini kafti bilan siladi.

– Ularning qo'rg'oni tog' tepasiga joylashgan, yog'iy u yergacha yetib borolmaydi deb o'ylashyapti.

Boytemir yana indamadi.

– Nima qilamiz endi? – so'radi Ko'char polvon bezovtalik bilan.

– Ular-da qabatimizda bo'lsa, kuchimizga kuch qo'shiladimi deb o'ylab edim. Lekin

endi keragi yo'q! Ketaberishsin! Ularsiz ham uddalaymiz, – deb baqirib yubordi Boytemir nihoyat. – Bular dushman kelmasidan burun yengilishni tan olib qo'yganidan uyalishmaydiyam! Tog'ning tepasiga bir tosh qo'rg'oncha qurib olib, hech kimdan qo'rqmaymiz deb o'tirsa, o'tiraberishsin!

– Balki, yana Samarqand taraflarga keturmiz...

– Yo'q!

U ichi toshib turgan do'stini hayron goldirgancha o'tovga qaytib kirdi va ko'rpacha ustiga o'zini tashladi-da, mushti ustiga iyagini tiragancha indamay yotaverdi. Eshik oldida hayron qarab turgan Ko'char polvon do'stining jahli chiqqanini sezdi. Sababi ayon – bugungi yig'indan Boytemirning umidi katta edi. Kelganlar, harqalay yurtning aytuvli o'tag'olari edi-da. Endi nima bo'ladi? Yer yuzi jang maydoniga aylanganini, o'zgalarning o'ljasiga aylanmaslik uchun, o'zgalarga g'ajib tashlamasliklari uchun, omon qolish, o'z uyingda xavotirsiz, shod-xurram yashash uchun jang qilmog'ing, o'zingni himoya qilmog'ing kerakligini, nahotki, ular tushunmayotgan bo'lsa?.. Endi hech kimdan umid qilib bo'lmaydi... Qayerdan yordam kelishi ham noma'lum, bunday boshboshdoqlik dushmanga darvozani o'z qo'llari bilan ochib berish bilan barobar emasmi?

Ko'char polvon bir so'z demay ortiga burildi. Boytemir uning ketganini payqamay ham qoldi. Yigit allamahalgacha shu ahvolda yotdi. Keyin uxlab qoldi. Tongda uyg'ondi va tashqariga chiqib uzoqda ko'karib turgan tepalik tomonga yurib ketdi. Oyoqlari mayda toshlarga urilgan tepalikka ko'tarilib bordi va ko'z oldidagi g'ira-shira manzaraga, bir tomonda olislarga cho'zilgan yaylov, eshigi kunga qaragan o'tovlar, ular o'rtasidagi chodir tepasida hilpirayotgan tug', ikkinchi tomonda esa behudud tekislig-u baland-baland imoratlar, ancha vaqt tikilib turdi. O'ylab olmoqchiydi, lekin nimani o'ylaydi, ayni damda o'zi ham bilmasdi.

Nigohlari ufqqa qadaldi. Qushlar ham uchib o'tolmaydigan ho'-o'v olisdagi cho'qqilar ortida suzib yurgan uch-to'rt bulut parchalarining cheti qizara boshlagandi. Boytemir asta-sekin ko'tarilayotgan quyoshga uzoq tikilib turdi. Olam suv quyganday jim-jit edi.

“Ochun sarvari sen emasmisen?! Yer yuziga hayotni Sen baxsh etmaganmisen. Sen borsanki, dunyo bor, budun bor. Sen yerlarni sug'orasan, daraxtlarni ko'kartirasan, tun-u kun, yoz-u qish, o't-o'lan, gul-u chechak, yomg'ir-u qor, bo'ron-u dovul, hatto tonggi shabnam ham sen tufayli emasmi. Yer bilan ko'k, oy va yulduzlar, tog'lar va adirlar, kecha va kunduzning kirishuvi ham sen tufayli emasmi?!”

Nihoyat, quyosh bor bo'yi bilan ko'k toqiga ko'tarildi va tabassum qildi. Ochun yorishib ketdi. Butun olamni charog'on etgan nur uning ichiga kirib qalbini yorug' bir nurga to'ldirganday bo'ldi. Shunda dilidagi va atrofidagi jamiki narsalarning hammasi har qachongidan kuchliroq nurlanib ketdi va anchadan beri miyasida goh o'lib, goh tirilayotgan narsalar endi uni azoblamay qo'ydi.

“Zamon aylanib turadi. Dov-daraxt ko'karadi, gullaydi, meva qiladi va quriydi. Odamzod ham shunday, tug'iladi, yashaydi va o'ladi. Ammo sen hamisha borsan!”

Yigit iziga qaytdi. U endi nima qilishni bilardi. Va endi o'zini kuchsiz, ojiz kimsadek his qilmay qo'ygandi.

O'tovda hech kim yo'q edi.

Ko'charning o'zi ham, oti ham yaqin-o'rtada ko'rinmasdi.

Boytemir muzlab ketdi. “Nahotki Ko'char ham...”

Shu vaqt tuyuq tovushlari eshitilganday bo'ldi. Boytemir yugurib o'tovdan chiqdi. Boyagina o'zi tushgan tepalik ortida quyuc chang ko'tarilib, vodiy osmonini olovrang to'zon qoplagandi. Zum o'tmay shu tomonga bulutday yopirilib kelayotgan otliqlar ko'zga tashlandi. Ularning oldida Ko'char polvon kelardi.

– Bular sabatlik, xovoslik, kurkatlik, xushketlik yigitlar, – dedi Ko'char polvon kulib.

– Ular ham safimizga qo'shilmog'ni ixtiyor qilishdi.

Boytemir do'stini mahkam quchoqlab oldi.

* * *

Hijriy 104-yil (Milodiy 822-yil).

Tun. Borliq chuqur sukutga cho'mgan, go'yo osmon, yulduzlar, tabiat va umuman, butun koinot o'yga tolqanday...

Bir mahal olisda, osmon bilan yer tutashgan ufqda allanima qorayib ko'rindi. Va yana ahyon-ahyonda toshloq yerdan g'ichirlagan tuyuq tovushlari va ehtiyotkorona bosilgan qadam saslari eshitila boshladi.

Nihoyat baland-past tepaliklar oralab tasmaday ilang-bilang cho'zilgan vodiy bo'ylab osmonning yarmini qoplagan qora bulut singari bostirib kelayotgan qurolli odamlar qorasi ko'zga tashlandi. Oldinda otliqlar, ularning ortidan piyodalar, jangovar aravalar, uchi yaltirayotgan nayzalar, qilichlarning ohista shiqirlashi-yu otlar pishqirig'i... dam sayin, qadam sayin yaqinlashib kelardi.

Vodiy torayib, ikki tog' oralig'idagi daraga kira boshladi.

Shu payt tepadan, tik qoya bag'ridan tosh uyumlari, og'ir xarsang toshlar chang-to'zon ko'tarib, shiddat bilan pastga qulay boshladi. Cherik orasida shovqin-suron qo'pdi: Pistirma!

Boshliqlaridan shitob buyruq olgan kamonchi bo'linma ilon izi so'qmoqdan yuqoriga, qoya cho'qqisiga ko'tarilib, aylanib pistirmada turganlarning ortiga o'tib, ikki tomondan ularga hujum qilishdi va ularni daraga sura boshladi.

Yog'iy butun e'tiborini qoyaga qaratib turganida qarshi tomondan bir guruh qurollangan odamlar galasi cherik ustiga tashlandi. Bu shunday kutilmaganda ro'y berdiki, lashkardagilar o'zlariga kelgunicha qo'zg'olonchilar ularning oldingi saflarini yanchib tashladilar.

Boytemir “Yog'iyga o'lim!” deya qichqirgancha qilichini yalang'ochlab, yigitlari oldida borardi. Ular shiddat bilan yoy

otar, dushmanni otdan urib tushirar, qilich o'ynatishar, xanjar urardi.

Jang san'atini puxta egallagan, boshdan oyoq tuya terisi va po'latdan qilingan zirhlarga o'ralgan, yengil, ammo o'ta o'tkir nayzalar-u o'q-yoy bilan qurollangan, baquvvat otlar bilan ta'minlangan sahroyilar ham anoyi emasdi, ular hayqiriq-suron solgancha vizillab uchayotgan o'q-yoy, qilichlar shiddatiga qaramasdan basma-basiga qo'zg'olonchilar ustiga bostirib kelishardi.

Dara qora quyunga to'ldi, osmon ko'zdan yo'qoldi, atrof-javonib ko'rinmay qoldi.

Har tomondan "Qoch, ha, qoch!", "Yov keldi, yov!" degan qichqiriqlar eshitilar, yer ot tuyoqlarining zarbidan titrardi. Boytemir yov to'dasiga ot solarkan, duch kelgan dubulg'ali basharalarga qilich soldi.

Otlar to'qnashib osmonga sapchirdi. Qilich chopgan, nayza ilma-teshik qilib yuborgan sovutlarining yirtiqalaridan kiyim parchalari chiqib osilib qolgan yigitlar arslonday olishardi. Qilichlar zarbidan yuzlab dushman boshi uchar, bo'g'izlariga nayza yoki kamon o'qi sanchilardi.

Shunga qaramay, itirqinday g'anim ko'plik qildi. Go'yo butun dunyo arablarga to'lib ketganday ular to'p-to'p bo'lib yopirilib kelaverdilar, kelaverdilar...

Son va kuch jihatidan ustun bo'lgan dushman ustiga yurish, bilib turib o'zini tahlikaga solish demak edi. Biroq jasur yigitlar avval-boshdanoq kuchlar teng emasligini bilishardi, bugun bo'lmasa, ertaga halok bo'lishlari mumkinligini ham tan olib qo'yishgandi, shu bois hech biri chekinishni xayollariga ham keltirmasdi. Ular o'lish, o'lganlarida ham qachonlardan beri tinchlarini buzib, tahdid solib turgan la'nati dushmanni qoniga bo'yash uchun olg'a intilar, toki vahshiylashib ketgan dushman otlari tuyog'i ostiga yiqilib tushmagunlaricha jang qilishga ahd qilgandilar.

Jang kechgacha davom etdi.

Boytemir shovqin solib ketma-ket kelgan ikki otliqni chapaqay zarb bilan urib yiqitdi, lekin quyunday yopirilib kelgan o'n chog'liq suvoriy uning otini surib ketdi, o'zi boshiga

tushgan so'yilning zarbidan ko'zlaridan o't chaqnaq ag'darilib tushdi. So'nggi bor ko'rgani otdan yiqilayotganida ikki qadam narida Ko'char polvonni egardan uchib ketgani edi...

Qo'zg'olonchilar yengilgan edi.

* * *

Qonli ur kaltak-sur kaltak endi kentda davom etardi. Arablar ot ustida uyma-uy bosh suqar, u yoqdan-bu yoqqa yugurishar, otlarning kishnashi, qurollarning jarangi eshitilardi.

Kent aholisi allaqachon to'zib ketgandi. Qishloqlar bo'shab, eshiklari lang ochilgan uyalar kimsasiz qoldi. Kecha-kunduz demay har xil tugun-tersaklar-u bo'g'jomalar bilan to'lgan, ustiga ayollar va bolalar o'tirgan aravalar noma'lum tomonlarga yo'l olgan, arava yonida yerga qaragancha ketib borayotgan erkaklar ora-sira o'girilib ortlaridan mung'ayib qarab qolgan qishloqlariga ko'z tashlardi.

Qochishga ulgurmagannar qatl qilindi. Qullikka olindi. O'q-yoylar, xanjarlar jarang-jurungi, qalqonlar sadosi, qonga to'lgan ko'zlar, g'ijirlagan tishlar, dahshatli chinqiriqlar, xullas, qo'rqinchli manzara edi.

Arablar ekinzorlarni payhon qildilar, bog'larni poymol qildilar, to'g'onlarni buzdilar, tekislikdagi va tog'li hududdagi qishloqlarga hamla qilishdi, tosh qal'alarni-da vayron qilishdi, o'tganlarimizdan neki qolgan bo'lsa, barini uloqtirib tashlashdi, olovga otishdi, duch kelganni, u munkillagan chol-kampirmi, homilador ayolmi, yosh bolami, bir boshidan qilichdan o'tkazdi, qirib tashladi.

Yer qonga to'yinib, havoni qalqon va sovutlar orasida sochilib yotgan kallalardan, jasadlardan anqiyotgan qo'lansa hid tutib ketgandi...

Oqar suvlar oqmas bo'ldi, ochilgan gullar qurib-so'lidi.

O'lja olingan – dur-u javohirlar, antiqa gilamlar, tilla tangalar va boshqa qimmatbaho buyumlar ortilgan karvonlar esa cho'l va tog' dovonlari osha olis sahroviiy yurt tomon ketib borardi.

Arablar o'lgan, yarador bo'lgan birodarlarini yig'ishtirib olganlarida boshidan yegan jarohati tufayli hushsiz yotgan Boytemir va Ko'charni ham olib ketishdi. Tirik qolganlar jonlarini saqlab qolgandir, ehtimol, allaqaylarda biqinib yurishgandir, ammo bundan ne naf, zotan, qal'alari boy berilgani, mag'lub qo'llari ojizlikdan akashak holga kelgani ustiga endi ularning qismatlari ham o'zga qo'llarga o'tish xavfi ostida qolgandi..

* * *

Mana, ming yillar davomida ota-bobolari o'tgan yo'ldan endi ularni qul qilib olib ketishmoqda. Bu yo'llar qayerdan boshlanib, qayerda tugaydi? Oxiri bormi buning? Yo hayot singari cheksizmi? Boshi-keti yo'qmi?

Shamol turadi, chang-to'zonni ko'tarib ko'zlariga uradi, so'qmoqlardan mayda toshlarni zarb bilan uchirib mahbuslarning yuzlarini tilib yuboradi. Shunda ham hech kim miq etmaydi. Dod desang, ayamay kaltaklashadi yoki biror jarga uloqtirib yuborishadi.

Odatda, asirlar soqchilar nazoratida Xurosonga jo'natilardi. Piq-piq yig'laganча tuyalarning ikki tomonidagi kajavalarda suluv qizlar ketardi, qolgan yosh-u qari izillaganча karvon ketidan ergashardi. Nochor va kasalmandlar tuyalar oyog'i ostida qolib o'lib ketardi. Ammo bu gal ularni uzoqqa olib ketishmadi.

Bunjikat qamoqxonasiga qamashdi.

Bir vaqtlar Bunjikat ichki va tashqi shahardan iborat, devorlar bilan o'ralgan obod shahar edi. Ichki shaharning ikki darvozasi bo'lib, ichidan katta daryo oqib o'tardi. Shaharda bog'lar, uzumzorlar, qasrlar va qamoqxona bor edi. Aholi gavjum yashardi.

Istilodan keyin shahar o't ichida qolgan, aholi esa tum-taraqay bo'lgandi. Qachonlardir bolalar qiy-chuviga to'lib toshgan ko'chalar huvillab qolgandi. Bozorlar devorlari qorayib, qulab yotardi. Ammo ayni damda Bunjikat bir muncha jonlangan, urush to'xtaganidan boxabar bo'lganlar asta-sekin uyalariga qayta boshlagan,

hayot yana davom etayotgan edi. Qulagan devorlar tiklanib, masjidlar qurilayotgandi. El ichdan buzila boshlagandi chamasi, bozorlar atrofidan chala-chulpa arab lahjasida xizmatkorlarining go'riga g'isht qalayotgan mahalliy savdogarlarning ovozlari onda-sonda eshitilib qolardi.

Bir oydan so'ng shahar chetiga olib chiqishdi. Oralarida yosh-u qaridan tortib yaradorlargacha bor edi. Bu yer esa qul bozori edi. Mahbuslar qul sifatida sotiladigan bo'lganidan ertalabdanoq xaridorlar ko'paygandan ko'payib ketgandi. Musulmonlar savdoni tezlatish uchun har bir qul ustida uch marta: "Kim oshdi?" deyishardi-da, sotib yuboraverardi. Asir-qullar ko'pligidan, ularni bir yo'la beshta-beshta, o'nta-o'ntadan sotishardi. Ular orasida bir-biriga matashtirib bog'lab qo'yilgan Boytemir bilan Ko'char polvon ham bor edi. Ikkalasi ham nomusdan bosh ko'tarolmas, gaplashmas, hatto bir-birining ko'zlariga qarashmasdi. Bu kunimdan o'lganim yaxshi edi, degan bir o'kinch bor edi ularning nigohlarida.

Kuchga to'la, o'smir yoshdagi bolalar xaridorgir bo'lib, narxi baland edi. Qari-qartanglarga hech kim qiyo boqmasdi. Yarador yo'lbarsdek bir-biriga matashib turgan Boytemir bilan Ko'char oldiga ham xaridorlar kelishardi-yu, bir zum tikilib turib negadir qaytib ketishardi.

Yo'ldan sekin-asta gurunglashganча o'tayotgan ikki kishidan biri – egnidagi uzun qora abosi bo'y-bastini yanada balandroq va ko'rkamroq ko'rsatgan, qosh-u kipriklari bir-biriga payvasta bo'lib, qoramag'iz yuziga yarashib turgan o'ttiz besh-qirq yoshlardagi bir musulmon sherigidan ayrilib izdihomga yaqin keldi va qiziqsinib ularni kuzata boshladi. Boytemirning ham, Ko'charning ham jarohatlari hali to'la bitmagandi. Qoni tanidan sug'urib olinganday ikkalasining ham yuzi oqarib ketgandi. Qo'l-oyoqlari zirqirab og'rirdi. Suvsizlikdan tillari g'adir-budur bo'lib qolgandi. Ochlikdan boshlari aylanib, zo'rg'a oyoqda

turishardi. Boytemirning boshidagi jarohatidan oqqan qon sochlarida, yuzida qotib qolgandi.

Haligi qoramag'iz kishi esa nari borib, beri kelib ularni kuzatardi.

Qora jubbali, soqoli tikanakday tarvaqaylab o'sgan quljallob haligi qoramag'iz odamga ko'zi tushgan zahoti pildirab oldiga keldi.

– Ey, birodarim Abu Abbdulloh, Allohga qasamki, bularga xaridor bo'laman deb ovora bo'lmang!

– Nima uchun, ey Zubayr?

– Ko'rmaysizmi ahvollarini? Oyoqda zo'rg'a turishibdi.

Abu Abdulloh demish beozorgina kulib qo'ydi. Keyin Boytemir bilan Ko'charga qo'shib yana o'n chog'li tanlangan mahbusni o'z ixtiyoriga oldi...

Keyin ularni tasodif tufayli omon qolgan, ichkari-tashqarilik sersoya, serhasham, shifti ganchkorlik naqshlari bilan bezatilgan, devorlariga rang-barang gullar, kakliklar san'atkorona chizilgan uyga olib kelib joylashtirdi. Hashamatiga qaraganida uy Bunjikatlik birorta savdogarga tegishli bo'lgan ko'rinadi. Sho'rlik savdogar hozir qayerlarda uloqib yurgan ekan? Balki, to's-to'polonda o'lib ketgandir...

Xo'jayinlar bilan xizmatkorlar istiqomat qiladigan tomi yapasqiroq xonalarning o'rtasini keng-mo'l yo'lak ajratib turardi. Ularni ana shu xizmatkorlarga qarashli xonalarga joylashtirishdi.

Avvaliga qiyin bo'ldi hammaga. Bor-yo'g'i bir necha xonadan iborat, buning ustiga chor atrofi qurshalgan hovlida ular mahbus singari saqlanardi. Xuddi qafasdagi bo'ridek hech qayoqqa chiqib ketolmaslik azob ustiga azob qo'shardi. Ayniqsa, Ko'charning holi tez tang bo'la boshladi. Bir yoqdan ota-onasi, bola-chaqasini o'ylab, ikkinchi yoqdan o'zini xo'rlangan, kamsitilgan his qilganidan kundan kun it kemirgan oshiqday bo'lib borardi. Aslida, kamsitiladigan, xo'rlanadiganlardan edimi u? Poygada birinchi, shikorda birinchi, o'q-yoy otishda tengsiz emasmi. Kurashlarda yelkasi

yer iskamagan pahlavon emasmi? Mana endi qanoti singan qushday his qiladi o'zini. Rangi sarg'ardi. Kechalari uyqusiz o'tadi. Hech kim bilan gaplashgisi kelmaydi. Iloji bo'lsa-yu bu yerdan bosh olib ketsa, ammo qutula olmaslik battar ko'nglini ezadi, g'ururini sindiradi. Avvallari u bor edi, mana endi yo'q u, yo'q bo'ldi. O'zini kuchsiz, ojiz his qila boshladi. Go'yo Ko'char polvon degan pahlavon hech qachon bo'lmaganday, tug'ilmaganday...

Yorug'i so'nib borayotgan bir soya misol g'oyib bo'layotgandi Ko'char polvon.

Nahotki, o'tmishi havoyilik bilan o'tgan bo'lsa? Suruvni yaylovga qo'yib yuborib, soy suvida otlarni choptirishganlari, biroz hordiq olar-olmas nayzabozlig-u qilichbozlik qilib, yoshlikning eng go'zal damlarini boshdan kechirishganlari, xotin olgani, farzand suygani, yurt uchun qo'lga qilich tutganlari, hamma-hammasi behuda bo'lsa?

Shunday kezlarda kechalari ich-ichidan ezilib yig'lab olardi. Ammo buni biror marta ham Boytemirga sezdirmasdi. Sezdirishga uyalardi. Uyat, andisha, faqat shu narsalar qolgandi avvalgi Ko'char polvondan. Yoydagi o'qday doim tarang turadigan Boytemirgina o'zgarmagan, haliyam dimog'i baland, qarashlari o'tkir, o'zicha ne xayollarda, qandaydir jumboqni yechishga urinayotganday yuribdi.

Bir kuni ertalab Abu Abdulloh ularni nima uchun bu yerga olib kelganini aytib, bundan keyin qanday yashashlarini ma'lum qilganida nafaqat Boytemir, balki boshqalar ham hayron qolishdi. Ularni o'qitisharmish! O'qitisharmish! Bu qanaqasi?..

Eng yomoni, o'z tilida yozish va so'zlashish qat'iyani taqiqlandi.

* * *

Abu Abdulloh ibn Ja'far Movarounnahrğa islom ta'limotlarini yoyish uchun kelgan ilk targ'ibotchilardan edi. Vazifasi mahalliy aholiga islomiy ta'limotlarni va arab tilini o'rgatishdan iborat. Uch yil Samarqandda bolalarga din ilmidan saboq bergani bois bu yerliklar tilini

deyarli bilib olgandi. Lekin shunday bo'lsa-da bu ish unga oson tushmadi. Asrlar davomida bobolaridan otalariga, otalaridan bolalariga o'tib kelgan hayot tarzini o'zgartirish yoki undan butunlay voz kechtirish oson emasdi. Shu bois u talabalar oldida ovozini ko'tarib gapirmas, urishmas, hatto noshudlik, dangasalik qilganlarni ham jazolamas, faqat yer ostidan shunday vajohat bilan qarab qo'yardiki, go'yo hammani bir-bir zanjirband qilayotganday.

Darslar avvaliga oddiy suhbatlardan iborat bo'ldi. Ertalabki nonushtadan so'ng hammalari sholcha ustiga cho'k tushishar, dars o'tilardi.

Talabalar hali hech narsaga tushinishmasada, nafaslarini ichlariga yutib, muallimni diqqat bilan kuzatishardi. Ustod Abu Abdulloh buni his qilar, nojo'ya aytilgan bir so'z, tavakkal qilingan kichik bir harakat ham noxushlikka sabab bo'lishi mumkinligini yaxshi bilganidan o'zini sipo tutardi, go'yoki mahbuslarni ranjitmaslik haqida buyruq olgan qamoqxona boshlig'iday!

– Muhammad Allohning elchisidir, – dedi ustod darsning keyingi bosqichlaridan birida. – Allohni tanigan Muhammadni taniydi, buyukligini tan oladi. Sizlar uchun yagona Allohni tan olmoqdan boshqa najot yo'lini ko'rmayapman. Yakka-yu yagona Allohga sig'insangiz, ellarimiz ittifoqlikda, yaxshi qo'shnichilikda ming yillar tinch yashaydilar. Yagona Allohni tan olish...

O'z hayotlarini ko'kning quyoshiga, bulutiga, yog'in-chochiniga bog'liq deb yashagan el bolalari bunday yangi so'zlar qudrati qarshisida lol edilar. Yangi g'oya, yangi din, yangi til kundan kun ko'z oldilarida Tangritog' misol kattalashib, hatto undanda ulkanlashib borardi. Tangritog' ne, undan-da yuksalib, oshib bo'lmas cho'qqiga aylanayotganday edi.

Muallim bo'lsa qayta-qayta tushuntiradi, erinmasdan, charchamasdan...

Keyinroq borib darslar savol-javoblarga aylana boshladi.

– Yagona Allohga bo'lgan ishonch – insonning yuragini nur bilan, umid bilan

to'ldiradigan ishonch bo'lishi lozim. U bo'linmas, yaxlit bo'ladi, bunda ikkilanishga, taraddudga o'rin yo'q, yo ha, yo yo'q! Mana, misol uchun olaylik, sizning olovingiz sizga yo'l ko'rsata oladimi? Falokatlardan saqlay oladimi?

Taqdirning allaqanday ko'zga ko'rinmas xudoga bog'liq bo'lishini xayollariga ham keltirmaydigan ulus farzandlari yana jim. Boytemirning esa qichqirgisi, musht urgisi, bu yerdan otilib chiqib ketgisi keladi, ammo qancha xohlamasin, hech qayerga ketolmasdi. Hovlida mahalliy aholi yigitlaridan saralangan qo'riqchilar yurardi. Gohida zerikib ketganidan qaysarlik bilan qanchalik takrorlamasin notanish so'zlarni quloqlari qabul qilmas, chiqarib tashlardi. Eski bilganlari yangi bilimlar oldida sira past tushmasdi.

Bir kuni:

– Ular avval o'z nafslarini tiysin!

Bizning mo'l-ko'lchigimiz bularning jonini talvasaga solib, ko'zlarini qonga to'ldirgan. Sezmayapsanmi, muning og'zidan qon hidi keladir, – dedi Boytemir shivirlab yonida o'tirgan Ko'charga.

– Sekin... eshitib qoladi... – shivirlab javob qaytardi Ko'char, keyin muallim tomonga xavotir ichida qarab qo'ydi.

– Bir kun kelur, – dedi Abu Abdulloh.

– Umid qilamankim, o'sha kun keladi va biz sizlarning qalblaringizdagi xatoliklarni to'g'rilaymiz. Ana o'shanda meni tushunib yetursiz. Sizlardan nima kutilayotganini va nima demoqchi bo'lganimni ham anglaysiz, albatta.

Boytemirning ichida mudrab yotgan narsalar tobora yuqoriga ko'tarilardi. Ko'zlari to'qnashsa hamma narsa hal bo'ladiganday Abu Abdullohning ko'zlariga ko'zini qadashga urinardi. Ammo muallim negadir u tomonga qiyo ham boqmasdi. Bug'doyrang yuz bichimi kelishgan, sochlari yelkasiga tushgan, ammo ko'zlarining qattiq boqishi beixtiyor odamni hushyor tortishga majbur qiladigan bu yigit Abu Abdullohning ko'ziga shunchalik johil va aqli past bo'lib ko'rinardiki, nima uchun asir tushganini ham bilmaydigandek tuyulardi.

Ammo ko'zdan qochirishni ham istamasdi. Kishi bilmas uni kuzatardi.

Gohida o'ziga sovuqdan sovuq tikilishga odatlangan toshday og'ir nigohlardan ko'nglida shubha qurti o'rmalab qolar, hoziroq buning burniga buyda taqmasam, keyin jilovini tutqazmay qo'yadi, deb o'ylaganidan Boytemirni darsdan keyin hujrasiga chorlar, yolg'iz, yakkama-yakka gaplashishga urinardi. Har gal unga ma'budlar, dinlar haqida gapirib, Allohdan boshqa hech qanday iloh yo'qligini uqtirmoqchi bo'lardi, ammo suhbatdoshida yaxshi bir ma'nodagi o'zgarishni ko'rmay alami keldi, tog'lar o'rnidan qo'zg'alib, dunyo ostin-ustin bo'lib ketganda ham bu yigitni hidoyat yo'lida ko'rish nasib qilmaydigandek hafsalasi pir bo'lib ketdi, keyin undan qo'l siltadi-da, atay Ko'charni ko'proq yoniga chaqiradigan, o'ziga yaqin oladigan, suhbatlashadigan bo'ldi. Go'yo na dinining, na nasl-nasabining farqi yo'qday, samimiy gaplashib, uni ohanrabo misol o'ziga torta boshladi. Va yana Ko'chardan boshqa ishonchli odami yo'qday ba'zi bir yumushlarni ham unga ishonib topshiradigan bo'ldi.

Bunday muomalani kutmagan yigit avvaliga elirib, hayron qolib yurdi, lekin ko'p o'tmay ruhi ko'tarildi. O'zini siylanganday his qildi. Keng yaylovlarda ot choptirib, kurash tushib yurgan chog'larini unutganday bo'ldi. Sog'inch hissi va siqilishlar chekina boshladi...

– Ozod bo'lishni istasangiz, tezroq ilm o'rganing, – dedi Abu Abdulloh bir kuni unga ma'noli qarab.

Bu gap Ko'charga boshqacha ta'sir qildi. Boshqa hech mahal o'zini sinab ko'rmagan, notanish, butunlay boshqa bir maydonga kurash tushadiganday hayajonlandi. "Bundan chiqdi, ularning ilmini o'rgansak, bu yerdan tezroq qutularkanmiz", degan o'y xayolida tinimsiz aylanadigan bo'lib qoldi.

Bu haqda eng avval Boytemirga shipshidi.

Shunda Boytemir tomdan tarasha tushganday qilib:

– Mijozimizga to'g'ri kelmasayam o'rganaveramizmi ularning ilmini? – dedi

do'q urguday bo'lib, buning ustiga hammaga eshitarli qilib.

Ko'char qo'rqib ketdi negadir. Afsuslandi. Bu haqda Boytemirga boshqa og'iz ochmadi. Ammo kurkatlik Boybo'ri ularni kuzatib turgan ekan, kechasi allamahalda Ko'charni uyg'otib, u bilan tonggacha shivirlashib gaplashib o'tirdi.

Asta-sekin muallimning so'zi Ko'charning qalbida sezilarli iz qoldirib, o'zi sezmaganda yuragini bezovta qila boshladi. Nazarida, bu odam unga ham, sheriklariga ham yomonlik qilmaydiganday tuyulardi. "Demak, iloji bor... iloji bor ekan..." Endi dastlabki kunlardagiday arabdan yotsirash, o'zini olib qochish hissi yo'qolgandi unda. To'g'ri, eshik oldidami, hovlidami duch kelib qolganlarida hali hamon birdan cho'chib ketadi, lekin bu yotsirash endi avvalgi yotsirashga o'xshamayroq qolgandi. "Menga nima bo'lyapti? Tush ko'ryapmanmi..."

Kurkatlik Boybo'ri shipshib qo'yganmi yoki ancha emin-erkin bo'lib qolgan Ko'charga havaslari kelganidanmi, endi boshqalar ham undan ulgu olganday muloyim tortib, hammaga xush keladigan ohangda gapiruvchi muallimning aytganlariga qunt bilan quloq tuta boshladi. Go'yoki shu yo'l bilan ozodlikka chiqadiganday, yuraklari yonardi chamasi. Ko'p o'tmay qayta-qayta takrorlashlar oqibatida ular begona so'zlarni yodlab, hatto yozishni ham o'rgana boshlashdi. Birgina Boytemir Abu Abdullohni ko'rganida jilmayib ham qo'ymas, aksincha, qovog'ini uyib olar, ko'pchilik nazdida, hech nuqsonsiz ko'ringan bu odamni urib-tepib, majaqlab tashlagisi, haqoratlagisi kelar, ayniqsa, beg'araz hazil qilgan vaqtlarida ilon qulog'iga vishillayotganday eshitaladigan ovozini tinglamaslik uchun tomog'idan g'ippa bo'g'ishga ham tayyor edi.

* * *

Bir kuni Abu Abdulloh gapirishdan to'xtamagan holda Boytemirning oldiga keldi.

– Nega yozmayapsan, – deb so'radi. Boytemir javob bermadi.

– Xo'sh, nega indamayapsan? Biz javob kutuyapmiz.

Hammaning nigohi unga qadaldi. Boytemir buni his qildi. Peshonasi terladi. Shunda ham miq etmay turaverdi. Muallim uning iyagidan tutib ko'zlariga tikildi, shunda ularning nigohlari nayza otishgandek bir-biri bilan ancha olishdilar. Xuddi hozir, shu daqiqaning o'zida nimadir sodir bo'ladiganday xona sukutga cho'mib qolgan, hamma nimadir yuz berishini kutmoqdaydi. Nihoyat, Abu Abdulloh yuzini burib nari ketdi. Yigit ichida quvondi, har qalay nigohlar jangida yengilmaganidan.

Kulcha bo'lib yotgan ilon asta g'imirlab birdan bosh ko'tarib hamlaga shaylanganday Abu Abdulloh qo'qqisidan talabalarga yuzlanib dedi:

– Alloh ko'zlaringizni uyqudan uyg'otganidek, qalblaringizni ham g'aflatdan uyg'otsin. Borliqni tong shu'lasini yoritganidek, hayotingizni ham hidoyat nuri ila munavvar aylasin. Haqiqatni ko'rmaganlarning ko'ziga nur ato etsin, yo'ldan ozganlarni yo'lga solsin!

Boytemir qayerdan toshib kelayotganligi o'ziga ham ma'lum bo'lmagan bir tuyg'u bilan dedi:

– Biz sizlarning tangringizni tanimaymiz! Bizni o'z yo'lingizga solaman deb ovora bo'lmang!

Abu Abdulloh xastani ko'zdan kechirayotgan tabibdek Boytemirga sinchiklab tikildi.

So'ng:

– Hamma shu fikrdami? – deb so'radi ohista.

Xonaga tarang sukunat cho'kdi. Kimdir og'ir va bo'g'iq xo'rsinib qo'ydi.

– Sizlardan javob kutuyapman, – dedi ustoz.

Boytemir yon-veriga qaradi. O'tirganlarning qarashidan o'zining yonini oluvchilar yo'qligini bilsa bo'lardi. Yuragi shuvillab ketdi.

Shu vaqt orqaroqda o'tirganlardan kimdir:

– Do'stimiz yanglishdi. Bizning fikrimiz o'zgarmoqda.

Boytemir ko'zlari qahrga to'lib ortiga o'girildi.

Javob bergan Ko'char edi!

Biroz o'tib boshqalar ham nimalardir deya g'udrandi.

Shundan keyin Boytemir saboqdoshlari bilan gaplashmay qo'ydi. Qandaydir vaj bilan birortasi yoniga kelsa-da, yuziga qaramadi. Shunda kurkatlik Boybo'ri uni chetga imlab dedi:

– Ko'chardan xafa bo'lma, bizardanam. Shunday yo'l tutmasak, hammamiz o'lib ketamiz! – dedi.

Boytemir quloqlariga ishonmadi.

* * *

Kurkatlik yanglishgandi chamasi.

Sirtidan qaraganda, dars paytida qora ko'zlarini muallimdan olmay, xuddi o'z tabassumi bilan otasining so'zlarini ma'qullayotgan boladay nuqul iljayib o'tiradigan Ko'char uchun kunlar boshqacha mazmun kasb etayotganday tuyulardi. Go'yoki avvalgi kunlari tarovatini yo'qotib, qarshisida boshqa bir ziyo nurlanayotganday, go'yo ko'z oldida qandaydir devor bor edi-yu, o'sha devor endi asta-sekin qayoqqadir g'oyib bo'layotganday, yuragini bir baxtiorlik qurshayotganday, bu baxtiorlik, bu orzumandlik ilgarilari his etgan quvonchli onlarining hech biriga o'xshamaydiganday ko'zlari yonib o'tirardi.

Ko'charni tushunib bo'lmay qolgandi.

Bir kuni Abu Abdulloh ipak hoshiyali chiroyli xaltachadan bir kitob chiqardi.

– Bu nima? – so'rashdi talabalar.

– Kitob. Qur'oni karim. Ya'ni Alloh kalomi. Uni o'qisangiz, dilingiz yorishadi.

– Uni hoziroq o'qisak bo'ladimi?

– Yo'q. Avval shahodat kalimasini keltirib, musulmonchilikni qabul qilasisiz, ana undan keyin istagancha o'qishingiz mumkin, – dedi ustoz, zum o'tmay samimiylik bilan qo'shib qo'ydi: – Bu, albatta, har kimning ixtiyori.

Hech kim e'tiroz bildirmadi. Birgina Boytemir ustozning gaplarini eshitmaganday derazaga qarab o'tiraverdi. Deraza darchasidan

yovshangul hidi kelmoqdaydi, aftidan shabada uni olib kelgandi. Qadrdon hid ko'nglini qoplagan bulutlarni haydab, uyini, marhum ota-onasini esga solsa-da, ichidagi sim-sim iztirobni bosolmadi baribir. U o'ylardi, ammo qancha o'ylamasin, gohida mulohazalari behuda aylanayotgan g'ildirak misol miyasida charx urayotganday tuyulib, jahli chiqib ketardi. Chuvalashayotgan barcha ikir-chikirlarni ulotqirgisi, yonidagilarga qo'shilgisi, ular tan olgan iymon, sabr-qanoat... degan tushunchalar etagidan mahkam tutib, azobli o'ylardan qutilishni istab qolardi. Lekin zum o'tmay fikridan qaytadi. Shunday qilsa, otalari yashagan, o'zi yashagan, yaxshi bilgan hayot xira tortib, uzoqlashib, begonalashib ketadiganday yuragini bir qo'rqinch qamrab olardi.

– Bizni bu yerlarga boshlab kelgan narsa nima? Tirikchilikmi? Yoki non tashvishimi? Yo'q, tirikchilik qilamiz desak, o'z yerlarimiz yetib ortadi. Nonga ham zor qolganimiz yo'q. Niyatimiz faqat Alloh kalomini yoymoq! Bo'lib o'tganlar esa... ko'nglingizni ranjitmasin. So'zlarimiz bir o'git sifatida qabul qilsangiz, yuzimiz yorug' bo'lg'ay...

Boytemir derazadan ko'zini uzib, yalt etib muallim tomonga qaradi.

Abu Abdulloh unga qattiq tikilib turardi.

Voqealar o'zgarib boshladi. Kiyimlar o'zgardi. Xatti-harakatlar boshqacha bo'la bordi. Kechagina osmonga cho'zilgan qo'llar, olov atrofida aylangan oyoqlar endi bilibmi-bilmaymi, ixtiyoriymi-beixtiyormi, ishqilib, boshqa bir vazifani ado etmoqda edi.

Ayniqsa, azon ovozigacha chidash qiyin edi. Hatto uyqusida ham go'yo quloqlari ostida allaqayerdan, juda olisdan bir ovoz eshitilayotganday, bu yoqimli ovoz qo'yib bersa quloqlari ostida yana ming yillar jaranglab turadiganday Boytemir qo'rqib ketardi. Jon-jahdi bilan quloqlarini berkitadi. Tovush tinganday bo'ladi. Lekin zum o'tmay sehirli ovoz yana quloqlarini qitiqlay boshlaydi va bora-bora bu ovoz olisdan ham, yaqindan ham, shundoq yonginasida ham eshitilib, goh bo'g'iq faryodga,

goh go'dak nolasiga o'xshab, gohida esa zarb bilan nog'ora taraqlayotganday quloq-miyasini parmalab tashlaydi. Nazarida, o'ngida tush ko'rayotganday edi...

– Hov, esipast ovsar, – dedi Boytemir bir kuni Ko'charni yolg'iz uchratganida yoqasiga yopishib. – Nimalar qilayotganingni bilasanmi o'zi?! Bular bizni urf-odatlarimizdan, ildizlarimizdan mosuvo qilib, o'zlariga moslashtirmoqchi bo'lyapti, nahotki shuni sezmayotgan bo'lsang?!.

– Bilaman.

– Bu qorasolning izidan yursak, o'z elimizni, ulug'larimizni, ularning ruhlarini unutgan bo'lmaymizmi?

– O'ylab ko'rdim, biz ko'p narsalarni bilmas ekanmiz. Odam bilmagan narsasini boshqa birovdan bilib o'rgansa ne gunoh?

– Toza aqlli bo'lib qoldingmi darrov?! O'zi qip-qizil sahroda soya ko'rmay o'sgan bir sayyohning gaplari bilan meni shoxlamoqchi bo'lyapsanmi?

– Bilmadim, o'zim ham o'zimni tushunolmayapman... lekin... – Ko'char nimanidir ochiq aytolmayotganidan qiynalib ketganday aftini burishtirdi.

– Sen anavi sahroyiga ishonasanmi? – yana qisti-bastiga oldi Boytemir. – Lekin men bu odamga sira ishonmaymen. Kim biladi, uning kallasida nima bor? Ayt-chi, sen uning ko'nglidagini bilasanmi? Yo'q. Ana shunaqa.

– Nega menga tirg'alib qolding? Qochishni o'ylayotgan bo'lsang, ketaver!

– Basharti shunday bo'lsa, menga hamroh bo'larmiding?

– Aniq bir narsa deyolmayman. Ochig'ini aytsam, men qochmasdim... – ko'zlarini olib qochdi Ko'char.

– Qo'rqaysanmi?

– Tushun... Baribir tutib olishadi. Dunyo ularniki endi!

Boytemirning yuzi bo'zarib ketdi, Ko'charni urib tashlamoqchi bo'lganday hezlandi.

– Mayli, ursang uraver... – boshini egdi Ko'char.

– Rosting shumi? Anavilar tarafga o'tganing chinmi?

– Ha, chin... Yo'q, undaymas... – kalovlandi Ko'char, lekin darrov o'zini o'nglab olib xotirjam gapira boshladi:

– Men ko'p o'yladim, o'yladim, mana, hozir sen bilan gaplashib turibman-u, kal-lamda mingta xayol. Bundan oldinroq ham ko'p o'ylaganman. O'zimni ularning dini biznikidan xayrliroq, biznikidan mukammalroq ekanligiga ishontirishga urinyapman!.. Bizga ota-bobolarimiz halol bo'l, haromdan hazar qil, o'g'rilik qilma, emgak qil deb o'rgatishgan-ku, islom ham...

– Shu gaplarni sen aytyapsanmi?!

– Ha, men, men! – deya birdan jazavaga tushib baqirdi Ko'char. – Nima qilay, bundan ortiq nima qilishim kerak?.. A, qani, o'zing ayt-chi, nima qilishim kerak?! Men ajalimdan besh kun burun o'lib ketishni xohlamayman. Lekin bu yerda qamoqda yashaganday yashashniyam istamayman. Men ozod bo'lishim kerak, bildingmi, ozod!

– Pastkash! Asli indiningda hech narsa bo'lmagan! Seni ko'rsam qunim ayniydi. Yo'qol, ko'zimga ko'rinma!

Ko'charning ko'z oldi qorong'ilashib ketdi. Titroq qo'llarini qayerga yashirishni bilmasdan bir zum kalovlanib turdi-da, so'ng qo'qqisidan Boytemirning yuziga tarsaki tushirdi.

Boytemir kiprik qoqmadi. Ammo zum o'tib Ko'charning yuz-ko'zi demay musht tushira ketdi...

* * *

Mezon oxirlab qolgandi. Bunjikat osmonini tez-tez bulut qoplardi. Shamollar ham yozdagiday yoqimli emas, izg'irinli, etni junjiktiradi. Tez qorong'i tushadi. Kun-kunora yomg'ir savalab qoladi.

Havo kundan kun sovirdi.

O'sha kungi mushtlashuvdan keyin Ko'char ikki kuncha to'rsayib yurdi-da, keyin oralaridan hech narsa o'tmaganday Boytemir bilan gaplashishga harakat qila boshladi. Yana

avvalgiday yaqin bo'lishga urinyapti, lekin endi do'st emas!

Sirtidan qaraganda, Boytemir uchun kunlarning qanday kechayotgani, dunyoda nelar bo'layotganining hech qizig'i qolmaganday edi. Lekin miyasi xuddi bir jang maydoniga aylanib qolgandi go'yo.

Ey olamlar sarvari, menga yo'l ko'rsat. Bu dunyoning ishlarini tushunolmay qoldim. Tevarak atrofimdagilar hayotning ma'nosini endi angalayapmiz deb chug'urlashyapti. Satta-savdoyilar qul bo'lmoqni baxt deb bilyaptilar... Avval qul bo'lib, keyin ozodlikka chiqishni istayaptilar!

Qiziq, men hayotim mazmunini bil-ganimcha yashab kelmadimmi shu vaqt-gacha. Mendan oldingilar ham shunday yashamadilarmi?..

Sening nuring rahmating emasmi? Til bilan sening borligingga iqrar bo'lib, dil bilan sening borligingni tasdiqlab yashamadikmi?

O'zing guvohdirsan, dunyoni yangi bir tushuncha rom aylamish. Yer yuzini yangi so'zlar, yangi odamlar egallamish. Ko'hna dunyo esa jim. Yangi xojasini tan olmoqqa qo'rqadir. Abu Abdullohning aytishicha, islom zulmat ichida chaqmoqdek chaqnagan emish! Islom Alloh yuborgan din emish. Farishtalarining, payg'ambarlarining va bobomiz Ibrohimning dini ekan. Unga yagona Allohga ibodat etadigan, mol-dunyoga ko'ngil qo'ymagan, oxiratga havasmandlar ergashar emish. Zararga yetaklaydigan, axloqsizlikni tashviiq etadiganlar unga loyiq emasmish.

Bunday olib qaraganda, odamlarni da'vat etayotgan dinining, ularga buyurayotgan ibodat va axloqning hech bir nuqsoni ko'rinmaydir. Kamchilik topish uchun vijdonsiz odam bo'lish darkor. Men undaylardan emasmen. Ammo o'z eli qolib, o'zgalarga aql bo'lish uchun kelgan bu sahroyilar o'zlarini buyuk hisoblamoqda, uylarimizga ot solib, mol-hollarimizni talashgani yetmaganday endi ruhimizni ham yag'molashmoqda. Biz-chi, bizning buyukligimiz qayda qoldi, o'tda yonib kulga aylandimi?

O'tmishimiz tuproqqa qulab, gilga aylandimi? Yo'llarimiz bekilib qoldimi? Modomiki yo'limiz mo'rt ersa, buni o'zimiz anglab yetmog'imiz lozim emasmi? Zo'rvonlik ne darkor? Kunlar o'tar, yillar o'tar, vaqti kelib el to'g'ri yo'lni anglab yetar, to'g'ri yo'lda bo'lganlarga ergashar, axir cho'kkan odam suv tubiga yetgandan keyingina oyoqlarini yerga tirab yuqoriga o'rlaydi. Inson ana o'shanda qalban yuksalmaydimi?

Ko'nglim o'zingdan boshqani tan olmaydir. Sening borligingni tan olmoqdan boshqa narsani his qilmayapman. Menga hamisha kuch bergan, qo'llab kelgan narsa shu vaqtgacha yashab kelgan hayotimdan taralgan quvvat emasmi? Qanchalik ajabtovur tuyulmasin, men hammasi eskicha qolishini istaydirmen. Bolaligimda, yoshligimda qanday bo'lsa shundayligicha! Otamning, bobomning, undan-da katta otalarimning tutumi qanday bo'lsa shunday qolishini istaymen. Yangi din men uchun sohili yo'q ummon, men bunday ummonda suzishni istamaymen...

Kunlarning birida Abu Abdulloh betob bo'lib qoldi. Shunga qaramay darslar to'xtab qolmadi. Mashg'ulotlar davom etardi. Ammo Abu Abdullohda avvalgi o'ktamlilik yo'q edi. U tez-tez gapirishdan to'xtab, jim bo'lib qolar, marjon-marjon ter bosganidan sallasini sal tepaga surib qo'yganida silliq peshonasida bilinar-bilinmas ajinlar chizig'i ko'rinardi. "Es-hushli, vazmin, buning ustiga dono odam, shundaylar ham qo'lida qilich tutarmikin?.."

Kun sovuqligidan hovlida sanqib yuradigan qorovullar kechasi ko'rinmay qolgandi.

Bir oqshom Abu Abdullohning isitmasi ko'tarilib, hamma u bilan ovora bo'lib qolganida Boytemir hovlini qurshagan devorning pasqamroq yeridan oshib o'tdi-yu, zim-ziyo ko'chalar bo'ylab yugurib ketdi. Shahar ichidagi bir-biriga ulanib ketgan loy ko'chalar bo'ylab toyg'ona-toyg'ona chopib o'tib, tashqariga chiqib oldi. Keyin birin-ketin

ko'nchi-yu temirchilarning uylari orasidan arvoh kabi shuvillab o'tdi. Ana, omochda haydalgan paykallarning uvatlarida yakkam-dukkam tutlar uchrayapti. Endi bu yog'iga qo'rqmasa ham bo'ladi.

Boytemir qadamini sekinlatdi. Xatardan butkul xoli bo'lganday xotirjam keta boshladi. Bu yerlarni yaxshi bilardi. Yana biroz yursa, tepaliklar boshlanadi.

Havo sovgan, Boytemirning esa usti yupun. Shunga qaramay u sovuqni his qilmasdan ketib borardi.

Bir amallab toqqa yetib olsa bas, biror o'ngur yoki g'orga bekinib jon saqlaydi. Keyin nima bo'ladi, u yog'i noma'lum, o'ylagisi kelmasdi.

Ajabo, shahardan tashqarida na bulutdan, na yomg'irdan asar bor. Atrof jim-jit. Dala-tuz uyquda. Uning yuragi tez urib, hapriqib ketdi. Boshini ko'tarib, naq tepasida fuqarolarining hayotidan bexabar malikaday xotirjam suzib yurgan oyga qarab kulib qo'ydi.

Uncha olis bo'lmagan, ko'z ilg'ashi mumkin bo'lgan yerda qandaydir o'tov qorayib ko'rindi. Balki, o'tov emasdir, uyqusizlikdan qamashgan ko'zlariga shunday ko'ringandir.

Bir mahal otlarning depsingani, pishqirgani eshitildi. Boytemir qadamini sekinlatdi. Chodir eshigida soqchi ko'rinmas, yon-verida ham hech kim yo'q edi. Boytemir yaqin borib ichkariga quloq tutdi. Omonatgina qurilgan o'tov ichidan biror sas eshitilmasdi. Birorta cho'ponning kulbasi bo'lsa kerak. U holda qo'rasi qani? Tandir-o'chog'i qani?

Boytemir to'rt tomonga ko'z tashladida, sekin-sekin odimlab o'tovdan sal nariga qoziqlab qo'yilgan otlarga yaqinlashdi. Otlarning baquvvatligi, egar-jabduqlarining hashamdorligi ularning badaviylarga tegishli ekanligini bildirardi. Ular nari borsa sakkiz-o'n chog'li edi. Demak, egalari ham shuncha chiqar. Bular xufiyalar yoki biror maqsad bilan yo'lga chiqqan sarbozlar bo'lishi mumkin. Balki, atof-javonibdagi ovullarni yag'mo qilib yurganlardandir?

O'ylab o'tirishga vaqt yo'q edi. Shoshilardi.

Boytemir otlardan birining qozig'ini yerdan sug'urib olib sakrab egarga mindi-yu, yoliga yopishdi. Keyin tobora o'zidan uzoqlashayotgan oyni quvib yetishga ahd qilganday shaxd bilan otni choptirib ketdi.

Yarim soat o'tar-o'tmas, "O'g'rini ushla, ho, ushla o'g'rini!" degan hayqiriqlar eshitildi ortidan. Boytemir o'girilib qaramadi. Otlar tuyoqlarining dupuridan ularni to'rttacha sanadi ichida. "Harqalay kamchilik ekan, chalg'itsa bo'ladi!" Yigit yashirinish niyatida biror tepa, dara yoki daraxtzorni ko'zlar, ammo aksiga olganday yo'l tep-tekis edi.

Boytemir ot tanlashda yanglishmagandi. Ortida ko'zi bo'lmasa ham orqada nima bo'layotganini yaxshi ko'radigan ot tengsiz edi. Egarda o'tirgan odamning shahdini, nima istayotganini his etganidan va quvdi-quvdi-yu jang-u jadallar havosini olganidan, biqiniga bir niqtalash bilan go'yo qanot chiqarganday uchib ketardi. Sho'rlikning og'zi ko'piklasa ham tezligini sira pasaytirmadi.

Nihoyat tepaliklar ko'rinib, ular asta-sekin tiklasha boshladi. Sarg'aygan maysalar ostidan bo'rtib turgan toshlarning o'tkir uchlari ko'rinib turardi. Boytemir atrofiga shoshqin ko'z tashladi. Shu yerlarda g'or bo'lishi kerak edi. Mo'ljalni noto'g'ri olgan ko'rinadi. Yaqin-o'rtada g'or-por ko'rinmasdi.

Ot yuqoriga tirmasha boshladi.

Orqadagilar to'xtay demasdi. Ular yana beshtaga ko'payishgandi. Ko'kdagi oy quyiga enib, tussizlangan, yulduzlar ham bir-bir o'cha boshlagandi. Bir payt orqadagilardan bittasi yoyini tortib o'q uzdi. O'tkir nayza uchi Boytemirning uchchasini yalab o'tib, ancha nariga borib tushdi. Keyin yana biri boshi ustidan uchib o'tdi. Uchinchi o'q yigitning soniga sanchildi. Shu uchinchi o'qdan keyin quvib kelayotganlar oldindagi otliqning qurolsiz ekanini sezdi va xuddi nishonga kim urish bo'yicha musobaqalashayotganday ketma-ket qatorasiga nayza ota boshladilar.

Vizillab otlangan o'qlar yigitning hamma yog'ini ilma-teshik qilardi.

Vujudi Jibakdaraning qonli jarohatiga aylandi go'yo.

Ot kutilmaganda qoqilib ketdi, pak bo'lmasa yigit egardan uchib ketardi, ammo kuch bilan o'zini o'ngladi, ammo endi avvalgiday o'mrovini tik tutib turolmasdi, yelkasidan kirib ko'ksidan chiqqan nayzalar joniga azob berardi. Buni sezganidan orqadagi otliqlarning qanotlari keng ochildi, ular yarim doira yasab yigitni siqib kela boshladilar. Yuzma-yuz to'qnashuvga oz qolgandi, atigi yuz qadam, otliqlar xursandlikdan qiyqira boshlashgandi, bir nechtasi Boytemirning naq chuydasini mo'ljallab o'q otishga shaylanishgan ham ediki, ulardan biri sheriklariga qo'li bilan to'xtanglar deganday ishora qildi. Aftidan, shunchaki o'g'ri deb gumon qilganlari zuvalasi pishiqlik jangchilardan ekanligi ayon bo'lgan va uni tiriklay qo'lga tushirishga ahd qilgandi. Ot esa yuqoriga, tobora yuqoriga o'rlardi.

Nihoyat, ot uni tog'ning tepasiga olib chiqdi.

Pastda tubidan allaqanday guvillashlar kelib turgan quzg'unjar, ro'parasida baland-past tepaliklar, poyonsiz tekislik, qushlar ham uchib o'tolmaydigan huv o'rkach-o'rkach cho'qqilarning ortidan hademay Olam sarvari chiqadi, ortda esa yog'iy...

Badaviylar o'z tillarida chug'urlashganча yaqin kela boshladilar.

Qochishdan ortiq ma'no qolmagandi. Taslim bo'lish qochgan yeriga bosh egib qaytib borish degani! Boytemir bir daqiqa tek qotdi. Tobora ollanayotgan ufqqa tikildi.

"Bizlar kelib-ketaveramiz, sen esa qolasan!"

Boytemir bor kuchini to'plab zarb bilan otni niqtaladi. Kutilmaganda ot tippa-tik bo'ldi-da jarlik sari otildi...

Ertasi kuni jarlik atrofida bir gala otliq paydo bo'ldi. Ularning yuzlari qorayib ketgan, kiyimlari ilma-teshik, qalqonlari mayishgan, buning ustiga qorinlari och, shekilli, uch-to'rt kun ovqatlanmagan odamday egarda bukchayibroq o'tirishardi. Otliqlar bir og'iz ham gaplashmasdan, horg'inlik bilan jarlik yonidan o'ta boshladilar. Shu vaqt ulardan biri, ozg'indan

kelgani jarlik ustida aylanishayotgan o'laksaxo'r quzgunlarni ko'rib qolib sheriklariga nimadir dedi.

Otliqlar to'xtashdi. Haligi ozg'in kishi egardan tushib jarlikka yaqin keldi-da, ichkariga bo'ylay boshladi.

– Odam borga o'xshaydi, – degani eshitildi birozdan keyin uning.

Qolganlar ham ulovlaridan tushishdi. Baroq qoshlisining ishorasi bilan besh kishi jarlikka tushishdi va saldan keyin qandaydir bir jasadni olib chiqishdi.

– Boytemir-ku, – deb yubordi baroq qoshli kishi. So'ng birdan mahzun tortib qoldi.

Bular Boytemir boshliq qo'zg'olonidan tirik qolgan va hali ham allaqaylarda pistirmalar qo'yib, o'qtin-o'qtin u yer-bu yerdan bosh ko'tarib qoladigan qo'zg'olonchilarning qoldiqlari edi.

Shunday qilib, kimsasiz tog' bag'rida g'aribgina qabr paydo bo'ldi.

* * *

Oradan yillar o'tdi.

Ko'klam oyoqlagan kunlarning birida kunbotar yo'lida to'rt otliq paydo bo'ldi. Oldindagi odam kekxa, soch-soqoli qorday oqargan, saksonlardan oshgan nuroniy chol bo'lganidan otni qichab hayday olishmasdi. Mana, katta karvondan, uzilganlaridan beri boradigan yerlari qariyb yarim kunlik joy bo'lsa-da, ular hamon ot ustida ketishyapti. Qirq va o'ttiz yoshlardagi ikki yigit cholning shogirdlari chog'i, har to'xtaganlarida some' holda turib ustozlarining og'zini poylashadi. To'rtinchi yo'lovchi esa xizmatchi edi. O'zi mingan ot yonida ashqol-dashqol ortilgan yana bir otni yetaklagan xizmatchi har to'xtaganlarida chodir quradi. Nuroniy qariya chodirda dam oladi.

Yo'lovchilar kichikroq tepalikni oshib o'tdi. Birdan ularning ko'z o'ngida tep-tekis vodiy, vodiyning adog'ida esa uchqur qoyalari bo'rtib turgan baland tog' ko'rindi.

– Ana, hu ana shu yerga borishimiz kerak, – dedi birdan hayajonlanib ketgan chol qo'li bilan tog'ni ko'rsatib.

Shogirdlar ham, xizmatchi ham bu yerni birinchi marta ko'rib turishlari edi. Chunki ular bu yerlik emasdilar. Hech narsaga tushunmaganday bir-birlariga qarab yelka qisib qo'yishdi.

Chol yo'lni davom ettirdi.

Ular asta-sekin toqqa yaqin keldilar. Chol yurishdan to'xtab bir necha soniya atrofga olazarak boqdi. Keyin birdan yengil tortganday xitob qildi:

– Ana, ana u...

Chol keksaligini-da, yo'l ozorini-da unutib allaqachon tuprog'i cho'kib, tekislanib ketgan, ammo ustida dalva-dalva bo'lib ketgan tug' hilpirab turgan eski qabr tomon shitob yurdi. Shogirdlar unga ergashdi. Qabrdan sal narida tubsiz jarlik guvillab yotardi. Jarlikdan allaqanday qo'rqinchli va sovuq tovushlar eshitalardi.

Chol sakson yilning iztiroblari cho'kkan ko'zlarini qabrga tikkancha jim bo'lib qoldi.

– Bu yerda yaqin kishingiz yotibdimi? – deb so'radi shogirdlarning kattarog'i yurak yutib.

– Sizlar uni tanimaysiz ham, bilmaysiz ham. U bir yonib turgan o't edi!

Bo'ldi, boshqa bir og'iz ham gapirmadi bu haqda. Xizmatkor chodir tikkan edi. Shogirdlar cholni unga taklif qilishdi. Bir-ikki soatlik hordiqdan so'ng shogirdlarning ulug'i yana savolga tutdi:

– Bu yerda yana uch-to'rt kun bo'lamizmi, ustod?

– Sizlar ketaberasiz, men shu yerda qolaman, – dedi chol xotirjam ohangda, keyin xizmatkorga ishora qilib: – Haydar men bilan qoladi, – deb qo'shib qo'ydi.

– Ustoz!.. – ko'zining paxtasi chiqdi shogirdlarning. – Axir... buni aytmagandingiz-ku...

– Aytmagan bo'lsam, mana endi aytdim. Qolgan umrimni shu yerda o'tkazmoqchiman. Sizlarga oq yo'!

Tamom



Vohid LUQMON

1974-yili tug'ilgan. Samarqand davlat universitetining Jurnalistika yo'nalishini tamomlagan. Bir necha she'riy to'plamlari chop etilgan. Ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy mavzudagi publitsistik maqolalari bilan matbuotda qatnashib keladi.

O, yuztuban yotgan birodar –
Dunyolarga orqa o'girib.
Har nafasi jonga barobar,
Har jonidan ming bor o'rgilib –
Har lahzaning hisobin olgan,
Har lahzani qilgan tavoblar.
Har lahzadan bir umid qolgan,
Har lahzada minglab savoblar –
Ko'z o'ngidan o'tgan misli zar,
O, yuztuban yotgan birodar.
Agar bundan omon chiqsam, bas,
Odamdayin yashayman, Tangrim,
Olamdayin yashayman, Tangrim.
Ko'zlarida zarracha kir yo'q
Bolamdayin yashayman, Tangrim
O, yuztuban yotgan, birodar,
Ko'zyoshlaring tomadi chak-chak.
Bo'g'zingga havolar qadalar.
O, yuztuban yotgan, birodar,
Sog'ayganing bo'lsin muborak,
Unutilmasa bas va'dalar!

Samarqandga sog'ingan Sordek bo'zlab uchaman...



*Seni sevmay turib o'ldirma,
yorab!*

Xudoyim, tushimda o'qidim sano,
Ko'zyoshga yuz chayib, qildim tahorat.
Bir qavm e'zozladi – rahmati fano,
Mendayin osiyga bu ne saxovat?!

Bu tush ta'birida ne hikmat, Egam,
Axir qalbim mog'or, aqlim xarob-ku?
Sening yo'rig'ingga boshimni egmam,
Nozaninlar hamdam, do'stim sharob-ku?!

Axir bir maxluqman xudbin, xudparast,
Havoyi hayotim boshin silayman.
Bir bor cho'zmay turib o'zgalarga dast,
O'zgan sadoqat, sevgi tilayman.

Uloqib yuribman – oyoqlarim kir,
Ba'zan yomon, ba'zan xo'broqman, Tangrim.
Gunohkor bandangman kechirgin, kechir,
Poyingda bir chimdim tuproqman, Tangrim!

Ketishim kelganim kabi ayondir,
Uyg'onib, yig'ladim ortimga qarab.
Ishqing olovida azobla – yondir,
Seni sevmay turib o'ldirma, Yorab!

* * *

Shotutlar shovullaydi –
Tanasiga qon tomgan.
Momom oftobasidan
Tomiriga jon tomgan.

Shalabbo shamollardan
Barglariga yuqqan gard.
Ostiga to'kilgani
Shoquvonch emas – shodard.

Yillarning yildirimi
Adl qaddin dol etar.
Shotut oftoba tutgan
Momomga o'xshab ketar.

Shotut ham momom kabi
O'ttiz yilning bevasi.
U ham momomdek yolg'iz –
Bargidan ko'p mevasi.

Besh yil avval kech kuzak,
Besh chokim so'kilgandi.
Momom so'nggi yaproqdek
Tuproqqa to'kilgandi...

Qirq yilki duo qilar,
Momom duosi – irmoq.
"O'g'illaring o'tov qil,
Qizlaringni qil qishloq".

Samarqandga sog'ingan
Sordek bo'zlab uchaman.
Goho borib momomni
Goh shotutni quchaman.

Biri tushimda yo'qlar,
Birin duo dastida.
Yer ustida bir momom,
Bir momom yer ostida.

* * *

Neki bepul bo'lsa beqadr.
Neki arzon, demakki, beshon.
Sotiladi tap-taqir adir,
Pullanadi bir parcha nishon.

Narxi bordir kerakli toshning,
Tekin narsa tovonsizdir – tul.
Bir chaqaga olmay quyoshni,
Xalajoyga to'laydilar pul.

Shafaq bepul – qadrsiz, demak,
Oyga mengzab aldarlar yorni.
Sotiladi bir tishlam yemak,
Sotadilar hovuchlab orn.

Shamol tekin, bepuldir yellar,
Arzonbaho gullar ifori.
Beqadrdir o'tyotgan yillar,
Beqadrdir qushlar izhori.

She'r beqadr, shoirlik shonmas,
Lek bahosi baland navoning.
Sotiladi, desa ishonmas,
Narxi chiqarilgan havoning.

* * *

Mening ko'zyoshlarim qayga quyildi,
Singdimi Sirdaryo kabi qumtoshga?
Ming igna sanchdilar – qonim suyuldi,
Tomirlarim to'ldi ko'zyoshga.

Ovozim qayerga yo'qoldi, qani –
Bir bora ingrashga yetmaydi kuchim?
Xasta tovushlarim o'zimga g'anim,
"Ota" degan dodga to'ladir ichim.

To'ladim eng og'ir badal hayotga,
Bo'g'zimda turgan vaqt unsiz shoshirdi.
Mening nafasimni qaytargan Zotga
Otam nafasini topshirdi.

Taqdir sulhi yoxud *murosa ilmi*



**Sanobar
TO'LAGANOVA,**
filologiya fanlari doktori

1970-yili tug'ilgan.
Toshkent davlat
pedagogika institutining
O'zbek va qozoq
filologiyasi fakultetini
tamomlagan.
"Badiiy asar
morfologiyasi", "Abdulla
Qodiriy: shaxsiyat va ijod"
monografiyalari chop
etilgan.

O'tgan asrning 60-yillarida o'zbek nasrida bir qator iste'dodli yozuvchilar: O'lmas Umarbekov, Uchqun Nazarov, Temur Po'latov, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov adabiy avlodi bo'y ko'rsatdi. Bu avlod vakillari o'z ijodida olam va odamni yaxlit butunlik – yagona universum sifatida talqin etishib, o'zbek badiiy adabiyotidagi ruhiyat iqlimini yangilashga harakat qildi. Poetlik yondashuv va ifodadagi o'ziga xoslik, shakliyl yangilanishlar avlodning adabiyotdagi o'rnini belgiladi. Olamni qabul qilish, hayot haqiqatini badiiy idrok etish, murakkab ziddiyatlarini real tasvirlash yetakchi o'ringa chiqdi. O'zbek adabiyotda Shaxs konsepsiyasi markaziy muammolardan biri sifatida talqin etildi. Milliy adabiyotda badiiy-falsafiy ohang kuchayib, Inson shaxsiga murakkab ruhiy xilqat sifatida yondashilib,

uning qalb kechinmalarini yoritish alohida yo'nalish sifatida shakllandi.


O'zbek nasrida Shaxs konsepsiyasiga yetakchi muammo sifatida qarash O'tkir Hoshimov ijodida muhim o'rin tutadi. Yozuvchi ijodida insonga mukarram qilingan zot sifatida yondashuv, uni anglash, tushunish, alamlariga hamdard, ko'ngil yaralariga malham bo'lish istagi birlamchi ahamiyat kasb etadi. O'tkir Hoshimovning ijtimoiy tarjimai holidagi xalq bilan birdamlik ruhining ustuvor ekanligi, asarlarida milliy qadriyatlar tizimini o'ziga xos tarzda ifodalashga yo'l ochdi. Adib adabiyotga "sakkizinchi mo'jiza" sifatida qaraydi, ijodida esa millat ma'naviy hayoti va estetik didi masalasi muhim o'rin egallaydi. Dastlab, qissa janri bilan ijodini boshlagan adib keyinroq yirik janrdagi asarlarga ham qo'l uradi. Uning "Nur borki, soya bor" romani davrning ijtimoiy muammolariga bag'ishlanib, o'ziga xos xarakterlar talqini orqali og'riqli masalalar o'rtaga tashlandi.

"Ikki eshik orasi" (1986) romani adabiy jamoatchilik tomonidan yozuvchi badiiy yetukligining namunasi sifatida qabul qilinadi. Asar syujet va kompozitsiyasi hamda ko'tarilgan muammolar qamrovi va yondashuv uslubiga ko'ra milliy tafakkurdagi yangilanishni o'zida aks ettirgan badiiy

voqelikka aylandi. Yozuvchining “Cho’l havosi” asari haqida Abdulla Qahhor: “Asarining xat shaklida yozilishi ritmni buzadi, muallif tilidan olib borilsa bo’ladi”, deya tanbeh berganday bo’ladi. Ustoz adib ziyraklik bilan ilg’agan jihat, nazarimizda, yozuvchi uslubidagi o’ziga xoslik bo’lib, bu uning ijodida yetakchi ifoda tarziga aylandi. Bu esa O’.Hoshimov dastlabki asarini yozish jarayonidayoq shakl va mazmun ifodasini yangilashga uringanidan darak beradi. “Ikki eshik orasi” asari yuzasidan ko’pchilik olimlarimiz monografik ko’lamda tadqiqotlar olib borishgan bo’lib, aksariyat tadqiqotchilar romanning shakliy izlanishlariga e’tibor qaratishgan.

Roman strukturasi bayon uslubining o’ziga xosligi o’zbek nasrida butunlay yangilik sifatida qabul qilindi. Bayon ifodasidagi tartib, ketma-ketlik va uzviy bog’liqlik strukturaning murakkab tuzilmasidan darak beradi. Yozuvchi romanda qo’llagan uslub o’zining ohori bilan e’tiborni jalb etsa, ikkinchidan, har bir personajni jonli his qilishga imkon beradi. Har bir odam o’zi haqida so’zlaydi. O’z-o’zidan kelib chiqadiki, so’zi bor odamning nafasini ham his qilish mumkin. Birgina, Qora amma ichidagi odamchalarning ovozi nafaqat Muzaffar, balki asarni mutolaa qilayotgan o’quvchi ham eshitadi. Mana shu “eshitishda” yozuvchining mahorati mujassamdir. Shuni ta’kidlash lozimki, romanda hurlikka intilish, erkni qadrlash, adolatsizlikka va zulmga nisbatan kurash tuyg’usi birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Romanning kompozitsion qurilmasi tashqaridan qaraganda, Muzaffar Shomurodovning yo’l xotiralari va har bir personajning umr lavhalaridan iborat ko’rinsa-da, ammo yaxlit tizimga solingan konsepsiyaga asoslangan. Asar strukturasi shakliga mos o’ziga xos ifoda tarzi tanlanib, Muzaffarning hikoyasi qoliplovchi bayon tarzida shakllantirilgan. Asar to’qqiz personajning mustaqil, ammo mazmunan biri ikkinchisiga ehtiyoj sezuvchi hikoyalardan tashkil topgan. Bir o’rinda, Muzaffar otasining bozorda tasodifan soat sotmoqchi bo’lgan mo’ylorli kishini ko’rib, jazavaga tushishi, “so’yaman, o’ldiraman” deyishidan hayron bo’lgani aytiladi. Ma’lumot shu bilan tugaydi. Gap uziladi, davom etmaydi. Oradan



ancha vaqt o’tib Umar zakunchi hikoyasida chala qolgan hikoya davom ettiriladi. Voqealar ketma-ketligida bunday “tasodif”lar ko’p uchraydi, Yozuvchining mahorati shundaki, “tasodif” uning uchun poetik vosita, fikr ifodasidagi o’ziga xoslik. Shu bois adabiyotshunos Muhabbat Sharafuddinova mazkur roman “bayon strukturasi o’ziga xos “rebus”ga o’xshab shakllantirilgan” deb ta’kidlaydi.

Romanda ovozlari qo’shib yagona ovozga aylansa-da, ohangning turlichaligi e’tiborga loyiq jihatdir. Asar personajlari hikoyalarda ohang va nafas o’zgacha, har bir hikoya qiluvchining o’z ovozi bor. Eng muhimi ular yagona milliy ohangga jo’r bo’lganday, nazarimizda. Muhabbat Sharafuddinova o’z tadqiqotida mazkur asarni Lotin amerikalik yozuvchi Uilyam Folknerning “O’lar chog’imda”

(1930) romani bilan qiyoslab, bayon uslubi orasidagi mushtarak jihatlarni tahlil doirasiga tortgan. Nazarimizda, qoliplash san'ati mumtoz adabiyotimiz tarixida an'ana shaklida mavjud edi. Yozuvchining qoliplash usulidan foydalanishi uning imkoniyat doirasini kengaytirib, uslub va usuldagi o'ziga xosligini ta'minlaydi. Asar "Muqaddima yoki avvalgi bob" bilan boshlanadi, tugallanishi esa "Xotima yoki eng oxirgi bob" deyiladi. Bu asardagi qirq to'rt bobdan tashqarida, ochuvchi va tugallovchi bo'lak sanaladi. Shuning o'ziyoq, Muzaffar obrazining asar strukturasi salmog'ini ko'rsatadi.

Adib bunday ifoda usulidan foydalanish evaziga har bir inson qalbiga mo'ralashga yo'l topadi, uning o'ziga xos kemtiklariga nigoh tashlaydi. "Mo'ralash" usuli esa qahramonni, ya'ni xatolarga moyil insonni anglash uchun bir yo'l vazifasini bajargan. Muallif asarda xatolarning aybdorini qidirmaydi, balki uning ildizlariga nazar tashlab, inson qalbining tebranishlariga quloq tutadi. Aslida, asar qahramonlari emas, kechinmalar, nuqtayi nazarlar tilga kiradi. Har bir nuqtayi nazar roman konsepsiyasida alohida bir yo'nalish shaklida ifoda etiladi. Shuning uchun roman turfa qarashlar haqidagi asardir. Bu yozuvchi uslubidagi individuallikni ko'rsatadi.



Asar strukturasi monolog alohida o'rin egallaydi. Roman monologdan iboratmi yoki unda ichki dialoglar ham bormi? Nazarimizda, roman monolog shaklidagi dialoglardan iboratki, ya'ni butunning bo'laklari singaridir. Qahramon o'z kechmishi haqida o'zi hikoya qilgan ekan, albatta, o'zga tinglovchining nigohini his qiladi. Mana shu jarayonda dialogik munosabat yuzaga keladi. O'zi haqida so'zlayotgan qahramon o'z nutqini o'quvchiga qaratadi va havola qiladi. Demak, asarning navbatdagi badiiy xususiyati uning dialoglar tizmasidan iborat ekanligidir. Dialog hissiy muloqotlar shakli bo'lib, unda taqdirar tadbil qilinadi.

Asarda muallif yo'l xotiralarini o'ziga xos struktura asosida tartibga keltiradi. Har bir peronaj o'zi haqida shunchaki so'zlamaydi, balki har bir qahramon o'z xarakter mantig'idan kelib chiqib vaziyatga turlicha baho beradi. Ra'noning voqelikka baho berish orqali uning ma'naviy qiyofasi oydinlashadi. Bayon strukturasi bu taxlitda tartiblanishi talqinlar rang-barangligini yuzaga keltirgan. Romanning yana bir badiiy xislati u turfa talqinlar haqidagi asar ekanligidir.

Bayon strukturasi ahamiyat beradigan jihatlardan biri asardagi vaqt konsepsiyasining o'ziga xos tarzda hal etilishidir. Sababi, asar voqealari qirq yilga yaqin vaqt oralig'ida yuz beradi. O'tkir Hoshimov ijodiy konsepsiyasida vaqt, vaziyat, lahza kabi zamoniylar birliklar o'ziga xos poetik funksiyani bajaradi. Vaziyat talabiga ko'ra inson taqdiri kutilmagan yangi o'zanlar tomon burilishi mumkinligi asardagi qahramonlar hayoti va ularning taqdiri misolida ochib beriladi.

Asarda vaqt faqat zamoniylar ko'rsatishga xizmat qilmaydi, aksincha, makonda yuz bergan

voqelikni badiiy mantiq talabiga ko'ra yoritib beruvchi birlik vazifasini bajaradi. Bayon qilish maromiga ko'ra bir paytning o'zida voqelik o'tgan yoki hozirgi zamonga o'rni-o'rni bilan almashinib turadi. Birgina Muzaffar hikoyalarda vaqt turli ko'rinishda beriladi. Kichkintoy Muzaffar, birinchi sinf o'quvchisi, yettinchi sinf o'quvchisi, birinchi kurs studenti, uchinchi kurs studenti tarzida berilgan hikoyalarda makon va zamon badiiy mantiq talabiga ko'ra o'z ifodasini topadi. Roman konsepsiyasida Muzaffar obrazi qahramonlarni o'zaro bog'lovchi halqa vazifasini bajaradi. Shuni aytib o'tish joizki, har bir qahramonning o'z hayot yo'li, kechmishi, taqdiri bor. Ularning har biri mustaqil obraz sifatida mustaqil yo'nalishiga ega, tugun, kulminatsiya, yechim kabi poetik unsurlardan tashkil topgan.

Asardagi qahramonlar hayotida insonning taqdir bilan sulh tuzishini o'ziga xos falsafiy ko'lamda aks ettirib, undan yechim sifatida foydalanadi. Yechim bilan masala tugamaydi, balki navbatdagi yo'nalishga zamin bo'lib xizmat qiladi. Romanda buni dalillovchi epizodlar talaygina. Qora amma yolg'iz o'g'li sevgan Robiyaga bir kun kelib, o'zi sovchi bo'lib, ukasiga olib beradi yoxud Oqsoqol o'z kelini Zuhrani elning oldida mulla chaqirib, boshqa birovga nikohlab beradi. Mazkur epizodlar xalqning ich-ichidan, jon-jonidan tanlab olingan hayotiy lavhalar bo'lib romanga ruh bag'ishlaydi. Qahramon ruhiyatidagi tig'iz holatlarni yoritishda yozuvchi millatning qadriyatlar tizimiga, o'zbekona odatlarga, diniy ma'rifatga asoslanadi. Oqsoqol, Husan duma, Qora amma obrazining xarakteri mantig'ini yoritishda xalqning murosa ilmini qadrlashi va donoligiga tayanadi. Aslida, kengroq qaraganda, adib ijodiga milliylik tagzamin bo'lib xizmat qilgan.

“

Qahramon ruhiyatidagi tig'iz holatlarni yoritishda yozuvchi millatning qadriyatlar tizimiga, o'zbekona odatlarga, diniy ma'rifatga asoslanadi.



Taqdir bilan murosaga borish Shomurodning Robiya haqidagi hikoyasida yanayam yorqinroq ko'rinadi. Shomurod Robiyaning Kimsan akasini sevishini, hamon uni unutmaganini biladi, ammo ayab indamaydi, og'iz ochmaydi. O'z navbatida, Robiya ham Shomurodning ko'nglini biladi, ammo ichiga yutadi. Qora amma Robiyaning o'g'lidan ko'ngil uzmagani biladi, lekin sharoitga bo'ysunadi, murosa qiladi. Muzaffar ham onasi Ra'noni kechira olmaydi, ammo uni tushunishga, qabul qilishga o'zini majbur sanaydi. Ra'no tomonidan aytilgan "Taqdirga tan berish dononing ishi" jumlasini nafaqat o'ziga qaratilgan, boshqa qahamonlarga ham birday tegishlidir. Yana bir o'rinda, Ra'no Shomurod haqida "Ammo bolamdan judo qilgan, o'g'limning o'limiga sababchi bo'lgan anovi cho'loqni u dunyo-yu bu dunyo kechirmayman", deydi. Vaqtida bolasini tashlab ketgan ona tilidan aytilayotgan bu gaplar nimani anglatadi. Birinchidan, talqindagi turlichalikni ko'rsatsa, ikkinchidan, qahramonning

o'zini oshkor qilishi demakdir. Shomurod esa o'g'lini tashlab ketgan onani malomat qiladi, kechirmaydi. Bir voqeaga ikki xil munosabat, ikki xil nuqtayi nazar. Yoxud Robiyaning o'z to'yini hikoya qilib berishidagi ohangda qancha sir yashirin, bu aytilmay qolgan ko'p narsalarni va'da qiladi. Xuddi shu to'y voqeasi Muzaffar tilidan ham hikoya qilinadiki, bu adib badiiy imkoniyatlarining kengligini ko'rsatadi. Robiya va Muzaffar to'y voqeasiga turli rakursdan kelib yondashadi. Aynan mana shu yondashuv sabab bo'lib ruhiy holatlar va kechinmalar tilga kiradi. Adib qahramon haqida deyarli gaprimaydi, uni shunchaki malomat qilishni istamaydi, har qanday holatda ham tushunishni xohlaydi, izoh beradi. Butun jamoa Umar zakunchining zulmidan ozor chekkanda, Ra'no uni oqlaydi. Aslida, hayot shunday, har kim o'z o'lchami va dunyoqarashidan kelib chiqib vaziyatga baho beradi. Asarda ba'zi qahramonlar bayonda ishtirok etmaydi, balki ularning xarakterlari o'zgalar tilidan berilayotgan hikoyalar orqali ochiladi. Oqsoqol, Duma, Komil tabib, Olimjon, Parcha xola, Bashorat kabi yorqin obrazlar o'zgalar nigohi vositasida yoritib beriladi.

Romanning o'ziga xos jihatlaridan biri uning diniy-ma'rifiy tomoni bilan ham



“

“Aytish mumkinki, asarning egasi muallif emas, o'quvchi. O'quvchisi yo'q asar egasi tashlab ketilgan hovliga o'xshaydi”

bog'liqdir. Asarda yuz bergan fojialarning barchasining ildizi dindan uzoqlashuv, man etilgan narsalardan qaytmaslikka borib taqaladi. Diniy ma'rifatni bu tarzda ifoda etish ham yozuvchi uslubining o'ziga xosligini ta'minlagan. Yozuvchi asarlaridagi falsafiy ko'pqatlamlik, taqdiri “azal”ning hukmiga rozi bo'lish, omonatga xiyonat, halol-haromni farqlash kabi jihatlarining bir uchi diniy ma'rifatga borib taqalib, roman badiiyatini ta'minlagan omillardan biridir.

“Ikki eshik orasi” romani talqinlarga boyligi, taqdirlar va ko'ngillar sirlashuvi haqidagi asarlar sirasiga kiradi. Asar strukturasi bayonning ifoda shakli yozuvchi uslubini belgilashga xizmat qiladi. Bunday bayon usuli yozuvchining keyingi “Tushda kechgan umrlar” romanida ham davom ettirildi. Yozuvchi ijod masalasiga jiddiy yondashgan, har bir nafasda o'quvchining nigohini his qilgan. Uning publisistikasida bu jihatlar yanayam bo'rtib ko'rinadi. Shu o'rinda yozuvchining quyidagi so'zlari e'tiborimizni tortdi: “Aytish mumkinki, asarning egasi muallif emas, o'quvchi. O'quvchisi yo'q asar egasi tashlab ketilgan hovliga o'xshaydi”. Shunday ekan, adib asarlari millat ma'naviy xazinasiga aylanib ulgurgan, albatta, uning o'z egalari, adabiy vorislari bor. Egasi bor adabiy meros esa hech qachon izzsiz ketmaydi.



Shohista AMINOVA

1999-yili tug'ilgan.
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash instituti talabasi.

Atirgul

Qishning boshi, kuz so'ngida,
Sovuq xiyobondan o'tardim yurib,
Ko'zlarim yo'l chetiga nogoh tushdi-da,
Qarayman, bir atirgul turar ochilib.

Qorlar ostida-yu, ajib mo'jiza,
Sovuqda turardi tebranib sekin.
Najot kutardi u go'yo ohista,
Boshini egardi, ilojsiz lekin.

U nega o'xshardi? U nega timsol?!
Balki, adashgandir fasllarda ul,
Hayot yo'llarida adashgan misol,
Kechikkan "sevgiga" o'xshar edi ul.



Yoqutoy NASRULLAYEVA

Buxoro viloyati Kogon shahrida tug'ilgan.
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti talabasi.

Vatan sog'inchi

Vatandan olisda yurmoqlik azob,
Vatanni sog'inib o'tmoqlik azob.
Vatan qadrin bilmay o'zga yurtlarda
Musofirlik dardini tuymoqlik azob.

Begona insonlar yonida yurib,
Yaqining yo'lga intizor bo'lib,
Yasharsan ko'zlaring yoshlarga to'lib,
Mehrqa zor bo'lib, yurmoqlik azob.

Vatandir, tanangda oqib turgan qon,
Vatandir, joningga bo'lguvchi qalqon.
Vataning qalbingni etar charog'on,
Vatandan olisda yurmoqlik azob.



Boybovaning bolalari

Hikoya



**Shavkat
DO'STMUHAMMAD**

1996-yili tug'ilgan.
O'zbekiston davlat san'at
va madaniyat instituti
magistranti. Respublika yosh
ijodkorlarining Zomin seminari
ishtirokchisi. O'zbekiston
Yozuvchilar uyushmasi
tavsiyasi bilan "Birinchi
kitobim" ruknida "Koinot
himoyachisi" ssenariy va
pyesalar to'plami nashr
etilgan.

Qishlog'imiz mol yetishtirish bilan nom chiqardi.
Men esa qassobman.

O'limdan go'zallik qidiraman. Ayniqsa, kuchbermas novvosning boshini yerga xam qilib, tortib shoxidan bog'lab...

Oldingi oyoqlarini birlashtirib chandib, orqa oyog'ining narigisidan arqon o'tkazib, biqinidan itara solib arqonni tortib yiqitganim jonliqning alamzada alpozidan...

Dumini orqa oyoqlari orasidan o'tkazib mahkam tortganimda qimirlay olmay qolishidan, epchillik bilan to'rt oyog'ini chiyganimda alamli ixrashidan...

Shor ho'kizning poyimda tipirchilab, iltijoli tikilayotgan yoshli ko'zlaridan axtaraman go'zallikni.

Har gal shu joyiga kelganda o'zimni to'xtatolmay qolaman. Bo'g'izga pichoq iyzashni boshlashim bilan negadir ko'zimdan yosh chiqib ketadi. O'pkamni bosolmay, och bo'riday tashlanaman...

O'limoldi hirqirayotgan molning butun joni jam bo'lgan o'tkir ifodali qontalash ko'zidan nafosat izlayman.

Qidirganim bo'g'izdan sachragan qonning dimog'ni achituvchi o'tkir isidami yoki xom go'shtning ko'ngilni aynituvchi nimxush hididami, bilolmayman.

Har gal og'ilga kirib, masiqib yotgan, shoriqib taysallayotgan molning bo'liq uchasiga shapatilarkanman, istehzo bilan bir otim kulib qo'yaman:

"Ha-j-j-jonivor!"

* * *

O'qishga topshirmoqchi bo'lganimni eshitib, boybovam na jilmayishni, na jinikishni bildi. G'aniqulday bebiliska qassobni qaydan topadi yana! Aytgancha, boybovam deganim – o'z bobomning ukasi.

Boybovamdanda yo'lkiraga pul so'rab bordim. Yuz ming. Odoqda qo'y boqib yurgan ekan, yugurib-chopib qo'yalarini qaytarib keldim. Xushomad uchunmas, azbaroyi ichimga sig'maganimdan. Keyin oldin-ketin bo'lib uyiga yaqinlashdik. Boybovam yerto'laga tushib ketdi. Men so'rida kutdim: bir o'tirib, bir turib. Ko'zim nimani ilg'asa, fikrsiz bir holda beixtiyor ushlab ko'raman, qaytarib joyiga qo'yaman, yana qo'limga olaman. Shundoq

so'ring burchagida gazeta qog'oziga o'ralgan urug'ni ham shu ko'yi qo'lga oldim. Aylantirib gazetadagi yozuvni o'qirkanman, ichimga o't tushdi! Ko'z uzolmay hijjalagancha qoldim...

– Otang qachon kelarkan, G'aniqul? – cho'chitib yubordi boybovam.

– Ertadan keyin... Kelishi bilan qaytaradi. Telefon qildi, – dedim kalovlanib.

– Joyi bor-da, nevara, joyi bor, bo'masa yuz minglar nima...

Men pulni olib, og'ir qadam bilan ortimga qaytdim. Boybovam so'ri chetiga to'kib qo'yilgan tarvuz urug'lariga hayron bo'lib qaragancha qoldi.


* * *

1920-yillari bir guruh umidli talabalar Turkistondan Olmoniyaga o'qishga yuboriladi. Ko'zi mushtday ochilgan uyg'oq avlod vakillari vatanga qaytgach, bitta-bitta terib so'roq qilishadi: qamashadi, qiynashadi, otishadi, yo'q qilishadi, xullas, xalqning ko'zini qo'rqitib, ilmga otlangan yo'lini paxtaga qarata burib qo'yishadi...

Gazetada taxminan shular haqda yozilgandi.

O'qishga topshirgach, ijara uy sargardonligi kunlarida bir istak ichimni yondirdi: men ham bobomni gazetaga yozsammi-kan? Boybovammam, bobomning bobosi – bobokalonim haqida yarim qog'oz maqola... avlosi, hi-koya bitsam.

“Ey oshna, – deyman xonadoshlarga, – bir go'zal hikoya bo'lsinki, o'qiganda ilmiliq suvdek mayin yutilsin jum-lalari. O'quvchi bechora qo'lga kamera ko'tarib, voqealar ichiga kirib ketsin-u, qay tomonini tasvirga olishni bilmay halak chopsin. Jumlar o'quvchining oyoq-qo'lini chandib tashlagani-ni sezmay ham qolsin. Yakuniga kelganda bor hayajoni nigohida jam bo'lsin, iltijoli boqsin qon-talash ko'zlari. So'nggi misralar bo'g'ziga pichoq bo'lib tortilsin! Dimog'ni achitib namtoq qon



hidi anqisin! Ko'ngilni aynitib xom go'sht isi tutib ketsin. Dod, desin o'qib bo'lib! Nega bunday bo'ldi, desin! O'rnidan turolmay qolsin bir muddat...

Buxoro madrasasida tahsil ko'rib, mudarrislik qilib, so'ng Xo'jamulkiga qaytsin bobomiz hikoyamda. Ikki otni mayib qilib kitob ortib kelsin. Vohada ehtiromlar bilan kutib olishsin uni. Masjidga imom qilib saylashsin faxr bilan. Ergash mahsido'zning qizi Oynovot momomizning xabarini eshitsin xudojo'y ekan deb. Uylansin ilm talabida turmushdan kechikkani sira ko'ngliga kelmay o'ttiz uch yoshida bobomiz. Yetti farzand ko'rsin biri biridan shirin va zukko. Ayniqsa, ikkinchi o'g'liga ko'p mehri tushsin. Tarixga qiziqirtsin, hisob ilmidan saboq bersin ikkinchi o'g'ilga.

Buxoro xotiralarini yoza boshlasin bobomiz quvvai hofiza bilan.

U ijod qilib o'tirgan xonaga choy damlab kelsin momomiz qalb qo'rida qaynatib. Piyolaga quyilgan choyni qo'liga olarkan, barmog'iga tegib qo'ysin momomizning. Qizarib-uyalib ketsin yetti bolani shu kishidan dunyoga keltirgan momomiz xuddi bobomizni endi ko'rayotganday iymaniyib, balog'atga yetgan qizdek o'tli jilmayib.

Bobomiz ichini yondirsin xeshlari-yu eshlarining. Falonchining uyini so'rasangiz, Lutfidan yo Mashrabdan bayt o'qib, keyin javob beradigan bo'lsin zamonamiz, deb xayol qilsin bobomiz.

Yozilib bitsin madrasa haqidagi xotira-kitob, tahrir qilina boshlasin ustidan qayta va qayta. Necha-necha quti shamlar yonib tugasin bu orada, qancha-qancha choylar ichilib ketsin momomizning barmog'i chertib uzatilgan piyolalarda.

Keyin birdan qandaydir muzday hovur ufursin "Biz toza havomiz dimiqqan muhitinga", degan da'vo bilan. Qushlar uchib ketsin issiq o'lkalar ilinjida. Daraxtlar afsus cheksin qanoti bo'lmagani uchun. Kuzak misoli sarg'ayib qovjirasin barglar ayni bahor mahalida shu iztirob bilan. Pokiza tabiatni ko'rib bo'lmay

qolsin tuman ko'zdan g'oyib qilib bor nafosatni. Choy quyib uzatilgan piyolalar baxtdan sarmast bo'lib chertilish o'rniga kelajak xavotirida qaltirasin. To'kilsin nihoyat o'n ikki bor qayta ko'chirilib taxt holga keltirilgan Buxoro madrasalari haqidagi xotira-kitob ustiga. Boshi xam, oyoqlari chandilib iltijoli termilgan jonivorning bo'g'ziga tortilgan pichoqdan sachragan qonday shuvalib ketsin kitobning siyohlari, yozuvlari. Tahlika borgan sari bosib kelsin tumanday, hech qo'ymasini ko'z ochishga. Baliq suv loyqalatib tutiladi qabilida kechsini el orasidagi vahmalar..."

* * *

Qarasam, bobom haqida o'ylayotganlarim piyozning po'stidedekkina kitob bo'ladiganday. Burga tutmoqqa ham barmoq ho'llamoq kerak. Ichim qizib, surishtirib xususiy nashriyot topdim.

Bosh muharrirning xonasiga taqillatmasdan kirib qo'yibman, u xijolat chekdi-yu, dashnom bermadi. Qora suvqog'ozdagi obinondan uzib, choyga bosib yeb o'tirgan ekan, kutilmagan mehmonning to'pori vajohatini ko'rib og'zidagini chaynamay yutib yubora qoldi.

– Kitob chiqarmoqchi edim, – dedim salom-alikdan keyin.

– Shunday demaysizmi, uka. She'r yoza-sizmi?

– Yo'q, xotira-kitob.

Bosh muharrir hayron bo'lib qarab olib, so'ng jilmaydi.

– E, yashang! Yoshlarimiz xotira kitoblari yozishyapti, mana bu – juda yaxshi. To'g'ri-da, sizning hayot yo'lingiz yoshi ulug'larga o'rnak bo'lishi kerak-ku.

– Muharrirlarni jiddiy odam bo'ladi deb o'ylardim, – dedim ko'ziga qattiq qarab.

– Maynavozchilikni siz boshlayapsiz, uka.

– Bobom haqida kitob chiqarmoqchiman.

– Ega-kesimini joyiga qo'yib gapirish kerak-da. Muqovasi qanaqa bo'ladi?

– Qog'oz.

- Qattiqmi, yumshoqmi, deb so‘rayapman.
- Qattiq.
- Necha sahifa?
- Ikki yuz.
- Qani, ko‘raylik-chi.
- Hali yozganim yo‘q.

Muharrir kutilmagan javobdan ajablanib, ko‘zoynak ostidan ding etib qaradi.

– Aytdim-ku, maynavozchilikni siz boshlayapsiz, uka. Avval yoz uni, tahrir qil, ustozlarga ko‘rsat, – sensirashga o‘tdi muharrir.

– Bir o‘tirsam, yozib tashlayman, sezib turibman. Necha dona chiqarib berasizlar?

– Pulingizga qarab-da, uka, – mijoz bilan gaplashayotgani esiga tushib, yana sizlay boshladi u.

– Hali pul ham beramanmi?

Muharrirning qay ahvolga tushganini bilmadim-u, men tahririyatdan hafsalam pir bo‘lib chiqdim.

* * *

O‘qishga hujjat topshirib, shahardan avtobusda qishloqqa qaytdim. Axir shuncha mol kutyapti masiqib.

Yo‘lda xayolga erk berdim, tasavvur olib ketdi bobokalonim yashagan zamonlarga. Do‘mbirasi bo‘lsin bobomning: ixchamgina, rangi qora, po‘pagi bor. Chalib bersin jujuqlariga. Xirgoyi qilsin chohdagi Alpomishning avholidan. “Oynovot, – desin so‘ng narigi xonaga o‘tib, – qaytmasam, bolalar senga omonat, bu sovuq ko‘zli quzg‘unlar halovat beradiganga o‘xshamaydi, Oynovot”, – desin bobomiz kitoblarini yig‘ishtirarkan. Hadislarni solsin otning xurjuniga, devonlarni joylasin, risolalarni taxlasin, qo‘lyozmalarni olsin, yana ikki otni mayib qilib qayergadir olib borib berkitmoqchi bo‘lsin xuddi jinoyatchini yashirayotganday. Qo‘shnisi kirib kelsin shu payt ko‘zlarini olaytirib. “Savoding bor, siyosatimizga o‘t, joning omon qoladi, – desin lo‘langlab qo‘shni.

– Yo‘qsa, terisidan paytava o‘raydilar manavi norasida go‘daklarning, tillarini kesib etik moylaydilar, ko‘z soqqalariga tishlarini sug‘urib, otib o‘ynaydilar kerak bo‘lsa”, – deb o‘n yashar ikkinchi o‘g‘ilning o‘takasini yorib siltalasin. Bola eshitganini ko‘z oldiga keltirib, qotib qolsin dahshatdan. Yig‘lay boshlasin nihoyat sassiz. Chidab turolmasin ori portillab bobomiz, qan-shariga musht tushirsin befahmning. Ichkariga olib kirsin hapiqib sirqirayotgan norasidani, piyolaga suv quyib, qozonning qorasidan tirnab olib ichirsin shoshib.

“Hali ko‘rasan, – desin zo‘rg‘a o‘ziga kelgan qo‘shni hovlidan chiqib ketar chog‘, – men hukumat odamiman, sen hukumatning yuziga oyoq qo‘yding!”

“Hali oyoq qo‘ymadim, maraz, shappat tortdim, – desin bobomiz g‘azabga minib, – daf bo‘lmasang, oyoq ham qo‘yaman!”

“Tuyani shamol uchirsa – echkini osmonda ko‘r!”

“Itning duosi ijobat bo‘lganda – osmondan suyak yog‘ardi!”

“Sichqonning o‘lgisi kelsa, mushuk bilan o‘ynashadi!”

“O‘zingdan balandga tupurma, qaytib basharangga tushadi!”

Bozorda qo‘lga olishsin...

Qo‘shni yetaklab kelgan ikki mirshab qo‘ltiqlab ketsin kitoblarni bekitib qaytayotgan valine‘matni. Uyasi buzilgan qaldirg‘ochday chirqillab qolsin baxtiyor bir oila. Olib ketishar chog‘i tashvishga tushmasin taqdir Yaratgandan ekaniga iymon keltirgan bobokalonimiz.

Shularni o‘ylab yotib, uxlab qolibman. G‘alati tush ko‘rdim. Meni surgunga olib ketishmoqchimish. Bormayman desam, otib tashlashibdi.

Endi terimizdan paytava o'raydimi, degan hadik tug'ishganiday ergashib yuraversin ikkinchi o'g'ilga – bobomizga...

* * *

Qishloqqa kirib kelyapman-u, atrofga ajablanib tikilaman: shaharning bahaybat ko'pqa-vatli binolariga o'rganib qolgan ko'zim bu pastqam boboki uylarga hech ko'nikolmayapti. Xuddi qavmidan olim chiqmaydigan pakana hobbitlarning ertakona uychariday tumaloq-tumaloq, mitti-mitti, erish-erish.

Bu ovulda o'sha ta'sirchan ikkinchi o'g'ildan tarqagan yetti aka-uka yashaydi. Bobosining fojiasidan keyin hech biri ilm yo'liga kirmadi.

Bobokalonimiz haqida kitob yozmoqchi bo'lganimni eshitib, bari girdikapalak: kolxoz hisobchisi ekanida uch so'm poradan ikki so'mini qaytarib bergani-yu o'rislar yurtida haqiqiy samolyotga chiqqanini bir burchiga ildirib o'tishim ilinjida. Maqtanish bo'lsa qulog'ingni yirtadigan boybovamiz shunga kelganda kamtarlik qildi. Kitob haqida og'iz ham ochmadi.

Yettovidan bir so'mdan yig'ib, yetti so'mni olib borib muharrirning og'ziga urmoqchiman. Men yozajak kitobning boshidan suv aylantirib ichsang arziydi-yu, sen pul so'raysan. Hali qo'lma-qo'l bo'lsin, hammangning ko'kayingni kesaman...

Nashriyotdagi birinchi qarshilikdayoq hali yozilmagan kitobim uchun qayg'urdim. Ulug' bobokalonim qo'lyozmalarini kitoblarga qo'shib qayergadir yashirib kelarkan, ko'ngli qanchalik o'rtangan ekan-a? O'lis Sibirning oltmish daraja sovuq Magadan o'lkasiga surgunlar safida ketar chog' sovuq ko'proq zirqiratganmikan yo chala qolgan bitiklar armoni?

* * *

Shularni o'ylab yotib, uxlab qolibman. G'alati tush ko'rdim. Meni surgunga olib ketishmoqchimish. Bormayman desam, otib

tashlashibdi. Qon silqiyotgan biqinimni chagallab, so'ng to'rt oyoqlab cho'kkalab tursam, kimdir ijrochilar bilan gaplashib, meni surgundan olib qolibdi. Keyin yelkamga do'stona qo'l tashlab, yerga tiralgan ikki bilagimni mahkam bog'labdi. Narigi oyog'imdan ip o'tkazibdi. Keyin biqinimga tepa solib ipni tortib yiqitibdi va qo'l-oyog'imni birlashtirib chandib bog'labdi. Buning hazil emasligini bo'g'zimga yaraqlagan olmosdek pichoq yaqinlashganda sezibman. Na do'stligini, na dushmanligini anglab bo'ladigan bu mavjudotning kim ekanini bilish uchun amallab boshimni ko'tarib qarabman. Ne ko'z bilan ko'rayki, ko'zlari qontalash, iltijoli nigoh ila o'zim bo'g'izlagan o'sha qoramol pichoq yaraqlatib turibdi tepamda. Xayolimga kelgan fikrdan o'zim tashvishga tushyapman: axir mol bilan murosaga kelib bo'lmaydi-ku, axir mol meni tushunmaydi-ku!

So'z uqdirib bo'lmasligini anglab, sil-sil yig'larmishman. Sim-sim, ho'ng-ho'ng, hiq-hiq...

Dimog'ni achishtiradigan qon va ko'ngilni aynitadigan xom go'shtning anqigan qo'lansa hididan uyg'onib ketdim.

* * *

Boybovamnikiga borganimda kun terak bo'yi ko'tarilgan, boybovam "Alpomish"ni qo'yvolib, echki qilini qirqardi. Shartta qo'lidan qirliqni olib, ishga unnab ketdim. Xushomad uchunmas, azbaroyi kitob chiqarishning shavqi bilan.

Boybovam saxiy. Uch so'm so'rasang, to'rt so'm qilib beradi. O'zimda tursa ishlatib qo'yaman, deb kamtarlik ham qiladi. Qolganlardan qanday pul olishni rejalayapman, lekin boybovam haqida o'ylaganim ham yo'q. O'lib ketgan ota-onasiga hajga bordi degan qog'oz sotib olib bergan odam bobosi haqidagi kitob uchun joni ham qo'shib berrorar...

– Qishloqning keksalaridan surishtirib yuribman, qiziq gap eshitsam, ildirib o'taman kitobga, – dedim qirliqni sharaqlatib.

– Ha, yaxshi-da. Bo'ynida qop ketyapti, tozalab ol, qoldirma.

– Bir shogirdi bor ekan deb eshitdim. Bolalarining daragini surishtiryapman.

– Kallasini bos ukkag'arning, gapniyam gapir, ishniyam qil-da.

– Bobomni "sotgan" qo'shnisi bor-ku, ular uch kishi bo'lgan. Ikkitasi xor-zorlikda o'lgan. Uchinchisi og'ir kasal bo'lib, bolalari qaramay, necha yillab yotib qolgan ekan.

– Chotanida qil qoldirma, G'aniqul, xunuk ko'rinadi.

Boybovamdan endi g'ashim kela boshladi.

– Bobomiz kitoblarni qayerga bekitganini Oynovot momomizga aytib ulgurgan ekan. Momomiz izlagan, qarib qolgani uchun eslolmagan. Alami kelib rosa yig'lagan. Agar men qidirib topsam, bilasizmi nima bo'ladi...

– Terisini qirqib olding! Ko'zingga qara! Qumaloq bos, qon to'xtaydi!

Ichim toshib ketsayam gapni qisqa qilishga majbur bo'ldim.

– Shunga... nashriyotga borsam, bir-ikki so'm pul ketadi, deyishdi.

– Kallasini bos, tipirchilamasin... E, nevara, toz-za boshimni qotirding. Qanday nashriyot, qanday kitob, qanday pul? Kitobingni ochib qaraymanmi yo'qmi, yotadi bir burchakda. Hozir itam kitob o'qimaydi. Qo'y, bo'ladigan ish qil.

Ko'z oldimga qoraqurum moy to'kilib, varaqlari orasiga singib borayotgan o'z kitobim keldi. Qulog'im yoqimsiz chiyillab, ko'nglim ayniy boshladi. Yuvindisifat moy "...bobomiz" degan yozuv uzra shilimshiq bo'lib oqib borayotganday... moyjummoq tarvuz po'choqlari hilviroq muqova uzra sirg'alayotganday... kundaga qo'yilgan kitob ustida chivin bosgan xom go'sht chavaqlanayotganday... bari juda-juda sekin, lahzama-lahza sodir bo'layotganday... o'qchib yuborayozdim.

Ayniqsa, oxirgi gapi shaytoniy ohangda buralib-buralib eshilib, qulog'imni qo'rg'oshinday eritib yubordi:

– Zotimizdan o'qigan chiqmab edi, sen go'r bo'larmiding!..

Bir zum portlab ketganim esimda-yu, nima

bo'lganini sezmay qoldim. Dimog'ni achishtiruvchi badbo'y qon hididan o'zimga keldim. O'pkam to'lib ketgan, tez-tez nafas olyapman, o'zimni bosolmayapman, qovoqlarim mushtday tugilib, tishlarim g'azabdan qattiq birikkan: sinib ketay deydi, ustimga qon sachragan, qo'limda qonyuqi qirliq. Boybovam ingrab yotibdi...

Bobokalonim g'azabni qanday yenggan ekan-a? Nohaqlik ustiga adolatsizlik yopirilib kelarkan, alamini kimdan olgan bo'lsa? Devorni mushtlaganmi? Qichqirganmi kimsasiz sovuq o'rmonning halovatini buzib? Eshiklarni tepganmi yoki? Sindirganmi qo'liga ilashgan matohni? Taqdirga ko'nish buncha og'ir! Qayerdan topgan bobokalonim shuncha matonatni?!

– Tur, yo'qol, ko'zingma ko'rinma, mol! Fe'ling qursin, ukkag'ar! Molni shuytganing uchun uyingda chichqoq ulog'ing ham yo'q! Peshonangga bitmaydiyam, quyonchiq!..

Boybovam qirliqni qo'limdan tortib oldi. Shapaloqdan ko'z oldim qorong'ilashib ketdi. O'zimga kelib qaraganimda boybovam muk tushgancha echkinging qon otilyotgan bo'g'ziga kaftini bosib turardi: "He go'rso'xta! Mol ko'rma-gan juvonmarg!"

Poyimda bo'g'zidan qon sachrab xirillab yotgan sho'rlikka pishqirgancha termilarkanman, xayolimni bir o'y chaqmoqdek urib o'tdi: "O'limda hech qanday go'zallik yo'q..."

Uyga kelib cherdakka chiqdim. Bobokalonimdan qolgan qora do'mbirani qidirib topdim. Chohda yotgan Alpomishning avholi chertib xirgoyi qilingan o'sha do'mbirani qo'limga oldim. Po'paklarini po'rtanak bosibdi, torlari chirib uzilibdi, yog'ochiga chakka tushib, namiqib ketibdi. Do'mbirani mahkam quchoqladim, o'pkam to'lib, yelkam silkindi. Yana qattiqroq bag'rimga bosdim... qarsillab sindi... Qovurg'am sinib, yuragimga botib ketganday ixranib yerga yiqildim. Dimog'imga mol bo'g'zidan sachrayotgan qo'lan-sa qon isi, aynigan xom go'shtning ko'ngilni aynituvchi hidi urildi.

Qopqondagi bo'riday, ha, aynan bo'riday uvlab yubordim: "Boybova-a-a!.."



Suvon MELI,
filologiya fanlari doktori

Yaratganning *nuridir ilm*

Shavkat Do'st Muhammadning
"Boybovaning bolalari" hikoyasini o'qib...

*I*lm hammaga ham nasib qilavermaydi. U Yaratgan tasarrufidagi bir nur bo'lib, asrlar g'uborida ko'milganda ham bir kun kelib muttasil o'zini namoyon etadi. Mazkur hikoya boybobolarning bo'g'iqlik muhitida unitilayozgan ilmning G'aniqulday qassob chevara qalbida yana nish urishi haqidadir. Buxoro madrasasida tahsil olib, mudarrislik qilib, qishlog'iga ikki otni mayib qilib, kitob ortib kelgan bobokalon shunday ilmning shonli timsolidir.

Ustozimiz, asli Surxondaryoning Chegara nomli qishlog'idan bo'lgan Meli Xolyorning "Jalldo gunohkorni so'yadi, qassob begunohni" degan aforizmi bo'lardi. Hikoya "men", ya'ni G'aniqul tilida "ijro" etiladi, u ham asar qahramoni, ham hikoyachi, roviy. Gap shundaki, asar boshida biz uni bir qiyofada, oxirida boshqa bir qiyofada ko'ramiz. Hikoya shunday boshlanadi:

"Qishlog'imiz mol yetishtirish bo'yicha nom chiqardi.

Men esa qassobman".

Bu yerdagi ikki tayanch so'z, mol va qassob asar oxiriga kelib ramzlashadi, ayniqsa, "mol". Va yana "qassob" ham. Odatda, qassob molni so'yadi, uning kasb-kori shunday.

Hikoya yuqorida oydinlashganidek, "men" tilidan bayon qilinar ekan, unda yosh qalbga singib borayotgan qassobiy shuur – "Shor ho'kizning poyimda tipirchilab, iltijoli tikilayotgan yoshli ko'zlaridan axtaraman go'zallikni", – deyarli butun hikoya davomida yetakchilik qiladi. Oxiriga kelibgina bunday patologik sezgidan qutuladi, qutulganday bo'ladi bosh qahramon. Qalbida uyg'onib, e'zozlab bir ilmi mollarcha bepsandlik bilan haqorat qilinganda – "Poyimda bo'g'zidan qon sachrab xirillab yotgan sho'rlikka pishqir-gancha termilarkanman, xayolimda bir o'y chaqmoqdek bo'lib o'tdi: "O'limda hech qanday go'zallik yo'q" (tasvirlar bizniki – S.M.)

Asarning badiiy vujudini ushbu oraliqda, mollilik va qassoblikni tark etib, ulug' Bobokalon ma'naviy olami tomon siljish tarzida barpo bo'ladi.

Sezib turibman, agar fikriy yo'nalish shu tarzda ketadigan bo'lsa, hikoyadan kattaroq bir maqola paydo bo'lishi tayin. Asar shunga arziydi ham. Lekin gapni qisqa qiladigan bo'lsak, hikoyada uch tayanch qahramon bor – G'aniqul, uning amakisi – bobosi Boybova, bobosining otasi (bir yerda "bobomning bobosi" deyilgandi, bu mazmunga mos kelmaydi). Yaratgan ilm yuqtirgan ulug' Bobokalon. Lekin hikoyaning ma'naviy-ruhoniyligi markazi esa – ulug' Bobokalonidir. Agar avlod vakillaridan kimgadir shu ulug' zotdan nimadir o'tgan bo'lsa, bu G'aniquldir. Lekin u ham dam u tomon, dam bu tomon chayqalib

turadi. Chayqalishda ulug' Bobokalon ruhi g'olib keladi. Shunday bo'lmaganda hikoya yozilmasdi, uning hozirgi ruhoniyligini quvvati bu qadarli bo'lmasdi ham.

Yosh adib uslubiy rang-baranglikni o'rinli ishlatadi. Bir yerda hayotiy-ramziy manzaralar yaratasa, bir joyda oddiy bayon uslubini (bu ham tejamli bayon) qo'llaydi. Bir joyda esa buyruq-istak mayli (-sin) ishtirokida ohorli tasvir yaratadi. Tush motivi ham umumiy g'oyaga uzukka ko'z qo'ygandek mos tushadi.

Tasavvur haqidagi kitobda yozilishi-cha, "Ramzlar – narsalar tabiatida yashiringan mavjudlikdir" (*Лале Бахмуёр, Суфий: образы мистического поиска*). Hikoyada aksar o'rinlarda muayyan so'z va tasavvurlar o'z voqeyiy mazmunini pishirgan holda, ramzlashadi. Bu yosh muallifning badiiy tasvirlaridan dalolat.

Ayrim tahrirtalab o'rinlar hikoyada tasvir va voqealar uch yulduz (***) bilan ajratilgan. Bu, nazarimda, yalpi tasavvurni tarqoqlashtiradi. Ular o'rniga raqam qo'ygan ma'qul. Hikoya oxiridagi "cherdak" so'zi o'rniga asli o'zimizniki bo'lgan "Chordoq"ni qo'llash lozim. So'nggi gapdagi "aynan" so'zi asar uslubini buzmoqda, uni olib tashlash yoki uning oldidagi "ha"ni ikkilantirmoq ("ha-ha") kerak bo'ladi.

Yana bir mulohaza. Mazkur hikoya yirik bir asar, balki epopeyalik ilm chizmalariga o'xshaydi. Yosh adibda shunga loyiq potensial bor, nazarimda.

Asar sarlavhasidagi Boybova bolalari bir kun kelib, ulug' Bobokalon bolalariga aylanishiga umid tug'iladi. Hadeb mol-mulk deb yashash Tangri mo'jizasi bo'lmish inson uchun nojoiz-ku, axir.

Xulosa qilib aytganda, nisbatan kichik maydonda shuncha ma'no va mazmun jamlagan yosh adibga balli!



Bobo RAVSHAN

Ulkan soyalar haqida *g'amgin qo'shiq*

"Boybovaning bolalari" hikoyasi yozuvchining dardi, iztirobidir. Yutuq – hikoya deyishga sabab shuki, muallif bu dardni o'quvchiga yuqtira olgan. Hikoya qahramoni, G'aniqul iborasi bilan aytganda, bir go'zal hikoya bo'lganki, o'qiganda jumalari ilmiliq suvdek mayin yutiladi. Muallif bo'yidan baland sakrashga urinmaydi, hikoya qanday quyilib kelgan bo'lsa, shundoqligicha qog'ozga tushirgan-u, so'ng tishga botar so'zlar ustida obdon ishlagan. Buni biroz sinchkov o'quvchi tez fahmlab, gap tuzishdagi shoirona usul orasidan gohida bo'y ko'rsatadigan maqolaga xos jumalarga ko'z yumadi. Sababki, hikoyani o'qib bo'lgach kishi bilmas iztirob dilini o'rtaydi, bo'g'ziga yig'i tiqiladi.

O'quvchi hikoyaning avvalida qahramon tilidan aytilgan: "O'limdan go'zallik qidiraman", degan gapdan boshlab, asta-sekin G'aniqulga aylana boshlaydi. Nihoyada esa G'aniqul emas, o'quvchi qora do'mbirani bag'riga bosib sindiradi, oh tortadi.

Shavkat Do'stmuhammadning
"Boybovaning bolalari" hikoyasini o'qib...

Nazarimda, hikoyadagi qora do'mbira haqida alohida to'xtalish joiz. Biz ko'pincha "qora" deganda rangni tushunamiz. Katta ehtimol bilan muallif ham bu yerda faqat rangni nazarda tutgan. Chunki do'mbiraning og'ochiga ko'pincha yog' suriladi, yillar o'tib u qizg'ish tusdan qoramtil bo'yoqqa aylanib boradi. G'aniqulning bobosidan qolgan va avlodlari unutgan do'mbira yillar o'tib iztirobdan tusi o'zgargan. Lekin qora emas! Hikoyadagi "qora" so'zi katta degan ma'noga xizmat qiladi. Zero, u "Alpomish"dagi to'qson botmonlik kamunday butun bir elga tegishli do'mbira. Uni chalish G'aniqulning ham, qishloqdoshlarining ham qo'lidan kelmaydi. Buning uchun Alpomishdan kam bo'lmagan pahlavon, nolasi yurakni o'rtaydigan baxshi-shoir kerak. G'aniqul tengi bizning avlod esa endigina o'zini izlashga chog'lanmoqda. Alplik maqomigacha ancha yo'l bor!

Darhaqiqat, G'aniqul arosatdagi avlod, u o'tmishni gazet-jurnallardan o'qib bilgan. Bu voqealarga guvoh bo'lgan avlod esa og'ziga talqon solgan, ularni gapga tutishing bilan yuzingga tufuk sachraydi. Buni ular atay qilmaydi, shunchaki, bu avlod talqonni na yutib yuborishni, na tuflab tashlashni uddalay olmaydi. Shuning uchun ham ular o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qolgan. Boshqacha aytganda, ular odamning o'zidan katta ko'rinadigan soyasiga o'xshaydi. O'quvchi bu qishloqda mol boqish bilangina nom chiqargan soyalar yashashini his etadi. Hikoya

esa ana shu ulkan soyalar haqidagi g'amgin qo'shiqdir.

"Piyolaga quyilgan choyni qo'liga olarkan, barmog'iga tegib qo'ysin momomizning. Qizarib-uyalib ketsin yetti bolani shu kishidan dunyoga keltirgan momomiz xuddi bobomizni endi ko'rayotganday iymanib, balog'atga yetgan qizdek o'tli jilmayib".

Naqadar tabiiy va chin insonga xos tuyg'uning ifodasi bu. Bunday detallarning qadri har kuni ijtimoiy tarmoqda zo'rlash, tahqirlash haqidagi xabarlar bot-bot duch kelayotgan o'quvchi yanada teranroq his etsa ne ajab. Umuman olganda, "Boybovaning bolalari"da bunday topildiqlar, kishiga zavq beradigan jumlar ko'p. Hozir ularning hammasini birma-bir sanab o'tirmoqchi emasman. Demog'chimanki, hamma aytgan, doim yozilgan va an'anaviy uslubda ham yangi so'qmoqlarni ochish mumkin. Bu bilan hikoyani nihoyatda mukammal deyishdan ham yiroqman. Masalan, qahramon hayoti to'liq ochib berilmagan. U qanday qilib qassob bo'lgan-u, o'zligini saqlashga, bobolari haqida mushohada qilishga uni nima undaydi? Jaydari qilib aytsak, Xudoga qanday aytgani borki, ko'ksiga nur inib turibdi?! O'limdan go'zallik axtaradigan G'aniqul nega mol bo'g'ziga pichoq tortganda ko'ziga yosh keladi?

Shunga qaramay bu juz'iy kamchiliklar hikoyaning yutuqlari oldida sezilmaydi. Aniqrog'i, uni o'qib bo'lib bo'g'zingizga tiqilgan iztirobdan biroz uzoqlashib, hikoya haqida aql bilan mulohaza qila boshlagachgina yuqorida sanaganimiz kamchiliklarni sezisiz.

Haqiqiy asar qanday bo'lishi kerak, degan savol doim bahsli. Hamma o'z didiga moslab ma'lum mezonlarni ilgari suradi. Haqiqat shundaki, qahramonini na yaxshi ko'rib, na nafratlanib va yoki achinib bo'lmaydigan, ayni damda xatm qilib bo'lingach kishiga go'zal iztirob berib, ko'ngilga yorug'lik indiradigan asarlar baribir o'qishli bo'lib qolaveradi.



Akmal JUMAMUROD

Hayot va *xayol orasida*

*Sh*avkat Do'stmuhammadning Tog'ay Murodga ixlosi balandligi kunday ravshan. Faqat uslubning ("bobomiz", "momomiz" singari) o'zidagina emas, asargacha "yashash"da ham shuning nafasi keladi. Masalan, Tog'ay Murod "Otamdan qolgan dalalar"iga material yig'ish uchun dehqonlar hayotini o'rgangan, chigit yerga qadalgandan to hosil terib olingungacha zahmatini ular bilan yonma-yon, yelkama-yelka yurib, o'z ko'zi bilan ko'rgan.

Muallifning kasb-kor ifodalarida qassoblikdan ozmi-ko'pmi xabardorligi (jonliqning oyoqlarini birlashtirib chandib, orqa oyog'ining narigisidan arqon o'tkazib, biqinidan itara solib arqonni tortib yiqitgani kabi o'rinlarda) yoki jarayonni bevosita kuzatganligi bilinadi. Bu esa tasvirning jonli chiqishida, shu orqali o'quvchini hikoyaga olib kirishda g'oyat qo'l keladi.

Ayni chog'da bobosi haqda hali yozilmagan, biroq xayolda kun sayin pishib yetilayotgan kitobini chiqarish uchun nashriyotga borgan yigit va bosh muharrir dialogida ham obrazdagi sovuqqonlikni qassoblarga xoslikka yo'ydim. Biroq ayro olib qaralsa, bu suh-

bat kishiga erish tuyuladi, ya'ni yo'q kitobni chop etish uchun borish. Shu bois suhbatdan muddao kitob nashriga oshiqishdek ko'rinib qolgan.

Hikoyada G'aniqul o'zining telba-teskari olamida yashaydi. Menga uning hayoti (qassoblighi) emas, asar yozishga to'liqib turgan yigitlik xayoloti ko'proq manzur keldi. Chunki G'aniqulning xarakteri o'sha olamda oydinlashyapti. Manzaralar yorqinroq chizilyapti. Unga qo'shilib yozuvchi aurasini ochilyapti. Shunaqa damlarda erkin, zo'riqmasdan zo'ryapti. So'z ham ravon o'qilyapti. Hikoya ohangi yengillashyapti. Biroq yigit xayoldan hayotga ko'chishi bilan ifodalar og'irlashib, o'quvchida istar-istamas sustlik paydo bo'ladi. Bu xuddi tagiga o't qalangan qumg'onni hadeganda ochib-yopib, ochib-yopib – "choyning maromda qaynashi"ni ortga surib yuborgandek hol.

Menga qolsa, yigit o'sha "...o'qiganda jumalari ilmiliq suvdek mayin yutiladigan" hikoyasini yozsa, qiziqarliroq edi. Balki, shu kayfiyatda o'qiganim uchundir, darchadan endi mo'raladim deganda yopib qo'yishlar, hayot va xayol orasidagi sarosarlik G'aniqul qatori o'quvchi sifatida meni-da qiynab qo'ydi. Shu.

Shavkat Do'stmuhammadning
"Boybovaning bolalari" hikoyasini o'qib...



**Iroda
UMAROVA**

*1987-yili tug'ilgan.
Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat
pedagogika unstitutining
San'at fakultetini
tamomlagan.*



O'rgimchak to'riga ilingan oyni
barmog'in uchida o'ynab teraklar,
nogahon bulutga tegib ketdimi –
tomchilar avjlandi yerni chertmaklab.
Derazani yopgan bir siqim nurpo'sh –
gullagan pardalar chetga surildi.
Qaradim, yomg'irga urildi yog'du,
ehtimol, yog'duga yomg'ir urildi.
Qaradim oqshomning tub-tublariga,
yurakda uyg'ondi yoqimli azob.
Bilaman, allakim maktublariga
javoban qalbimni tush ko'rar shu tob.
Bilaman, kimningdir yomg'iriman men,
ko'rgan-u tanimay o'tgan balki-da...
Bilaman, deraza yonida har yil
olcha gul yozadi bo'sa shaklida.

Olcha gul yozadi **bo'sa shaklida...**

Xiyobonda surat chizar musavvir,
Ham suyuq mashg'ulot, ham baharnav pul.
Sokin o'tar edi sidirg'a kunlar,
Grafika uzra unguncha bir gul.

U gul o'tirarkan ro'baro'sida,
Layli kokillari qalamdan qochib,
Bexabar, kulgichin piyolasida
Sayyod ko'zlarga ishq yubordi sochib.

Termilib va bundan xijolat bo'lib
Chizarkan, qog'ozday titrardi qalbi.
Ko'zlarni, qoshlarni to'qirdi mayin,
Qalam – barmoqlarin birovi kabi.

Surat bitdi, afsus...
Mamnun kulimsib
Pulin uzatdi gul, jim oldi mahzun.
Shunday savdo bo'ldi – kim pulga surat,
Kim suratga oldi barmoqlar hidin.

Gul ketdi, suratini ko'tarib xurram,
Ortidan intizor qoldi bir surat.
Harir etaklarin nasimlaridan
Gurillab-gurillab yondi muhabbat.

Kunlar o'tayotir hanuz sidirg'a,
Yillar chig'anog'i ichra mitti sir –
Xiyobonda ishlar, ko'rib qolay deb
Qalbiga chizilgan gulni musavvir.

Hol

Erka chamanlarin qizg'andi taqdir,
Toshlar orasidan turtib chiqdim men.
Kiftlari botsa ham zalvorli, chaqir,
G'ovmas, suyanchimday tutib chiqdim men.

Odamlar chechaklar saralay o'tdi,
Garchi Allohimdan ravo edim men –
Ko'rimsiz gul edim, qaramay o'tdi,
Balki, xushbo'y, balki, davo edim men!

* * *

“Sen ko'zyosh bo'lsang
Yo'qotmaslik uchun
Yig'lamayman mangu”
Degan edi u.
Bu ko'chirma gap yuragimga
Ko'chmas bo'lib o'rnashgan edi.
O'g'rilangan sovg'asi biram yoqimli edi
Yuragim o'g'risining.
Bir kun u
Ko'tarib keldi muhabbatimizga
O'zgani...
Bilaman-ku, bir kiprik tolasida
Turmas ikki tomchi
(kiprikda tutish
doim ham avaylabdan emas,
Ataylabdan ekan, ataylab!)
Taqdirimga tilxat berdim o'sha kun,
Berib bardosh:
“Uni tark etdim o'z ixtiyorim bilan
Men – bir tomchi ko'zyosh...”



* * *

Cheksiz, tashvishlarday cheksiz koinot,
Va uning ichida kurrai zamin.
Va uning ichida bir odamobod,
Va uning ichida bir uy bor rangin.
Va uning ichida bir ayol uxlar,
Va uning ichida bir ko'ngil uyg'oq.
Va uning ichida bir sevgi to'la,
Va uning ichida bir ism mutloq.
Va uning ichida... hech kimsizlik bor,
Egasi yo'q ism, tashlandi ism.
Oylab taqib yurib, yecholmay, nochor
Hanuz taqib yurgan uzukday asrandi ism...
Bag'rini quchoqlab uxlaydi ayol,
Uyning ko'zyoshiday titrab qo'yar u.
Baxtdan qo'rqar, domga, cho'qqa yo'yar u,
O'zi aybdor, hanuz Uni suyar u...
Cheksiz, kutishlarday cheksiz koinot
Ichra yashar ekan shunday munglug'lar,
Sevaman deyishga haqqingiz bormi?
Sevildim deyishga haqqingiz bormi? –
Ismidan boshqa hech narsasi yo'qlar?

* * *

Daraxtlarni surib qarar chiroqlar,
Sanayman: oq, qizil, sariq, zangori...
Orqa o'rindiqda o'tiribman jim,
Qalqinib bir tomchi ko'zyosh singari.
Bilaman, ko'plarning yig'ilariman,
Undan ham ko'plarga hech kimman biroq.
Sanayman: oq, qizil, sariq, zangori...
Ko'nglim... ko'nglimda hech yonmaydi chiroq.
Ajab, tiriklikni sezdiradi dard,
Baxt – orada malham kabi totganim.
Xijolat bo'laman, erish tuyular
O'zimni sal ko'proq o'ylayotganim...

“Qo‘rg‘onning qudug‘idan suv ichgan odam...”



Feruza TURDIMOVA

*Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti
magistranti*

Baxshi-shoirlarning shaxsiy ijod namunalari asosan XX asrning boshlari, folklorshunoslar xalq dostonlarini yozib olishga kirishilgan – 30-yillariga to‘g‘ri keladi. Chunki bu davrda sho‘ro hukumati xalq ijodi quvvatini ham o‘z mafkurasi o‘zanidan oqizishga katta e‘tibor qaratgan vaqt edi. Buning mevasi o‘laroq baxshilar ijodida ham zamon yangiliklari kuylangan asarlar paydo bo‘ldi. Keyinchalik bu harakat davomiy tadbirga aylandi. Hatto baxshilarning o‘zi ham ayni holatni tabiiy ravishda qabul qilib, ko‘nikishdi. Natijada baxshilar ijodida zamonaviy mavzularda doston va termalar yaratish an‘anasi paydo bo‘ldi. Hozirgi vaqtda keng tarqalgan, individual ijod mahsuli bo‘lgan aksariyat doston va termalarning yaratilish an‘anasini ushbu tadbirlarning mevasi sifatida baholash lozim. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining “Ochildov”, “Jizzax qo‘zg‘oloni”, Po‘lkan shoirning “Komsomolka Oyto‘ti”, Umr shoirning “Qoraqum”, Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining “O‘rtoq Lenin” dostonlarini ayni an‘analar avvalida paydo bo‘lgan asarlar sifatida keltirish mumkin. Bugungi kunga kelib bu asarlarning barchasini yangi mezon – badiiylik va epik ijodning davr bilan bog‘liq rivojlanishi va o‘zgarishlari o‘lchamlari kesimida baholash talab etiladi. Shunday bo‘lmoqda ham. Xususan, adabiyotshunos Ibrohim Haqqul Ergash shoir ijodida alohida o‘rin tutuvchi “O‘rtoq Lenin” dostoniga bag‘ishlangan o‘ta muhim maqola e‘lon qildi. Bu maqola baxshi shoirlarning zamonaviy mavzudagi individual asarlariga yangicha talqinda yondashilgan eng e‘tiborli, adolatli va hozircha yagona tadqiqot ekanligini alohida qayd etamiz. Jumladan, olim yozadi: “Yashirish yoki xaspo‘shlashga hojat yo‘q: lekin sobiq sho‘ro davlati haqida adabiyotimizda juda ko‘p asarlar yaratilgan. Ularning ko‘pchiligi chin dildan, mehr va minnatdorchilik

tuyg'ulari ila bitilgan. Mustaqillikdan so'ng bu asarlarning umri tugadi. Lekin tirik odam "qalovi"ni topar ekan. Ba'zi ijodkorlar Lenin, partiya, sho'ro kabi so'z, nom va tushunchalarni o'zgartirib, e'tiqod, sadoqat, ozodlik va kurash ifodasi bo'lmish o'sha narsalarini nashr ettirdilar. Buni yangi bir ijodiy tajriba deb bo'lmaydi, albatta. Chunki bir paytlar Stalinning siyosiy faoliyati va shaxsiga sig'inish qoralangandan keyin ham shunday qilingan. O'sha "tahrir" va o'zgarishlar qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lgan, ijodkorlik burchi, mas'uliyati va vijdoniga nechog'li muvofiq yoki nomuvofiq kelgan, bu – boshqa masala. Ammo ayrim asarlar borki, ularda proletar dohiylar obrazi ham, siyosiy g'oya va haqiqatlarga ham bir vosita o'laroq tayanilgan. Agar ulardagi nom, ba'zi so'z va parchalardan kechilsa, yashashda bemalol davom etishi mumkin. Menimcha, Ergash Jumanbulbulning "O'rtoq Lenin" dostoni shunaqa ijod namunalari dandir". (1) Demakki, Ergash shoirning "O'rtoq Lenin" kabi sho'roviy deb qaralgan dostonida ham shoir o'z so'zi, fikrini ayta olgan ekan. Ibrohim Haqqul bu ma'nolarni hassoslik bilan to'g'ri talqin etib bermoqda. Ergash shoir yozib bergan yana bir muhim doston – "Tarjimayi hol" nomi bilan mashhur. Bu dostonning qimmatini faqat sho'roviy g'oya ta'siridan xoli ekanligi bilangina belgilanmaydi. Bu doston, avvalo,

Ergash shoir mansub Qo'rg'on dostonchilik maktabi haqida bebaho ma'lumotlarni badiiy aks ettirishi bilan ahamiyatlidir. Qolaversa, Ergash shoirning o'zi, oilasi, shoir tarbiya topgan muhit haqida ham batafsil axborotlar bu dostonda kuylangan. Birgina maqolada dostonidagi barcha ma'lumotlarni sharhlash, baholash imkoni yo'q. Biz bu o'rinda Qo'rg'on dostonchilik maktabining o'zagini tashkil etuvchi Ergash shoir ota-bobolari va oilasi haqidagi faktlarga e'tiborimizni qaratmoqchimiz. Avvalo, Qo'rg'on dostonchilik maktabining o'zbek dostonchilik markazlari orasida alohida o'ringa ega ekanligini ta'kidlash lozim. Xalq orasida: "Qo'rg'onning qudug'idan suv ichgan odam shoir bo'lmay qolmaydi", degan hikmatning bekorga paydo bo'lmaganligini Qo'rg'on dostonchilari shajarasi bilan tanishishning o'zi isbotlab beradi. Shajara avvalida Yodgor shoir nomini ko'ramiz. Yodgor shoir kim edi? Ergash shoir dostonida o'qiymiz: "...Jo'sh dahasining Qo'rg'on qishlog'idan Mulla Ergash, oltmish bir yashar, Jumanbulbul o'g'li, Jumanbulbul Mulla Xolmurod o'g'li, Mulla Xolmurod Mulla Toshning o'g'li, Mulla Tosh Usta Lafasning o'g'li, Usta Lafas Yodgorning o'g'li..." (2) Ma'lum bo'lmoqdaki, Yodgor shoir Ergash Jumanbulbul o'g'lining beshlamchi otasi ekan. Ergash ota o'z dostonida Yodgor shoirni shunday ta'riflaydi:

*Beshlamchi otamning otidir Yodgor,
Shu vaqtda elida so'zga e'tibor,
Har yerda o'tkazib yurgan so'zini,
Chechanlikda hech kim bo'lmay barobar.*

Bu o'rinda aytilgan: "Chechanlikda hech kim bo'lmay barobar" bahoni chuqur o'ylab ko'rish lozim. "Chechan" kalimasi so'z ustalariga nisbat beriluvchi atama qiymatiga ham ega. Bu esa Yodgor shoirning zamondosh baxshilarning ulug'i bo'lganligini bildiradi. Aslida ham shunday edi. El orasida mashhur Jalmon baxshini Yodgor shoirning atoqli shogirdi bo'lganligi hali-hali eslanishi bejiz emas.





Ergash Jumanbulbul o'g'li to'rtinchi otasi Usta Lafasni shoirlikda tengsiz, to'y-yig'inda o'lan, gapni o'ylamay aytuvchi mohir badihago'y sifatida tilga oladi. Baxshi-shoir uchinchi otasi Mulla Toshni har yerda so'zi o'tgan, oqil, sohibi kengash, deb ko'rsatadi. Bobosi Mulla Xolmurodni o'z zamonida chechanlarning ustodi, gap bobida so'zning dehqoni bo'lganligini alohida urg'ulaydi. Ushbu o'rinda diqqat qilinishi shart bo'lgan bir fakt ham kelmoqda, ya'ni Ergash shoir bobolarining ismiga epitet sifatida kelayotgan "mulla" va "usta" so'zlaridir. Folklorshunos Sh.Turdimov shajara sanog'idagi bu so'zlar xususida shunday yozgan: "Qo'rg'onning ustalari shoir, shoirlari usta edi. Qadim-qadimdan bu ikki kasb el orasida hurmat-e'tiborda bo'lib kelgan. Shajarada sanalgan otalarning mulla sifati esa bu avlodlarning aksariyati xat-savodli, ziyoli insonlar ekanligidan dalolat beradi. Qo'rg'on baxshilarining dostonlarni "suluv" uslubda ijro etishlarida ularning mumtoz adabiyotdan bahramand bo'lganliklari ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Ergash shoir ana shunday adabiy muhitda o'sdi, ulg'aydi, kamol topdi". (3)

Mulla Xolmuroddan uchta o'g'il qolib, uchovi ham katta shoirlar bo'lganligi dostonda aytilgan.

O'g'illarning kattasi Josho'zoq shoir ko'p shogirdlar chiqargan, baxshilar orasida ko'p doston bilishi bilan mashhur bo'lganligi aytiladi. O'rtanchining oti Yorlaqab bo'lgan va Ergash shoir bu amakisini shunday ta'riflaydi:

*...Chechanlikda tani so'z bilan to'lgan,
U Josho'zoqdan baland bo'lib o'tgandir,
Tamom umri elga shoirlik qilgan.*

Mulla Xolmurodning kenja o'g'li Jumanbulbul edi. Ergash shoir Jumanbulbulning to'ng'ich farzandi bo'lgan. Dostonda Jumanbulbul ta'rifi alohida o'rin berilgan. Jumanbulbul dovushining bir tosh yo'lga borgani, yigirma xil nag'ma bilan dovushiga muvofiq soz chertgani, eshitgan odamni balqitib, eritib, bir damda yig'latib, bir dam kuldirib, hammani o'ziga qoyil qilgani, doston aytib, elning ko'nglin yupatgani, bir so'z bilan aytilsa, Juman BULBUL bo'lib o'tgani kuylangan. "Tarjimayi hol" dostonida Ergash shoir ukalari Abduxalil, Abdujalil, singillari Mahkamoy va Zumradoylar haqidagi ma'lumotlar ham bevosita Qo'rg'on dostonchilik maktablari vakillari, dostonchilik muhiti haqidagi tasavvurlarni yanada kengaytiradi. Baxshilik maktabi muhiti birgina dostonlar bilan to'liq bo'lmaydi. Bu muhit vakillari folklorning boshqa janrlarining ham mohir ijrochilari ekanligiga dalolat beradi. Dostonda Zumradoy va Mahkamoylar aytgan marsiya namunalari fikrimizni isbotlaydi. Ergash shoir kuylagan "Tarjimayi hol" dostoni bilan yaqindan tanishuv bizga ana shunday xulosalar chiqarishimizga asos beradi.

1. Ibrohim Haqqul. "Maishatman kayfu safo bir yoqda..." // O'zbek folklori masalalari VII kitob, Ergash Jumanbulbul o'g'lining 150 yilligi munosabati bilan chop etilgan ilmiy maqolalar to'plami. Fan. Toshkent 2018. 84-85 betlar.

2. Bulbul taronalari. 5-tom. Doston va termalar. Toshkent, Fan, 1973. 21-b.

3. Shomirza Turdimov. Men shoirman, shunday aytsam yarashar...(Ergash Jumanbulbul o'g'lining hayoti va ijodi) // O'zbek folklori masalalari VII kitob, Ergash Jumanbulbul o'g'lining 150 yilligi munosabati bilan chop etilgan ilmiy maqolalar to'plami. Fan. Toshkent 2018. 58-59 betlar.



Baraka BOQIY

1989-yili tug'ilgan.
O'zbekiston milliy
universitetining O'zbek
filologiya fakulteti talabasi.

Baribir tan olishim kerak...
Otamga nisbatan
Menda
Hurmat tuyg'usidan ko'ra
Qo'rquv hayajoni bor.

Baribir tan olishim kerak...
Tangridan emas,
O'zimga o'xshagan badbaxt bandalardan
Uyalganim rost.

Baribir tan olishim kerak...
Qanchalik fidoyi ko'ringanim bilan,
Nafsning ehtiyoji tinchlik bermaydi, afsus.

Kimni kuydirmagan dunyoning kami,
Hushdan ozdirishga qodirdir g'ami.
O'zingni tanishtir Bahorga, Ishqqa,
Bekor erimasin Tiriklik shami.

Qo'rqmadim hislarning yomg'ir, do'lidan

Yolg'iz yashayapman anchadan beri,
Bo'g'ilib o'lmagan ko'ngil tomonda.
Ko'zoynak taqmagani shoimning she'ri,
Doni yetilmasdan pishgan somonda.

Qadam tashlamadim taqdirga xilof,
Nafas ololmadim zinhor so'kilmay.
Dunyo deganlari shunchaki g'ilof,
Sevmoq mumkinmikin to'lmay, to'kilmay.

Anglagan tongimni sinovlar yedi,
Borayapman tunning qisqa yo'lidan.
Ehtiros gunohga begona edi,
Qo'rqmadim hislarning yomg'ir, do'lidan.

Mayl

Hatlab o'tilgan,
Kunning so'nggi lahzalaridek,
Isyon ko'taryapti
Ichimda bir til.
Shevasini hali to'liq tushunmadim.

Javonimda ko'p kitoblar o'qilmadi.
Lekin birinchi maoshimdan esdalik deb,
Ogahiyni ziyorat qildim.
Yillarda shakllanib borarkan Fursat.

Chalasavod bo'lsam ham,
Ruhimda bog' yaratdim,
Ko'rinmagan oyga intilmadim.
Joni uzilayotgan odamdek
Aytdim so'zimni.
Endi kell...



Kitobxon oldidagi, o'zbek adabiyoti oldidagi mas'uliyat tuyg'usi, afsuski, hamma yozuvchilarda ham bo'lavermaydi. Shunday fazilatga ega bo'lgan yozuvchilargina ijodiy komolot yo'lidan boradilar. Maqsud Qoriyev yozuvchilik burchini teran his etadigan, ana shunday kamyob ijodkorlardan biridir.

Naim KARIMOV,
adabiyotshunos olim, professor, akademik

Maqsud

QORIYEV

Maqsud Qoriyev 1926-yil tug'ilgan. Yozuvchi va jurnalist.

Jurnalistik faoliyati davomida "Toshkent haqiqati" gazetasida muharrir o'rinbosari, bosh muharrir, "Sovet O'zbekistoni" gazetasi, "Mushtum" jurnalida bosh muharrir bo'lib ishlagan.

Maqsud Qoriyevning adabiy faoliyati 60-yillarning 2-yarmida kichik hikoyalar yozish bilan boshlangan. Maqsud Qoriyev "Oydin kechalar", "Jiyda gullaganda", "Oy tutilgan kecha", "Qiz uzatib borganda", "Afrosiyob go'zali", "Turnalar baland uchadi" kabi qissa va hikoyalar to'plamlarida yosh zamondoshlari


hayotiga murojaat etib, ular hayoti va ruhiy olamida kechayotgan o'zgarishlarni tasvirlashga alohida ahamiyat bergan.

Shuningdek "Spitamen", "Ibn Sino", "G'aznaviylar", "Ibn Sinoning bolaligi" kabi tarixiy roman va qissalari chop etilgan.

Yozuvchining lirik qissalari asosida "Mirzo va Lola" telespektakli, "Qaldirg'ochlar bahorda keladi", "Qiz uzatib borganda" badiiy filmlari yaratilgan.

Maqsud Qoriyev "Shuhrat" medali (1996) va "El-yurt hurmati" (1998) ordeni bilan taqdirlangan.

Adib 2010-yilda vafot etgan.



Yetmishinchi yillarga kelib yangi bir to‘lqin, yangi bir iste’dodli avlod safimizga qo‘shildi. O‘zbek nazmi va nasriga yangi ruh kirib keldi. Bu avlod safida peshqadamlardan biri Shukur Qurbon edi. Uning hayajonga to‘la yuragi, aytgan so‘zi, yozgan she’ri, har bir xatti-harakatida ayon bo‘lib turardi.

Erkin VOHIDOV,

O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri

Shukur > QURBON <

Shukur Qurbonning bobolari asli qo‘qonlik bo‘lib, taqdir taqozosi bilan o‘tgan asrda Avliyoota (keyinchalik Jambul, hozirda Qozog‘istondagi Taroz) shahriga borib qolishgan.

Shukur Qurbon 1951-yil 6-iyulda tug‘ildi. Shu yili ularning oilasi Andijonning Baliqchi tumaniga qaytib keladi. Bo‘lajak shoir tuman markazidagi 1- va 14-o‘rta, Eski Haqqulobodagi 8-internat maktablarida o‘qidi. Adabiyotga havasmandlik maktab yoshidan boshlanib, ilk she‘rlari tuman gazetasida yoritildi.

Shukur Qurbon ToshDU (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)ning Filologiya fakultetida o‘qidi. Mehnat faoliyatini “Sharq yulduzi” jurnalida boshlab, keyinchalik O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Toshkent viloyat bo‘limida, O‘zbekiston teleradiokompaniyasida, “Sog‘lom bola uchun” jurnalida xizmat qildi. Hozirda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyotida bosh muharrir vazifasida ishlab keladi.

Shukur Qurbonning “Oqqushlar ko‘li” (1978), “Sog‘inch darvozasi” (1980), “Nafas” (1982), “Ona tilim” (1984), “Yoz kunlari” (1986), “Yori jonim” (1988),

“Bir qalb manzarasi” (1990), “Sizni Xudo yetkazdi” (1995), “Arba’in-1” (2002), “Bayram – bolalarniki” (2006), “Ellikqal’a daftari”, “Baliqchiliklar”, “Tohir Malik saboqlari”, “Abdulla Oripov saboqlari” (2008), “Ozoringni sog‘indim”, “Hadisi shariflar asosida 1600 to‘rtlik” (2011), “Ozod Sharafiddinov saboqlari”, “Muhammad Yusuf saboqlari” (2012), “Sharq marvaridi” kabi she‘rlar, badialardan iborat kitoblari nashr etildi.

U “Temur Malik”, “Behzod”, “So‘z yo‘li”, “Vatandan ketish”, “Do‘st”, “Anbar ona”, “Onam qoshidasan yoxud singlim Muhabbatga maktublar”, “Singlim”, “Ukajonlar, singiljonlarim”, “Tinchlik to‘g‘risida notinch bir qo‘shiq”, “Hamroh”, “Bir qalb manzarasi” kabi dostonlar yozdi. Tarjimon sifatida F. Petrarka, A. Pushkin, A. Mitskevich, J. Prever, N. Hikmat, M. Lermontov, R. Hamzatov, Y. Yevtushenko va boshqa mumtoz hamda zamonaviy shoirlar asarlarini ona tilimizga o‘girdi.

Shukur Qurbon ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi asarlari uchun 1989-yilda Movarounnahr musulmonlari diniy boshqarmasining mukofoti bilan taqdirlangan.

To'z

(Ilmiy-fantastik hikoya)



Xristos SAYELIS

1974-yilda Kiprning Nikosiya shahrida tug'ilgan. Millati grek. Hikoya va she'rlari turli tillarda xalqaro jurnal va to'plamlarda chop etilgan. Ko'plab adabiy tanlovlar g'olibi. "Ekei sto Than" nomli she'riy to'plami Xalqaro badiiy akademiya tomonidan taqdirlangan. "Shaxmat doskasidagi suyaklar", "Yashil ajrim", "Kloto yuzasi", "Non" kabi nasriy kitoblari chop etilgan.

Ingliz tilidan
**Nodirabegim
IBROHIMOVA**
tarjimasi

Ajoyib kunlarning birida O'rtayer dengizida joylashgan orollardan biri – Nikosiya nomli kichik shahar ahli barcha shifoxona, klinika va dorixonalarni yo'q qilishga ahd qildi.

Shahar meri bu haqda kotibasi tomonidan ko'chalarda odamlar namoyishga chiqa boshlaganini aytganidagina xabar topdi. U derazadan tashqariga qaradi va chindan ham yo'laklarda olomon shaharning sharqiy tarafidagi bosh shifoxona sari yo'l olayotganlarining guvohi bo'ldi. Ularning qo'llarida panshaxa, bolta, bolg'a va shu kabi uylaridan topilgan asbob-uskunalar bor edi.

Mer bugun nimalar bo'layotganini anglolmasdi. G'alati shaharning rahbari o'zi edi. Bu sharmandali holatga qarshi chiqolmayotganini o'ylab tutoqdi. Agar OAV uning shahar nazoratini qo'ldan boy bergani haqda bong ursa nima bo'ladi? Butun dunyoga kulgi bo'lgan siymoga aylansa-chi? U telbalanib o'zini yo'qotib qo'ydi. Bosh inspektorga qo'ng'iroq qildi, lekin ish joyida emas, shekilli, javob bo'lmadi. Merning g'azabi qaynadi. So'ng prezident, bir nechta ministrilar bilan bog'lanishga urindi, ammo natija bo'lmadi. U mansabga o'tirgandan beri ilk marta o'zini yolg'iz his qildi.

Hokimiyat binosidan uch kilometr naridagi umumiy shifoxonadan odamlarning shovqini eshitildi, bu g'alati istaklari ortidan allaqachon sement devorlarni ag'dara boshlashgandi. Mer kabinetidan shoshib chiqib kotibasining xonasiga otildi, ammo u yerda hech kim yo'q edi. Hokimiyatda hech zog' ko'rinmasdi.

Tashqariga chiqqach o'z xodimlarining Mustaqillik maydoni sari ketayotganlarini ko'rdi, go'yoki ko'rinmas dushmani mahv etmoqchidek shashtlari bor edi. U birdan Uchinchi reyx va uning rahbariga itoat qilish haqida o'ylab qoldi. Chunki bu yerda hech kim xalqni murosaga keltirolmayotgandi. Nazarida, qandaydir jamoaviy ongosti boshqaruv kuchi ularni nazorat qilayotgandi.

Ularning asbob-uskunolari-chi? U sassiz oyparastlar bilan yonma-yon ketarkan, shu haqda o'ylardi. Ular safida baland poshnali tufli kiyib olgan

va qo'lida yaqindagina bog'bondan sotib olgan og'ir cho'kichni ko'tarib xotini ketib borardi. Qizi ham shu yerda – sal oldinroqda. Mer navbatga tizilgandek yurib borayotgan odamlar orasini yorib o'tib boshlanish qismiga yetib olishga urindi, saf boshida yo'l boshchi bormi-yo'qmi, bilmocchi edi. Yugurar ekan, hech kim unga e'tibor qaratib so'z qotmadi. U odamlarning qo'lidagi temir buyumlardan endi cho'chimasdi. Mer ularning sukut saqlashi va tobe nigohlaridan dahshatga tushardi.

Balki, bu bir necha oydan beri kelayotgan milliy bog'dagi ildizlar haqidagi minglab shikoyat xatlari bilan bog'liqdir? U deyarli har bir xonadondan anomal hodisa haqda xabar qilinganini esladi, hatto xonadonlardan qo'ng'iroqlar bo'lgan, maktublar yo'llashgan va bu g'alati qizil ildizning uy trubalari orqali o'sib chiqib gultuvaklarni bo'g'ayotgani haqda aytishgandi. Shahar ahli atrofda o'simliklar so'layotganidan noligan.

Mer park oralab, narigi ko'chaga o'tib oldi. Bog'da barcha o'simliklar o'lgan, g'alati qizil ildiz ularni bo'g'ib qo'ygandi. Birdan u ildizlarning harakatsiz emasligini payqadi. Ular sekinlik bilan kengayib borar, diqqat bilan kuzatilsa, ko'z ilg'ashi mumkin edi. U yo'lakda turib o'ng va chapga qaradi. Barcha ildizlar shahar markazidagi Mustaqillik maydoni tomon quloch yozib borardi, bu bahaybat qurtsimon ildizlar sekinlik bilan, ammo sezilarli kengayardi. Harakatlari unumli kechar, ildizlar kengaygan sari g'alati geometrik shaklga kirib borardi, go'yo nimanidir qamrab olgandek. U alangladi. Devor ortidagi manzarani ko'rib dong qotdi.

* * *

Ko'rganlaridan shoshib, bir daqiqa qimir etmay turdi. Nikosiyaning markazida, eski shahardan bir yarim kilometr uzoqlikda joylashgan venetsian devor ichida, ildizlar ulkan kub bo'lib qad rostlagandi. Ular yuqorilab viqorli shakl hosil



qilgan, ma'nisiz ideogrammlar tepaga intilishardi. Ular o'zga sayyoraliklar edi. Meni qo'lga olishdi, o'ylardi mer. Bejizga ikki oy davomida xonamda mixlanib o'tirmabman, qizim va xotinim qo'ng'iroq qilsa ham ko'tarmagan ekanman.

U ildizlarga tegib ketmaslikka harakat qilib yugura boshladi. Yordam beradigan kimnidir topishga urindi. Agar hamon yolg'iz o'tiraverganida ildizlarning kub shaklini yakunlashlariga imkon bergan bo'lardi.

* * *

Uch kun avval...

Shahar ahli birma-bir kasalxona palatalari va dorixona omborlariga kirib, xaltaga dorilarni to'ldirib olib chiqib ketishardi. Ildizlar esa o'n bitta xandaqdan o'sib chiqib devorlarni oshib eski shaharga kirishga urinardi. Bosh kasalxona, dorixona va klinikalardagi shifokor va hamshiralarning ko'rsatmasiga binoan odamlar dorilarni tartib bilan terib chiqishdi. Avvaliga ular barcha antibiotiklarni ochib xandaqlardagi ildizlarga otishdi. Xandaqdan quyuq sariq tuman gupura boshlab ildizlar qimir etmay qolgach, odamlar xursandchilikdan qiyqirishdi. Ammo keyin ildizlar shisha boshladi. Odamlar agar ildizlar shishib portlab ketsa, yaxshi bo'lardi, deb umid qildi. Eng semiz ildiz qad rostlab turardi. Shunda bosh shifokor ildizga psixotrop va narkoz preparatlaridan ukol qilishga buyurdi. Bu suyuq dori orqali ildiz hamla qilmay turib uni tinchlantirib uxlatib qo'yishmoqchi edi. Ular qo'llaridagi barcha ukollarni ildizga urishdi – barbiturat, benzodiazepin, galotan, nitrus oksidi va morfinni ham.

Ildizning g'urrasi chindanam murosaga kela boshladi. Tinchlantiruvchi nur yuborilgach ular kichraydi. Qizil, yo'g'on, yerga to'shalgan gilamdek bo'lib turgan ildizlar asta xandaq ichiga singdilar. Odamlar oxirigacha kuta boshlashdi. Ishonchsizlik bilan. Hali hech kim xotirjam tortmagandi. Ildizlar hamon tirik edi-da.

Bir daqiqalik o'lik sukunatdan so'ng sariq tuman qizara boshladi va yanada quyuqlashdi. Bir soniyadayoq ola bulutlar shahar osmonini qoplab

oldi. Bu tuman emas, mitti zarralar edi. Avvaliga ular yig'ilganlarning burni orqali ichiga kirib olishdi. Odamlar qimir etmay qoldi. Harakatsiz.

Ular gipnozlangan qizil zarralar Eski shahar sari suzib ketayotganini tomosha qilib turishardi. Qadimiy hammom yonida, markazda kichik o'simlik bor edi. Bu Iuda daraxti bo'lib, u zarralardan oziqlangach tez o'sa boshladi. Bir necha soat ichida u shunchalik katta bo'lib ketdiki, hammom uning soyasida ko'rinmay qoldi. Ular millionlab g'uncha tugdi va ochildi. Bu haqiqiy mo'jiza edi.

O'ziga tortuvchi sirli kuch shahar ahli nazoratini qo'lga oldi. Ayrim odamlar daraxtga yaqinlashishga kuch topib, uni kuchli anestetiklar, desfluran galotani, analgetiklar bo'lmish hidrodon, paratsetamol bilan so'ndirishga harakat qilib ko'rishdi, dorilarni litrlab daraxtga yo'nalgan vodoprovod va kanalizatsiyaga quyishdi, lekin daraxt ular kutgandek portlab ketmadi, hujumga qarshi turoidi.

Aynan o'shanda ildizlar Iuda daraxti atrofida o'sha ulkan Kubni qurishga kirishishdi. Ildizlar naqsh kabi to'r to'qirkan, aslan bu dunyoga tegishli emasdi. Ular qandaydir o'zgacha shaklda, qadimiy ko'rinishga ega bo'lib, naqshlarda donolik majassam, puxta o'ylangan chiziqlar tortishar, ierogliflardan kitob yozayotgandek taassurot qoldirar, lekin bu harflarni odamzod o'qiy olmasdi. Shu ondan boshlab barcha fuqarolar esini yo'qota boshladi. Ularga shifoxonalarni, klinikalarni va dorixonalarni yo'q qilish buyurildi. Iuda daraxti va kub buning uddasidan chiqardi.

* * *

Mer unga yordam bera oladigan biror kimsa topolmadi. U xotini va qizi haqda qayg'urardi. Nega ulardan ajralib qoldi? U qo'lga biror buyum olib marshga qo'shilishni istadi. Ildizlarga teginib ko'rdi va chuqur nafas oldi. Lekin ildizlar va tuman uning ongini zaharlamadi. Ildizdan bir chimdim yulib tatib ko'rdi. Hech nima. Balki, unda immunitet bordir? Bu dahshatning o'zi. Bu yerda yolg'iz o'zi sevimli shahrini qutqarishi kerak.

U eski shahar sari chopdi. Devor oshib ulkan kubga yaqinlashdi. Umumiy manzarasini chamalash uchun yuz metr naridan kuzatdi. Birdan tushundiki, oyoq ostida yer yo'q ekan, bu qizil ildizli to'shama edi. Ildizlar unga zarar yetkazolmasligiga amin bo'lgach kubning yoniga borib sinchiklab qaradi. Uning asosida ulkan daraxt borligini payqadi. Uning diametri oltmish metrcha bo'lib, atrofidagi barcha inshootlarni buzib tashlagandi. Bo'yi esa to'rt yuz metrdan oshgan va hamon o'sib borardi.

Mer uning markaziga kirib olishga urindi, ammo biror tirqish topolmadi. So'ng ierogliflarni o'rganishga kirishdi. G'alati tilda chiroyli husnixat bilan yozilgan mitti harflarni qo'li bilan ushlab ko'rdi. Kub qarshilik qilmadi. Balki, shu harflar kalitdir. Shahar rahbari va daraxt o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q edi, faqat o'rtadagi mana shu kitob ularni bog'lashi mumkin, ammo Mer uni o'qiy olmaydi.

Shahar ahli klinika va shifoxonalar atrofida yig'ilishdi. Ular bino yo'laklari, devorlar, pollar, tomlar va yerto'lalarni vayron qila boshlashdi. Qalin devorlar odamlarning qo'lidagi temir buyumlarning urilishi oqibatida zaiflashib yiqilar, ulkan sement bo'laklar gursillab yerga qulari. Devor bosib qolgan odamlar til tortmay o'lardi, ammo og'riqni his qilishmasdi. Ular hasharot kabi shifoxonani bosib olishdi.

Mer osilib kubning cho'qqisiga chiqqa boshladi. Markazdagi teshik ikki metr enlikda ochiq edi, ammo ildizlar darhol uni yopishga kirishdi. Mer shoshilib teshik ichiga sakradi. U qalin shoxlar va ulkan gulbarglarga kelib urilib pastga sho'ng'irdi. Nazarida, sira yerga yetib kelmasdi. Shunga boshqa olam o'lchovida ekanini sezdi. Nazoratini tiklab, biror novdani ushlab qolishga urindi. Eng tagiga borishi kerakligini tushunardi, o'shanda chora topiladi. U ushlab olgan novda yuqorilab, Merni tashqariga chiqarib yubormoqchi bo'lardi. O'zini itarayotgan sirli kuchga qarshi chiqib, kubning ichkari devorlarini tomosha qilishga kirishdi. Nikosiya uzra nur sochayotgan quyosh bu yerda ham g'ira-shira to'liqinlanib turardi. U e'tibor bilan kuzatdi. Mana.

Tashqaridan ieroglif kabi ko'ringan harflar bu yerda to'g'ri turardi. So'zlardan tuzilgan gaplar, sarlavhalar yuqoridan pastga qarab yozib chiqilgandi. Bu juda katta matn edi.

Ikki abzasni o'qirkan, satrlar unga Injilni yodga soldi. U qadimiy yunon tilida, Apokalipsis Ioanna uslubida yozilgandi. Bu jumlar u o'qigan kitoblar – "Taqdir farishtasi", "Ot mingan tulpor"dan farq qilardi. U turib qoldi.

"Ochil", dedi baqirib.

So'ng pastga qaradi. U zaminga yaqin turardi. Oxir-oqibat kubning tubsiz emasligini angladi. Uning tagida, yuzlab metr pastda osoyishta Nikosiyani ko'rdi. Odatiy shahar shovqini yangrayotgan ko'chalar, o'z manziliga oshiqayotgan mashinalar, ishdan chiqib uyga shoshayotgan odamlar. U shaharga hayrat bilan qaradi. U yerda shifoxonalar, klinikalar, dorixonalar yo'q edi. Kubning ichida muqobil real hayot hukm surardi. Yaxshi hayot.

U savqi tabiiylik bilan boshqa butoqlarga qaradi. Bu yerda yolg'iz emasdi. Shoxlarda ko'plab odamlar o'tirardi. U shaharni qutqarib qolaman deb yolg'iz o'zi kurashmagani ayon bo'ldi. Bu yerdagi hamma odam shunaqa o'ylagan: qurollangan va gipnozlangan odamlardan ajralib shaharni qutqarishga kirishgan. Ular shoxlarda o'tirganча pastdagi – tepadan ko'ra baxtliroq yashayotgan o'z "men"lariga havas bilan qarab turishardi. Mer ular ichida xotini, qo'shni shahar prezidenti, qizalog'i, shifokorlar va hamshiralarni ko'rdi.

Bu yer do'zax, quyi esa jannat edi.

U xotini va qiziga qarab hayqirdi, lekin ular eshitishmadi. Balandroq novdada tirmasharkan, cho'ntagida mobil telefoni turganini payqadi. Qo'liga oldi. Yoqishi bilan feysbuk tarmog'idan xabarlar kela boshladi. Ular oxirgi oy davomida yig'ilib qolgandi. Yangiliklar tasmaida esa qizi besh daqiqa avval otasi bilan tushgan suratini joylaganini ko'rdi. Go'yo shaharda hech nima bo'lmagandek. U so'nggi bor baqirdi: "Agar men hozir ko'chada bo'lsam, bu yerda ham bo'lsam, pastda ham bo'lsam, bu Apokalipsis bo'lsa, unda men kimman?"

Uning telefoni notanish kuy taratib jiringladi.



O'Imasoy NISHONOVA

*1984-yili tug'ilgan.
O'zbekiston Milliy
universiteti qoshidagi
Oliy adabiyot kursini
tamomlagan. Respublika
yosh ijodkorlarining Zomin
seminari ishtirokchisi.
"Muhabbat bekati", "Harorat"
nomli she'riy to'plamlari
nashr etilgan.*

Ko'zingizdan ketsam butunlay

Ko'zingizdan ketsam butunlay,
Kiprigingiz og'rinmasmikan?
Lablaringiz xayrlashsa-da,
Ko'zlaringiz sog'inmasmikan?

Qo'lingizdan tutmasa agar
Qo'llaringiz yo'qlamasmikan?
Tushlaringiz meningsiz tunlar
Uxlarmikan, uxlamasmikan?

Biz sevgini ming yil kutgandik
Sevgi bizni bir tilarmikan?
Ketsak, balki kechirgaydir ishq,
Faqat Xudo kechirarmikan?

Ming yil ermakladi *meni ozorlar*

Ozurda ko'nglimga armonlar tutash,
Orzumni eng baland chinorga osdim.
Tinmay o'saverdi hijron-u g'amim,
Daraxt yaproq yozdi, men she'rlar yozdim.

Bu kun o'ksitmadim qayg'ularni ham,
Ilkinga ilondek o'rladi bari.
Qani bir mard bo'lsa, meni to'xtatib,
Yashashni o'rgatsa odam singari.

Qani bir mard bo'lsa, qo'limdan tutib,
Eng toza hislarga aylasa oshno.
Shunda qolmasmidim senga bog'lanib,
Shunda yurmasmidim bag'ringda, dunyo.

Bu kun achchiqlanma qo'lim siltasam,
Ketsam, yo'llarimni behuda to'sma.
Axir nima qilay to'lmasa ko'nglim,
Axir nima qilay yuragim to'lsa...

Lahzalarga jonim ulashib,
Kimlargadir yucingim kelmas.
Isming aytib urmasa yurak
Bil, o'sha dil meniki emas.

Ishqing bilan yashayman endi,
Seni deydi axir yer, osmon.
Menga faqat yolg'iz o'zingni
Sevmoqlikni o'rgat, Xudojon.

* * *

Ming yil ermakladi meni ozorlar,
Ko'nglimdagi dardga yarashib keldim.
Chiqolmay kunlarning karvonlaridan,
Shikasta yurakka yashashib keldim.

Qay zamon ko'zlarim to'xtadi senda,
Tillarimga indi baxtning totlari.
Yuratingga tomon yo'l oldim qachon
Yirtib alamlarning xotirotlarin.

Ishq dedim, hijronlar ketdilar to'zg'ib,
Hatto ismingni-da bilmagan onim.
Ishq dedim, olovlar to'ldi ko'ksimga,
Jannatga aylandi butun oshyonim.

Lahzalar bo'yniga ilib umidni,
Kuldim, kulaverdim baxt bilan birga.
Menga ulkan yurak, ulkan dard bergan,
Shukrona ayladim bu kun taqdirga.

* * *

Sekingina ochilar eshik,
Pardalarda turadi titroq.
Sukunatga urib tarsaki
Umid kela boshlar yaqinroq.

Keng xonaga yog'ila boshlar
Chiroqlardan umidmi, hayrat.
Suratdagi qushlarning hatto
Yuborgisi keladi sayrab.

Bir... ikki... uch... yo'q hamon darak,
Devorlarning oqarar rangi.
Axir eshik ochgan kim edi,
Shamolmidi, izg'igan daydib?

Yig'lagisi kelar xonaning,
Xo'rsiniqlar uchar oynadan.
Axir qanday kechadi undan,
Axir qanday undan tonadi?

Sekingina yopilar eshik,
Yashamoqdan horgan singari.
Miyig'ida jilmaygan ko'yi
Hanuz xayol surar tashqari.

Manguga yodladik ko'ngil ikkimiz...

* * *

Qaysi bir kitobda "sevgi she'r" bo'lsa,
Bukib qo'yar edim varaq chetini.
O'n marta, yuz marta o'qirdim rosa,
Yoddan aytmaguncha o'sha betini.

Bugun bir oddiy qiz, bag'oyat sodda,
Qoracha yuzlari upa-eliksiz.
Surat-u siyratin qoldirdi yodda,
Manguga yodladik ko'ngil ikkimiz.

Bu aqlim nimaga yetmadi-yetdi,
Yodlab kitoblarning son-ming betini?
Qiz qalam ishlatmay she'r yozib ketdi,
Keyin bukib qo'ydi yurak chetini.

* * *

Bog'chadagi bolaga bugun
ich-ichimdan qilaman havas.
Bir kun baxtli yashashi uchun
bog'cha opa o'pib qo'ysa bas.

Ertakka ishonib yursa ham,
qo'shnimning to'rt yashar bolasi.
O'yinchoq talashib tursa ham,
ichida bo'lmaydi olasi.

Bugungi kunimni aytaman,
kurahsiz o'tmaydi bir oni.
Men yana bog'chaga qaytaman,
kattalar talashsin dunyoni.

Mansur NAZAROV



Bugalamun

Hajviya



**Do'stbek
SULAYMONOV**

1981-yili tug'ilgan.
Samarqand davlat
universitetida tahsil olgan.
"Cho'qqilarga intilib..."
hikoyalar va "Salom qani?"
hajviyalar to'plami chop
etilgan.

Yangi ulovli bo'ldim. Oppoqqina "Lasetti" mni katta ko'cha betida to'xtatib, do'konga kirib chiqsam, anchadan beri ko'rishmagan to'rt-besh jo'ralarim peshvoz chiqib qoldi. Sog'inishib qolgan ekanmiz, gapimiz hech tugamadi. Ularga:

– Hoy og'aynilar, ko'chada turaveramizmi? Bahona bo'lsa bor, mana "yangi toychoq", yuvamiz. Suhbatni choyxonada davom ettirsak bo'lmaydimi? – dedim.

– Shunday demaysanmi? Shu yangi mashina senikimi? Menikining turishini qara. "Neksiya" yam mashinami?! – darrov dardi hol qilib qoldi Zafar. Men mag'rurlanib qo'ydim. Axir "oting zo'r" desa, har qanday chavandoz quvonadi.

– Mashoyixlar qo'shnining tovug'i g'oz ko'rinadi degan. Qo'y, shu gaplarni, seniyam mashinang yaxshi. Yur, undan ko'ra, oshxonaga kiraylik. Mingta siz-bizdan, bitta jiz-biz yaxshi, – har doimgi donoligini ishga soldi Jasur. – Uning ustiga bahonamiz tayyor. Ktdik, og'aynilar! Armonda qolma!

Jo'ralarga bu ma'qul bo'ldi. Shu atrofdagi oshxonaga kirib, taom buyurdik.

– “Oqchoy”ning yaxshisidan bormi? – dedi bir o'rtog'imiz ofitsiantni to'xtatib.

– Qo'ysang-chi shuni, hammamiz “rul”da bo'lsak, – dedi Qudrat norozi ohangda.

– Nega qo'yarkanmiz, olib keling o'shaning yaxshisidan, “toychoq”ni yuvmasak bo'lmaydi, – dedi boshqalari jo'r bo'lib.

Ovqat keldi, keyin ichkilik keldi, nechta keldi, sanamay qo'ydik. Xullasi, mashinaning aytilmagan-u, eslanmagan joyi qolmadi.

Bir zamonlar turdik, ko'chada ham bir soat xayrlashdig-ov. Hamma o'z yo'liga ketdi. Mashinaga o'tirdim, “Bosh joyida, demak, mashina haydasak bo'ladi”, – sarxushlanib o'yladim men. Mashinada biroz yurgan ham edim, dard ustiga chipqonday gala “GAI”lar reydl qilib turgan ekan, shartta to'xtatishdi:

– Leytenant Avvalboyev. Ichganmisiz? – dedi ulardan biri “olatayog”ini sehlridek silkitib. “Yo'q” degandek bosh chayqadim. “Puflang-chi!”, u yuzimga qo'lini ko'zacha qildi, pufladim.

– Uf-fu, – qo'lini siltab bir nimalarni haydadi u yuzidan. – Cho'kib ketibsiz-ku. Tochno “01”. Iya, mashina ham yap-yangi ekan-a. Uvol-a. Qani ketdik narkologiyaga.

– Nega? Nima uchun? Iltimos, shu mashinani “yuvgandik”, jo'ralar qo'ymadi-da.

– Qancha ichganingizni aniqlaymiz. Rasmiyatchilik uchun, tushing mashinadan, narigi tomondan o'tiring, – dedi Avvalboyev ovi o'ngidan kelgan ovchiday xursand bo'lib.

U joyimga, men esa tentirab-tentirab uning yoniga o'tirdim.

Bunaqa paytda “GAI”lar chaqqon bo'lib ketarkan, birpasda “g'iz” etib, narkologiya dispenseriga olib bordi. Yetaklashib kirdik. Qabul bo'limida oq xalatli shifokor qog'oz titkilab o'tirardi.

– Botir aka, bu kishi ichgan ekan, rasmiylashtirish kerak, – dedi Avvalboyev uning yoniga o'tirarkan. Shifokor menga bir o'qrayib qaradi. “Bu ishlar ko'p cho'ziladi, shekilli” deb o'yladim. Yonimdagi bo'sh o'rindiqqa cho'kdim.

– O'tirma, hoy, mol, moldan ham battarsan, stulni rasvo qilasan, – vajohat bilan o'shqirib berdi shifokor.

– Kimni mol deyapsiz? Muomalangizni to'g'rilang, – unga tanbeh berdim turayotib.

– Nima? – shifokor burgadek sapchib tushdi. – Vey, moldek bo'kib ichgansan, yana aql o'rgatasan.

Indamadim. Lekin bu gaplar o'rma qamchidek tegardi. “Shoshmay tur, jo'jani kuzda sanaymiz-a”. Sabr etishda davom etdim.

– Bular shunday, ichaveradi-ichaveradi, molga o'xshab, – kimdir uning asabini buzib qo'ygan, shekilli, alamini mendan olish uchun jahl otini qamchilab qoldi u. – Ichish qanaqa bo'lishini senga ko'rsatib qo'yaman hali!

U shaxt bilan turib boshqa xonadan qanaqadir suyuqlik solingan uskuna ko'tarib kirdi. Menga uzatarkan, “pufla” dedi. Asta puflagandim:

– Qattiqroq, ey mol! – dedi shifokor, aftidan unga “mol” so'zi ko'p yoqardi. – Rosa ichibdilar-da, molga o'xshab, a? – shifokor puflagan uskunaga ishora qildi. Suyuqlik ko'karib ketgan deng. Aslida, siyohrang bo'lishi kerak ekan, keyin tushuntirishdi. Biz boya aroq bilan pivoni aralastirib yuborgan edik-da. Ana tayyor kimyo





darsi sizga. Shifokor qo'llarini bir-biriga ishqab, bayonnoma to'ldirishga tutingan Avvalboyevga qarab irshaydi.

– Ismlari, familiyalari?.. Yosh nechida, yosh?..

Hammasini birin-ketin yozdi.

– Ish joyimiz qayer endi, lavozimlari kim? – ikki nafar kun qahramonlari ham qarmog'ining qulog'ini burayotgan baliqchidek og'zimga umidvor tikilishdi.

“Yayrasang, yayrayqol”, dedim ichimda.

– Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi bo'lim boshlig'i...

Halidan beri bizning savol-javobimizni zo'r ishtiyoq bilan kuzatib turgan doktorning burgadek qisq ko'zlari kattarib ketdi, birpasda dami chiqqan ko'ptokdek shalpaydi:

– Siz “oblzdrav”danmisiz? – dedi dovdirab.

– Ha, yozavering, yana qanaqa ma'lumot kerak edi?

– Siz o'tiring, nega turibsiz, – dedi u mehribon ohangda, rangi ham o'zgardi, bir enlik eti ko'chib bechoraroq qiyofaga kirdi, – iltimos, mening joyimga o'tira qoling.

Kir bosgan qalpgog'i-yu, yirtiq cho'ntagi aralash stuliga bir qarab oldim. Keyin esa u:

– O'rtoq Avvalboyev, sizni bir daqiqaga tashqariga mumkinmi? – dedi imo qilib. “GAI”ni olib chiqib ketdi.

Birozdan keyin xiyol egilgandek bo'lib, jilmayib kirib kelishdi.

– O'rtoq boshliq, yaxshi o'tiribsizmi? Hozir bitta qahva damlab beraman. Bosh ochiladi, ha, yengil tortasiz-da, – dedi shifokor tavoze bilan.

– Yo'q, qo'yavering, savol-javob tugagan bo'lsa, bering imzolab beray, ketishim kerak.

– Uzr, tanimay qolibman. Bizni kechiring, iltimos.


– Hech narsa bo'lmadi, – dedim pinagimni buzmay.

– Iye, nima deganingiz bu, bu hujjat bir martalik-ku, yana nomerlangan, lekin mayli, bir imkonini qilamiz, – deya ko'zlarini ko'zimdan uzsa, men uni chaqib oladiganimday baqrayib “GAI” bola zo'r hafsala bilan to'ldirgan bayonnomanini o'zining daftarlariga qo'shib g'ijimlay boshladi. Bizni kuzatib turgan Avvalboyev joyidan sakrab turdi.

– O'zim, o'zim tushuntiraman, o'zim hal qilaman, – dedi shifokor hovliqib. Avvalboyev jim bo'lib qoldi. – O'rtoq boshliq, o'ziz keta olasizmi yo olib borib qo'yaylikmi?

– Keta olaman.

Vrach atrofimda girdikapalak bo'lib aylanar ekan, mashinaga qarab yurdim. Uning kaftidan kalitimni olib mashinaga o'tirib tezlikni oshirdim. Oynadan ko'rib turibman, bukilgan qo'llarini ko'ksiga bosib ta'zim qilayotgan shifokor nuqtaga aylanguncha ham joyidan jilmadi...



Muqovada

Ahmad To'ra

olgan suratdan foydalanildi.

Bosishga 19.09.2021-yilda ruxsat berildi.

Qog'oz bichimi: 84x108 ¹/₁₆

Nashriyot hisob tabog'i: 8

Obuna indeksi – **822.**

ISSN 0207-9137.

Jurnal 2007-yil 4-mayda

O'zbekiston Matbuot va

axborot agentligi tomonidan

N° 0253 raqami bilan

ro'yxatga olingan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda

“Yoshlik”dan olindi” deb

izohlanishi shart.

“SILVER STAR PRINT” MChJ

bosmaxonasida chop etildi.

Buyurtma N° 43. Adadi: 707.

Toshkent shahri,

Uchtepa tumani,

22-mavze, 17-uy.